Maʼlumki, analitik tadqiqotlar, uning natijalari va ulardan ishlab chiqarishni boshqarishda foydalanish maʼlum talablarga javob berishi kerak. Bu talablar analitik tadqiqotlarni oʻtkazishga olz taʼsirini koʻrsatadi albatta. Iqtisodiy tahlilni tashkil

qilish, o'tkazish va uning natijalarini amalda foydalanishda ularga qat'iy rioya qilinishi shart.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning faoliyatini tahlil qilish natijasiga asoslanib ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinadi va u tufayli boshqaruv sistemasi boshqariladigan ob'yektning faoliyatini zaruriyatga qarab o'zgartiradi. Qabul qilingan qaror boshqaruv jarayonining asosidir. Yangi xo'jalik yili uchun ishlab chiqilgan reja bu korxonani kelajakda rivojlanishini ta'minlaydigan qarordir.

Bu tamoyillarning xalqaro va milliy hisob andozalari asosida quyidagi shakllarini aytib o'tish mumkin

Iqtisodiy tahlil fanining tamoyillari

Tamoyillar	Mazmuni
1	2
Tizilmalilik	Tahlil etilayotgan obyekt alohida bir butun tizilma yoki tizilmaning elementi deb qaraladi.
Ishonchlilik	Olingan ma'lumotlarda xato yo'qligi va haqqoniy ekanligi, realligi
Taqqoslanuvchanlik	Ko'rsatkichlar taqqoslanuvchanligi, ularning bir asosli tarzda turli davrlar va boshqa korxonalar faoliyati to'g'risidagi xuddi shunday ma'lumotlar bilan qiyosiy o'rganish
Betarafililik	Axborot foydalanuvchilarning bir guruhining zarari hisobiga boshqa guruhlar manfaatlarining qondirishning o'rinsizligi
Davriylik	Olingan ma'lumotlarning davriy oralig'i, xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan vaqti bilan ta'minlab turish
Pulli baholash	Barcha aktivlar, kapital va majburiyatlarning so'mda ifoda etilishi
Hisobga olish	Daromad va harajatlarning yuzaga chiqish vaqti, o'rni va markazlari bo'yicha hisobga olinishi

2-ma'ruza: IQTISODIY TAHLILNING METODI VA UNDA QO'LLANILADIGAN USULLAR

Reja:

- 2.1. Iqtisodiy tahlilning metodi va usullarini tasniflanishi.
- 2.2. Solishtirish (taqqoslash) usuli va uni qo'llashda amal qiladigan shartlar.
- 2.3. Guruhlashtirish usuli va uning tahlilda qo'llanilishi.
- 2.4. Balansli bog'lanish usuli va uning tahlilda qo'llanilishi.
- 2.5. Zanjirli bog'lanish usuli va uning tahlilda qo'llanilishi.
- 2.6. Indeks usuli va uning tahlilda qo'llanilishi.

2.1. Iqtisodiy tahlilning metodi va usullarini tasniflashi.

Metod qadimgi grek tilidan olingan bo'lib, tabiat hamda jamiyatda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni o'rganish va bilish usulini anglatadi. Tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liq va aloqadordir. Shu tufayli ularning qaysi jihati o'rganilishidan qat'iy nazar tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlar bir-biri bilan bog'liqlikda, aloqada deb qarash lozim bo'ladi. Bunday qarashni ta'minlash uchun ularni o'rganishga dialektik usul bilan tizimli ravishda yondoshish lozimdir. Bu esa o'z navbatida o'rganilayotgan barcha hodisa va jarayonlarni bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda, aloqada va doim o'zgarishda, deb qarashni taqozo qiladi.

Xuddi shu nazariy xulosadan kelib chiqqan holda iqtisodiy tahlil fani metodining mohiyatini ochish lozim. Ammo ushbu fan metodining mohiyati nazariy jihatdan hamon to'g'ri hal qilingan emas. Bunga turli olimlarning turli davrlarda turlicha yondoshganligini asos qilib olish mumkin.

Tahlil fani metodiga ta'rif berish bo'yicha olimlar bir qancha guruhlariga bo'linadilar. Ba'zi olimlar iqtisodiy tahlil metodini tadqiq qilib, ishlab chiqarish kuchlarining ishlab chiqarish munosabatlariga to'g'ri kelishi va usullarning tizimi, deb qaraydilar. Masalan, Ye.V.Dolgoplov "Iqtisodiy tahlil metodi bu iqtisodiyotning dinamik o'sishini, ishlab chiqarish munosabatlarini ishlab chiqarish kuchlari bilan uzviy birlikda, ularning tendensiya va qonuniyatlarini, omip va rezervlarini uzluksiz va kompleks tadqiq qilish usullari sistemasi va tamoyilidir" deb ko'rsatadi. Biroq, bu ta'rifda iqtisodiy tahlil metodining o'ziga xos xususiyatlari ochilmasdan qolgan. Ma'lumki, ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqarish kuchlari asosan iqtisodiy nazariya fanida o'rganiladi. Lekin mazkur muallif tomonidan ana shularni iqtisodiyotning qaysi bo'g'ini yoki darajasida o'rganilishi ham ko'rsatilmagan. Xo'jalik faoliyatining tahlili, ta'kidlanganidek, mikroiqtisodiyot darajasida amalga oshiriladi.

2.2. Solishtirish (taqqoslash) usuli va uni qo'llashda amal qiladigan shartlar. Rejali iqtisodiyot sharoitida rejani asos qilib olish mumkinku degan savolning tug'ilish tabiiy. Ammo o'sha davrda ham tahlil metodining ta'rifshsh ishlab chiqishda har qanday rejadan, yuqoridan turib boshqarishdan holi holda yondoshgan mualliflar ham talaygina. Jumladan, N.A.Xan iqtisodiy tahlil metodini quyidagicha ta'riflaydi. "Iqtisodiy analiz metoda deganda ishlab chiqaruvchi kuchlardan va iqtisodiy qonunlardan foydalanish yo'llarini o'rganish yoki urpshishga yondoshishni tushunmoq kerak. Bunga xo'jalik rezervlarini topish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini belgialash uchun ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy qonunlarning tarkibiy qismlarini bo'lib ko'rish vositasida erishiladi".

Bu ta'rif reja bajarilishi, boshqaruv harakatlarini bajarish kabi metodlarga tayanib aniq uslubiy fan sifatida yoritilgan. Iqtisodning birlamchi ekanligini, uning turli bo'g'inlari mavjudligini inobatga olish lozim edi. Ushbu ta'rif mik-roiqtisodiy tahlilga nisbatan makro iqtisodiy tahlil metodini ifodalash uchun ancha yaqin. Shuningdek bu ta'rifda nazariy jihatdan ancha mavxumdiklar mavjud. Bunda tahlilga

xos xususiyat ochib berilmagan. Bu ta'rifni menejment, ishlab chiqarishni tashkil qilish kabi fanlarga ham qo'llash mumkin.

Bir guruh olimlar L.I. Kravchenko, P.I.Savchiyev, V.I.Samborskiy tahlil fani metoda ta'rifini yozishda unga mustaqil fan sifatida yondoshish va uning harakterli xususiyatlarini shu fan metodining ta'rifida ochib berishga harakat qiladilar. Lekin tahlil ta'rifini nazariy jihatdan shakllantirishda har xil usuli iqtisodiy tahlilning metodidir" deb ta'kidlaydi. Xuddi shunday fikrni A.D.Sheremet, R.Kmisikevich, I.I.Karakoz kabi olimlar ham qo'llab ushbu qisqa umumiy ta'rifga aniqlik kiritish uchun shu fanning harakterli xususiyatlariga tuxtaydilar. Bizning fikrimizcha, xo'jalik faoliyati tahlili fanining o'ziga xos ta'rif ishlab chiqilmog'i va bunda uning harakterli xususiyatlari aniq ko'rinib turmog'i lozim.

Bir guruh mualliflar (Ye.P.Jarkovskaya, KG.Romanova, S.S.Romanova) xo'jalik faoliyati tahlili fanini iqtisodiy fan sifatida qarab uning metodining nazariy asosi dialektik materializm bilan birgalikda siyosiy-ikdisod fani ham deb ukgiradilar. Ularning ta'ysidlashicha: "Xo'jalik faoliyati tahlili metodining ilmiy asosi dialektik materializm va siyosiy iqtisoddir". Bu fikrni oydinlashtirish, xo'jalik faoliyati tahlili fani metodining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish uchun yozadilar: "Iqtisodiy tahlil hodisalarning umumiy ko'rsatkichlarini alohida qismlarga bo'lish (tahlil) va hodisalarning alohida omillarini umumlashtirish (sintez) yo'li bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganadigan dialektik metodga asoslanadi".

2.3. Guruhlashtirish usuli va uning tahlilda qo'llanilishi. Birinchi guruh olimlar iqtisodiy tahlil metodini turli usul va uslublar majmuidan iborat, deb baholaydi. Ikkinchi guruh olimlar esa, ktisodiy tahlili metodinikorxonalar samaradorli-gini oshirish maqsadida ularning faoliyatini tizimli, kompleks o'rganish, baholash va umumlashtirish, deb tushunadi. Uchinchi guruh olimlar iqtisodiy tahlil metodi, korxonklarning ishlab chiqarish, moliyaviy va xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni tizimli ravishda kompleks o'rganish, o'lchash va umumlashtirish hamda foydalanilmayotgan imkoniyatlarni ishga solish yuzasidan boshqaruv qarorlarini qabul qilish tushuniladi, deb uktiradi. Ko'rinib turibdiki, bitta kategoriyaning ta'rifiga turli olimlar turlicha yondashgan.

2.4. Balansli bog'lanish usuli va uning tahlilda qo'llanilishi. Tahlil metodining shunday ta'rifsini yaratish lozimki, u ob'yektning yoki tuzumning o'zgarishi bilan o'zgarmaydigan bulsin, chunki har qanday fan, xususan, xo'jalik faoliyatini tahlil qilish fani ham qaysi tuzumdan qat'i nazar o'zining nazariy jihatdan asoslangan metodiga ega bo'lishi lozim.

Bundan kelib chiqib, uzoq yillar o'tkazgan tadqiqotlarimiz natijasida xo'jalik faoliyati tahlili metodining ta'rifini ishlab chiqishda uning birqancha talablarga javob berishi lozim degan xulosaga keldik. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- har qanday fan metodining nazariy asosi bo'lishi kerak;
- unda nimani o'rganishi va uning qayerda ifodalanishi ko'rinib turmog'i lozim;
- qayerni, qaysi ob'yektni va qaysi davrni o'z ichiga olishini ifodalashi darkor;

– nima maqsadda amalga oshirilishi ko‘rinib turishi kerak;
–shu maqsadni amalga oshirish uchun nimalar qilishnishi aloxdda ta’kidlanishi lozim.

Iqtisodiy tahlilning metodi dialektik metodga asoslangan bo‘lib, uning predmetini makon va zamonda, axborotlar manbaida ifodalangan ko‘rsatkichlar tizimi asosida har tomonlama kompleks o‘rganish, mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni (rezervlarni) aniqlash, ob‘yektning samaradorliginni oshirish, uning iqtisodiy qudratini yuksaltirish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, boshqarishni takomillashtirish maqsadida qo‘llaniladigan usullar majmuidan iboratdir". Bizning fikrimizcha, ushbu ta‘rif iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikasiya qilish va innovatsiyalarni joriy qilish sharoitida iqtisodiy tahlilga qo‘yiladigan barcha nazariy va amaliy talablarga javob beradi.

Iqtisodiy tahlil fanining metodini quyidagicha asoslash mumkin. Birinchidan, u dialektik metodga asoslanganligidir. Bu bir qancha falsafiy qonunlar va kategoriyalarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchidan, uning predmetini makon va zamonda, axborotlar manbaida ifodalangan ko‘rsatkichlar tizimi asosida har tomonlama kompleks o‘rganish ko‘zda tutilgan. Aniq ko‘rsatkichlar tizimi, aniq va asosli xulosalar chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘ladi. Uchinchidan, xo‘jalik faoliyati tahlili natijasida xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarda mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni (rezervlarni) aniqlash masalasi ham ustuvorlikni tashkil qiladi. To‘rtinchidan, o‘rganilayotgan ob‘yektning samaradorliginni oshirish, uning iqtisodiy qudratini yuksaltirish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash masalasiga qaratilganligi ham masalaning muhim jihatini tashkil qiladi. Beshinchidan, boshqarishni takomillashtirish maqsadida bitta yoki ikkita emas, balki tahlil jarayonida qo‘llaniladigan barcha usullar majmuidan iboratligi qayd etilgan.

Iqtisodiy tahlilning metodologik asosi, ya‘ni uni o‘rgatishda qo‘llaniladigan yondashuvlar turli yo‘nalishda bo‘lishi tabiiy. Shu tufayli ularni, eng avvalo, to‘g‘ri tasniflash lozim bo‘ladi. Fikrimizcha, ularni o‘rganishda qanday yondashishiga qarab ikki guruhga bo‘linadi:

1) o‘rganilayotgan ob‘yektga dialektika nuqtai nazaridan yondashish.

2) o‘rganilayotgan ob‘yektga tizimli uzluksizlikni ta‘minlagan holda yondashish.

Birinchi yondashish bo‘yicha tahlil qilinsa barcha, iqtisodiy jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda, harakatda va doim o‘zgarishda, deb qarash lozim bo‘ladi.

Bundan kelib chiqadigan bo‘lsa shuni ta’kidlash joizki, iqtisodiy jarayonlarni ifodalaydigan ko‘rsatkichlar ham bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda va o‘zgarishda deb qaraladi. Bu yondashuv, ayniqsa, natijaviy ko‘rsatkichlarning omilli tahlilda qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv natija ko‘rsatkichiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashda keng qo‘llaniladi.

Ikkinchi yondashuv bo‘yicha tahlil qilinganda o‘rganilayotgan ob‘yektning murakkab iqtisodiy jarayonlar majmuasidan iborat deb baholab, ularning barcha qismlari bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikdaligidan kelib chiqib, ularni o‘rganishda barcha jihatlarini tartibga solgan holda yaxlit xulosaga kelguncha

qilinadigan hodisalarga uzluksiz ravishda sistemali tarzda yondashish lozimligini taqozo qiladi. Bunga o'rganilayotgan ob'yektni detallashtirish, tizimlashtirish (tartiblashtirish) va umumlashtirish orqali erishish mumkin.

2.5. Zanjirli bog'lanish usuli va uning tahlilda qo'llanilishi.

Induksiya va deduksiya kategoriyalari iqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu kategoriyalar iqtisodiy tahlilning ketma-ketligini ta'minlaydi, Masalan, induksiya deganda o'rganilayotgan ob'yektning xususiylikdan umumiylikga qarab o'rganilishi tushuniladi. Bunga misol qilib mehnat unumdorligi tahlilini olish mumkin. Unga vaqt nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak uni bir soatlik mehnat unumdorligi, bir kunlik, un kunlik, bir oylik, bir choralik, yarim yillik, to'qqiz oylik, bir yillik mehnat unumdorligi darajasigacha umumlashtirish mumkin.

Deduksiya metodida tahlil qilinayotgan ob'yekt umumiylikdan xususiylik sari, ya'ni umumiy ko'rsatkichlardan xususiy (kichik) ko'rsatkichlarga qarab o'rganish tushuniladi. Bu usulga misol qilib birlashmada foyda rejasining bajarilishini olish mumkin. Ushbu ko'rsatkich oldin butun birlashma bo'yicha o'rganiladi, so'ngra uning alohida korxonalari (firmalari) bo'yicha, ularning alohida bo'linmalari bo'yicha ketma-ketlikda o'rganilib, umumiy natijaga qaysi bo'g'in va bo'linmalarning ijobiy yoki salbiy ta'sir qilganligi to'g'risida xulosa qilinadi.

Makon va zamon kategoriyalari ham iqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslaridan biridir. Zero, barcha iqtisodiy jarayonlar makonda (xo'jalik yurituvchi sub'yektda) ma'lum bir zamon doirasida (vaqt mobaynida) sodir bug'ladi. Shu tufayli zamonning utishi bilan makondagi natija o'zgaradi va uning teskarisi, ya'ni makonning o'zgarishi bilan zamon o'tgandan keyin natija boshqacha bo'lishi mumkin. Masalan, makonga korxonalarni, ish joylarini, firma kabi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni misol keltirish mumkin. Bular tahlilining ob'yekti. Zamon deganda esa ularning ma'lum bir hisobot davri tushuniladi. Makonda sodir bo'lgan jarayonlar ma'lum bir hisobot davri (zamon) o'tgach jamlanadi va umumlashtiriladi. Bu ham shu hisobot davrini tahlil qilish uchun ma'lumot manbai bo'lib hisoblanadi.

Analiz va sintez. (Tahlil va umulashtirish) kategoriyasi ham iqtisodiy tahlilning metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Tahlil deganda bir butun yaxlit predmetni alohida bo'laklarga bo'lib o'rganish tushuniladi. Umumlashtirish (sintez) esa O'rganilayotgan ob'yekt to'g'risida yaxlit xulosaga kelish uchun foydalaniladi. Unda ob'yektning barcha bo'laklari bo'yicha qilingan xulosa umumlashtiriladi. O'rganilayotgan ob'yekt yoki iqtisodiy jarayon haqida yaxlit va aniq xulosaga kelishi uchun u tahlil qilinadi va barcha xulosalar umumlashtiriladi. Tahlil bor joyda umumlashtirish, umumlashtirish uchun esa tahlil qilish lozim. Shu tufayli ushbu kategoriyalar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda qaraladi.

2.6. Indeks usuli va uning tahlilda qo'llanilishi. Sabab va oqibat kategoriyasi ham bevosita iqtisodiy tahlilning metodologik asosi sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy tahlilda natija va omillar tushunchasi mavjud. Iqtisodiy faoliyat natijasini ifoda etgan birorta ko'rsatkich natija ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Buni falsafiy jihatdan qaraydigan bo'lsak oqibatdir. Ammo shu oqibat o'z-o'zidan sodir omillar

deb qaraladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (oqibat) birqancha omillarga, ya'ni xodimlar soni, ularning malakasi, mehnat unumdorligi, qo'llanilayotgan texnologik jarayoni, xom ashyoning o'z vakgida sifatli ta'minoti kabi omillarga (sabablarga) bog'liq.

Shakl va mazmun kategoriyasi ham bevosita iqtisodiyotga, xususan, iqtisodiy tahlilga aloqador. Shaklning o'zgarishi mazmun o'zgarishiga, mazmunning o'zgarishi shakl o'zgarishiga olib keladi. Iqtisodiyotda ushbu bog'liqlik juda yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, ayollar sumkasining shakli chiroylik va chidamlilik bo'lishi uchun, unga qimmatbaho materiallar, turli bezaklar ishlatiladi. Natijada uning mazmuni chidamlilshgagi, narxining nisbatan kimatliligi bilan o'zgaradi. Yoki oddiy material o'rniga sifatli material ishlatib uning mazmunini boyitish kerak bo'lsa albatta shakli ham o'zgaradi.

Shu jihatdan iqtisodiy tahlilda shakl va mazmun bir-biri bilan uzviy dialektik aloqada bo'lganligi bilan ham metodologik asos sifatida qo'llaniladi. Masalan, biror birlashma tarkibida korxonalar soni uning shaklini tashkil qilsa, ularning nima bilan shug'ullanishi, qanday texnologiya ishlatilishi, kanaka qadrlar bilan ta'minlanganligi kabi jihatlar uning mazmunini tashkil qiladi.

Miqdor va sifat kategoriyasi ham iqtisodiy tahlilda ayniqsa iqtisodiy jarayonlar natijasini ko'rsatkichlarda ifodalashda keng qo'llaniladi. Ko'rsatkichlar mazmuni bo'yicha miqdor va sifat ko'rsatkichlariga bo'linadi.

3-ma'ruza: IQTISODIY TAHLILDA QO'LLANILADIGAN KO'RSATKICHLAR VA KORXONANING MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR.

Reja:

3.1. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar va ularni tasniflash belgilari.

3.2. Ko'rsatkichlarni mazmuni va foydalanish doirasi bo'yicha tasniflash.

3.3. Ko'rsatkichlarni ifodalanish shakli va umumlashtirish darajasi bo'yicha tasniflash.

3.4. Omilli tahlil va uning asosiy elementlari, tasniflanishi.

3.1. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar va ularni tasniflash belgilari.

Iqtisodiy tahlil jarayonida qo'llaniladigan matematik modellar usullarining bir qancha o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- omillar bilan natija o'rtasidagi bog'liqlik turli bo'lganda ham foydalanish mumkin;
- ushbu usullarni qo'llash natijasida omillarning soni va mazmuni o'zgarishiga erishiladi;

– katta va keng bog‘lanishlarni qisqartirib ifodalashga erishish mumkin va x k.

Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan matematik usullarni bevosita iqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilishda qo‘llanilganligi uchun ularni turli jarayonlarni tadqiq qilishda foydalanish mumkin. Ularning batafsil tasnifi alohida yunalishlar bo‘yicha qarab chiqiladi.

Mazkur matematik modellar iqtisodiy va statistik tahlilga bag‘ishlangan adabiyotlarda yetarli darajada o‘z aksini topmagan. Iqtisodiy tahlilning an‘anaviy usullari ham barcha tahlilga oid darsliklarga u yoki bu shaklda kiritilganligiga qaramasdan, bular ham iqtisodiy tahlilda hamisha qo‘llanilmay qolmoqda. Natijada ko‘pgina ichki imkoniyatlar ochilmasdan qolib ketmoqda.

Odatda matematik usullar mikro va mikro iqtisodiyotda, ularda sodir bo‘layotgan iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishda keng qo‘llash mumkin. Bu holat bevosita iqtisodiy tahlilga ham tegishlidir.

Matematik usullardan asosan makro iqtisodiy tahlilda foydalanib kelinmoqda. Ammo, ta‘kidlanganidek, iqtisodiy tahlilda ushbu usullardan hozirgacha foydalanilmasdan kelinayotganligi hozirgi texnik imkoniyatlar sharoitida kechirilmaydigan hol, deb baholashga arziydi. Shu sababli matematik usullar ushbu jarayonga birinchi marta qo‘llanilishi tavsiya qilinmoqda. Tabiiyki, bunda ayrim kamchiliklar bo‘lishi mumkin. O‘ylaymizki, ushbu usullar vaqt o‘tishi bilan ushbu sohada ham asta-sekinlik bilan takomillashib boradi.

3.2. Ko‘rsatkichlarni mazmuni va foydalanish doirasi bo‘yicha tasniflash. Iqtisodiy tahlilda matematik usullarning tiplari bilan birga bir qancha usullari ham qo‘llaniladi. Ushbu usullar matematik modellar tiplarining teskarisi sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki, matematik modelning tiplarida omillarni jamlash lozim bo‘lsa, usullarida ularni uzaytirishga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiy tahlil jarayonida matematik usullarning bir qancha usullaridan foydalaniladi. Bunda asosan quyidagi usullari ko‘proq qo‘llaniladi: uzaytirish, kengaytirish, qisqartirish.

– uzaytirish usuli natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik qo‘shuv bilan ifodalanganda qo‘llaniladi;

– kengaytirish usuli natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘paytiruv bilan ifodalanganda qo‘llaniladi;

– qisqartirish usuli natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik aralash, ayniqsa, bo‘luv bilan ifodalanganda qo‘llaniladi.

Uzaytirish usuli natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik qo‘shuv bilan ifodalanganda, ya‘ni additiv modeldan foydalanilganda qo‘llaniladi.

Kengaytirish usuli natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘paytiruv, ya‘ni multiplikativ model bilan ifodalanganda qo‘llaniladi. Kengaytirishning yana boshqa shakllari ham mavjud. Bunda har bir omilni yana ikqilamchi omillar bilan kengaytirish mumkin. Buning uchun yana o‘sha mehnat unumdorligini olishni maqsadga muvofiq, deb toddik. Ushbu formulada birlamchi omillarni kengaytirib

olamiz. Ulardan biri sotilgan mahsulot hajmidir (S_m). Ushbu ko'rsatkichga bir qancha omillar ta'sir qiladi:

$$S_m = A_v * A_a * A_{as} ;$$

bunda:

A_v - asosiy vositalar aktiv sismining o'rtacha qiymati;

A_{as} - asosiy vositalar aktiv sismining samaradorligi.

Mos ravishda xodimlar soni ham bir qancha omillar evaziga shakllanishi mumkin.

$$X_s = X_{so} + X_{so'm} + X_{su} + X_{sm} ;$$

bunda:

X_{so} - oliy ma'lumotli xodimlar soni;

$X_{so'm}$ - o'rta-mahsus ma'lumotli xodimlar soni;

X_{su} - o'rta ma'lumotli xodimlar soni;

X_{sm} - maktab ma'lumotidagi xodimlar soni.

Endi shu ikkita ko'rsatkichni shakllantiruvchi omillarni formulaga quyilsa mehnat unumdorligining keng aytilgaya shakli kelib chiqadi:

$$A_v * A_a * A_{as}$$

$$M_u = X_{so} + X_{so'm} + X_{su} + X_{sm}$$

Mazkur formuladan ko'rinib turibdiki, mehnat unumdorligiga ta'sir qiluvchi ikkita omil, ularni kengaytirish natijasida yettitaga yetdi. Xuddi shunday holatlar amaliyotda juda ko'p uchraydi. Bulardan to'g'ri foydalanish uchun matematik modellarning tiplari bilan birga usullarini ham yaxshi o'zlashtirishni taqozo qiladi.

Qisqartirish usuli natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik aralash, ayniqsa, bo'luv bilan ifodalanganda qo'llaniladi.

3.3. Ko'rsatkichlarni ifodalanish shakli va umumlashtirish darajasi bo'yicha tasniflash.

Omili tahlilda funksional bog'liqliklar bilan birga staxostik (ehtimolli) bog'liqliklar ham o'rganiladi. Bulardan asosan omili tahlilda foydalaniladi. Natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik asosan ikki guruhga bo'linadi: funksional bog'liqlik va staxostik bog'liqlik.

Natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik funksional bo'lganda determinantal omili tahlildan foydalaniladi. Ular o'rtasidagi bog'liqlik staxostik (ehtimolli) bo'lganda esa, staxostik omili tahlil usullaridan foydalaniladi.

Funksional bog'liqlik deganda natija bilan omillar o'rtasida bevosita bog'liqlik bo'lishi tushuniladi. Masalan, sotilgan mahsulotning hajmi (SM) bevosita xodimlar soni (X) va mehnat unumdorligiga (M_u) bog'liq. Bu quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$SM = X * M_u;$$

Staxostik bog'liqlik deganda esa natija bilan omillar o'rtasida bilvosita bog'liqlik bo'lishi tushuniladi. Ushbu bog'liqlikni funksional bog'liqlik formulalari bilan aniqlab bo'lmaydi. Bular korrelyasiya va regressiya usullari bilan aniqlanadi. Bunga sotilgan mahsulot hajmining O'zgarishi aholining daromadlari o'sishiga

bog'liqligini misol keltirish mumkin. Bularning bog'liqligi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$U=(x_1, x_g);$$

3.4. Omilli tahlil va uning asosiy elementlari, tasniflanishi.

Staxostik usullarga iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan regressiya, korrelyatsiya kabi usullarni kiritish mumkin.

Korrelyatsiya va regressiya usullari iqtisodiy tahlil jarayonida ikki va undan ortiq ko'rsatkichlarning o'zgarishi bir-biri bilan qanchalik bog'langanligini hisoblashda qo'llaniladi. Bunda korrelyatsiya koeffitsiyenti 0 dan 1 gacha o'lchamni ifoda etadi. Agar korrelyatsiya koeffitsiyenti 0 ga teng bo'lsa, u holda o'rganiladigan ko'rsatkichlarda hech qanday bog'liqlik yo'qligini ko'rsatadi. Agar korrelyatsiya koeffitsiyenti 1 ga teng bo'lsa, u holda o'rganiladigan ko'rsatkichlarda bog'liqlik to'liq bo'ladi, ya'ni funksional bo'ladi.

4-ma'ruza: IQTISODIY TAHLILNING TURLARI VA AXBOROT MANBALARI.

Reja:

4.1. Iqtisodiy tahlilning turlari, tasniflanishi va uning mezonlari.

4.2. Iqtisodiy tahlilning manbalar tizimi va ularning turlari.

4.3. Iqtisodiy manbalar va ularga qo'yiladigan talablar.

4.1. Iqtisodiy tahlilning turlari, tasniflanishi va uning mezonlari.

Inson dunyoni axborotlar orqali anglaydi va shular asosida boshqaradi. Insonning dunyoni to'g'ri anglab, to'g'ri xulosa chiqarishi va odilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborotlar haqqoniy bo'lishligi lozim. Shu tufayli noreal axborotlardan foydalanib noto'g'ri xulosa chiqarib, o'zini ham boshqalarni ham aldash mutloqa to'g'ri kelmaydi. Bu iqtisodiyotni halokatga olib keladi, odamlarni soxtakorlikka o'rgatib qo'yadi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'nglash, uni taraqqiy ettirish, barcha qirralarini kuzatib borish uchun ham axborotlar to'g'ri va haqqoniy bo'lishligi lozim.

Real raqamlar, odilona boshqaruv, haqiqatni yuzaga keltiradi. Bu esa, o'z-o'zidan mulkdor va uning tasarrufida ishlovchilar o'rtasida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga, takomillashishiga olib keladi. Buning asosida tahlil qilinganda, axborotlardan foydalanish jarayonida qo'llaniladigan tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiylik - Axborotlar bir-biri bilan uzviy bog'lislikda sodir bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'zida mujassam etgan, shu jarayonlar haqida to'liq

ma'lumotlarni o'zida ifoda etadigan ko'rsatkichlarda tashkil topgan axborotlarga tayaniladi.

Tizimlilik Tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan bir-biri bilan bog'liq o'ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'zida mujassam etgan axborotlarni o'rganishga tizimli yondashuv orqali erishishni inobatga olish lozim bo'ladi.

To'liqlik o'rganilayotgan ob'yekt haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish uchun, uning hamma tomonlari batafsil o'rganishni taqozo qiladi. Bu esa, sub'yekt iqtisodiyotini kompleks tahlil qilish orqali erishiladi. Tahlil to'liq bo'lmasa, xulosa mukammal bo'lmaydi va mos ravishda, boshqaruv qarorlari ham yetarli darajada o'rganilayotgan ob'yektning hamma tomonini qamrab olmaydi

Tezkorlik hozirgi paytda jarayonlarni tezkor tarzda o'rganib, tezkorlik bilan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni taqozo qiladi. Bunga mos ravishda axborotlarni ham tezkor tarzda olish imkoniyati bo'lmog'i lozim. Boshqaruv harorlarining baja- rilishini ham hisobot yili tugagandan keyin emas, balki joriy davrda nazorat qilib borish ham ish samaradorligini oshirish imkonini beradi

Ishonchlilik Tahlil qilinayotgan sub'yektlar faoliyati haqidagi axborotlar ishonchli bo'lmasa, tahlil natijalarining ham ishonchliligini ta'minlab bo'lmaydi. Shu tufayli axborotlarning ishonchliliga boshqaruvning qarorlarining ham ishonchliligini ta'minlaydi.

Doimiylik Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar uzluksiz sodir etilishi tufayli ularni tahlil qilish ham uzluksiz davom etib borilishi lozim. Uzluksizlik vaqti-vaqti bilan emas, doimiy ravishda amalga oshirilib borsagina tizimli ma'lumot-larga ega bo'linadi va kamchiliklar ham tizimli ravishda barataraf kdlb borish imkoniyati yaratiladi.

4.2. Iqtisodiy tahlilning manbalar tizimi va ularning turlari

O'zbek tilining izoxli lugatida (1981 yil) axborotga ikkita izox berilgan: 1) Xabar; xabarlar; ma'lumot, informasiya. 2) Vaqti-vaqti bilan chiqib turadigan ba'zi to'plamlarning nomi. Bularning ichida iqtisodiy tahlilga mosrok atama - bu ma'lumotdir. Ushbu manbada "Ma'lumot" atamasiga ham ikkita izoh berilgan: 1) O'qish-o'rganish natijasida olingan bilim darajasi.

Vaqti-vaqti bilan chiqib turadigan ba'zi to'plamlarning nomi". Ko'rinib turibdiki, bu ikki holda ham axborotlarning mazmuni iqtisodiy tahlil va boshqaruv nuqtai nazaridan yetarli darajada ochib berilmagan.

Bizning fikrimizcha, axborotlar tabiat, jamiyat va inson tafakkurida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan jarayonlar to'g'risida doimiy ravishda olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar majmuasidan iboratdir. Biroq, sodir bo'lgan ijtimoiy- iqtisodiy jarayonlar birorta manbada, hujjatda o'z ifodasini topmog'i lozim. Aynan ushbu axborotlar iqtisodiy tahlilda qo'llaniladi. Shu tufayli iqtisodiyotni boshqarish va tahlil qilish uchun bizga barcha axborotlar ichidan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'zida ifoda etgan qonuniy kuchga ega bo'lgan hujjatlarda o'z aksini topgan iqtisodiy axborotlar olinadi.

Iqtisodiy axborotlar iqtisodiyotda sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan jarayonlar to'g'risidagi ma'lum bir huquqiy kuchga ega bo'lgan ma'lumotlar

majmuidan iboratdir. Masalan, o'tgan davrda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi to'g'risidagi axborotii biz ushbu xo'jalik yurituvchi sub'yektning o'tgan davrdagi hisobotidan olamiz. Hisobog qonuniy kuchga ega bo'ladi qachonki, uning to'g'ri tuzilganligini kafolatlovchi tashkilot rahbari va bosh buxgalterning yoki boshqa mas'ul shaxslarning imzosi va shu imzolarni tasdiqlovchi yumalok muxiri bosilgan bo'lsa. Ushbu ko'rsatkichning hozirgi holati va kelgusi istiqboldagi xajmi ham tegishli tarzda hisob-kitob qilinib mas'ul shaxslar tomonidan tasdiqlansagina ulardan iqtisodiy tahlilda foydalanish mumkin.

Tabiat, jamiyat va inson tafakkurida sodir bo'layotgan jarayonlar to'g'risida, odatda inson bexabar bo'ladi. U to'liq ma'lumotga ega bo'ladi, qachonki shu jarayonlar to'g'risidagi tegishli hujjatlarda ifoda etilgan raqamlar bilan ifodalangan axborotlarga ega bo'lsa. Axborotlar qanchalik to'liq, qanchalik xakkoniy bo'lsa undan chiqaryutadigan xulosalar ham shunchalik to'liq va to'g'ri bo'ladi.

Ammo shuni takidlash joizki, axborotlar zarur miqdorda bo'lishi lozim. Uning kam bo'lishi to'liq va to'g'ri xulosa chiqarish imkonini bermaydi, ko'pi esa ulardan tez va soz foydalanishda kiyinchiliklar tug'dirishn, ortiqcha vaqtni olishi mumkin. Axborotlarning ko'pi yaxshi, lekin ular ortiqcha bo'lmasligi lozim. Shu tufayli har bir jarayonni tahlil qilganda, aynan shu jarayonga tegishli axborotlarni olishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ma'lumotlar va axborotlarni bir-biridan farqlamoq lozim.

Ma'lumotlar deganda, sodir bo'lgan hodisa va jarayonlarni o'zida ifoda etgan birlamchi hujjatlar va boshqa vositalarda aks etiladigan raqamlar, belgilar, xabarlar tushuniladi. Masalan, 15 kishi bir oy ishladi degan ma'lumot tabelda, 2 kishi kasallik varakasida, shuncha mahsulot sotildi degan ma'lumot schyot-fakturada, qancha pul o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumot to'lov-buyurtmasida ifodalanadi. Bularning hammasi u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to'g'risida aniq ma'lumotlar beradi.

Axborotlar deganda, yuqorida ta'kidlanganidek, shu ma'lumotlarni jamlash, ularni ishlatish orqali ma'lum tizimga keltirish natijasida hosil bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ifoda etadigan ma'lumotlar majmui tushuniladi. Iqtisodiy tahlilda asosan axborotlardan kengroq foydalaniladi. Ba'zan tahlil chuqurlashtirish, aniqlik kiritish uchun bevosita birlamchi ma'lumotlardan ham foydalanish mumkin.

Axborotlar qayerda ifodalanishiga qarab uchga bo'linadi:
og'zaki, hujjatlarda va mashinada.

Og'zaki axborotlar ko'pgina tezkor hisobda qo'llaniladi. U bevosita mulokot, telefon va boshqa vositalar orqali berilishi mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida og'zaki axborotlar juda keng qo'llaniladi. Bunda axborot beruvchi va uning iste'molchisi o'rtasida bir-biriga ishonch bo'lishi lozim.

Sodir bo'lgan iqtisodiy jarayonlar, hujjatlarda ifoda etiladi. Bular eng avvalo, buxgalteriya hisobida o'z ifodasini topadi. Har bir jarayonning qonuniyligi aynan shu va shu kabi hisoblarda, hujjatlarda o'z tasdig'ini topadi. Shu jihatdan juda ko'p axborotlar iqtisodiy tahlil uchun hujjatlardan olinadi. Har bir hujjat qonuniy kuchga

ega bo'lishi kerak. Bu uchun yuqorida ta'kidlanganidek, tashkilot rahbari, bosh buxgalteri kabi mas'ul shaxslarning imzosi va muhori quyilgan bo'lishi kerak.

Mashinalarda ifoda etilgan axborotlar hozirgi paytda juda keng qo'llanilmoqda. Zero kompyuterlar barcha hisob-kitob jarayoniga kirib bormoqda. hozirgi paytda kompyuterlardan bevosita axborotlarni hisob-kitob qilish bilan birga ularni o'zlashda ham keng foydalanilmoqda. Masalan, O'zbekiston "Internet" ga ulanib butun dunyo axborot tizimiga kirdi va ulardan bimalol foydalanilmoqda. Yoki hozir bank tizimlari bo'yicha yagona kompyuter tarmog'i tashkil qilindi. Bu ham banklar o'rtasidagi muloqotni kompyuter orqali amalga oshirish imkonini tug'diradi.

Har bir guruh axborotlar o'z navbatida yana bir qancha turlarini o'z ichiga oladi. Bularni alohida-aloxdda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Og'zaki axborotlar bozor munosabatlari shakllangan sharoitda keng qo'llaniladi. Jaxon amapiyotida iqtisodiy jarayonlarni tez amalga oshirish, bir-birining ishonchiga sazovor bo'lishi uchun og'zaki shartnomalardan ham foydalanilmoqda. Bu erkin raqobat sharoitida har bir firmaning o'zlariga hamkorlik topishi va bir-biridan ishonch kozonishi uchun qulay vositadir.

Og'zaki axborotlar o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi:

so'rovga javob tarzida berilgan axborot, bevosita muloqotda beriladigan axborot, ma'ruza va nutukdar orqali beriladigan axborotlar, telefon orqali beriladigan axborotlar kabilar.

So'rovga javob tariqasida beriladigan axborotlar ko'pincha muxbirlarining, jurnalistlar, ilmiy xodimlar va boshqa tahlilchilarning intervyulari orqali aniqlanadi va olinadi. Masalan, tahlilchi iqtisodiy isloxotning jadal borishini asoslash uchun tuman xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tashkiloti mas'ullariga birqancha savollar bilan murojaat qilib ularning javoblari asosida o'z xulosalarini yanada boyitish va chuqurlashtirish mumkin.

Muloqot paytida beriladigan axborotlar ham xulosa chiqarish va ma'lum qarorlar qabul qilish uchun asos bo'ladi. Masalan, ustoz-shogird mulokotida shogirdi uchun juda ko'p axborot berish mumkin. Yoki mutaxassislarning dexkonlar bilan mulokotini misol keltiraylik. Dehqonlarga qachon, qancha berish, necha marta haydashi, qachon urishi, qanday o'rishi kabi ko'rgazmalar ham og'zaki muloqot orqali berilishi mumkin.

Ma'ruza va nutqlar orqali ham juda ko'p ma'lumotlar beriladi. Masalan, O'zbekistonning boshqa hamdo'stlik mamlakatlari o'rtasida to'tgan o'rni, aholining va mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari kabi ma'lumotlar tinglovchilarga juda to'g'ri va aniq xulosa chiqarish uchun juda zarur ma'lumotlar bo'lib hisoblanishi mumkin. Yoki nutqning biron bir sohada samaradorlikni amalga oshirish uchun olib boriladigan ishlar ko'lami va natijalari to'g'risidagi ma'ruzasi aynan shu sohaga kiruvchi bitta korxona rahbari uchun o'zining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish uchun asos bo'lishi mumkin.

Juda ko'p axborotlarni radio, televideniye kabi og'zaki axborotlar vositalaridan ham olish mumkin. Telefonogramma ham bevosita og'zaki axborot vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda.

Shunday qilib, og‘zaki axbortlar, hozirgi paytda, tahlil qilish, ma’lum bir xulosa chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda. Kelajakda esa uning rivojlanishi, qo‘llanilish doirasining kengayishi, boshqaruv uchun asos bo‘lishi shak-shubhasizdir.

Hujjatlarda ifodalanadigan axborotlar hozirgi sharoitda iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan asosiy axborotlardir. Ta’kidlanganidek, sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlar, eng avvalo, hujjatlarda ifodalanadi. Bu hujjatlar mulkdor, davlat, ish beruvchi va tadbirkorning manfaatini, haq-huquqini ifoda etish bilan birga, ularni himoyalaydi ham. Masalan, ish beruvchi soxibkorga qancha ishlaganiga qarab ish haqqi to‘laydi. Mulkdor o‘z mulkini bir kishiga xatlab ijaraga bergan bo‘lsa ijarachi shu mulkni son va sifat jihatidan saqlanishi uchun javobgar va xk.

Hozirgi paytda hisob-kitob ishlari aksariyat hollarda bevosita kompyuterlar va boshqa hisoblash mashinalarida bajarilmoqda. Ba’zi joylarda esa ushbu ishning aksariyat qismi xamon qo‘l kuchi bilan an’anaviy tarzda amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan mashinalashtirish darajasi bo‘yicha axborotlar ikki guruhga bo‘linadi: mashinalashtirilgan va yarim mashinalashtirilgan.

Mashinalashtirilgan axborotlar asosan perfokartalarda, perfotasmalarda, magnit tasmalarida, disklarda, disketlarda, bevosita kompyuter fayllari kabilarda aks ettiriladi.

Yarim mashinalashtirilgan axborotlarning bir qismi hisoblash mashinalarida va bir qismi an’anaviy tarzda qo‘lda bajarilgan tegishli hisob va hisobotlarda ifodalanadi. Ushbu axborotlarning hammasi iqtisodiyotni boshqarish va tahlil qilish uchun asosiy axborot beruvchi ma’lumot bo‘lib hisoblanadi.

4.3. Iqtisodiy manbalar va ularga qo‘yiladigan talablar.

Korxonaning moliyaviy hisoboti tarkibida uning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risidagi (2-shakl) hisobot muhim ahamiyatga ega. Ammo uni hozirgi erkin iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining milliy andozalariga mos holda takomillashtirishni talab qiladi. Mazkur hisobot to‘g‘ri foydalanish va moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar bo‘yicha korxonani boshqarish uchun ularning atroflicha tahlil qilinmogi lozim. Shu jihatdan har qanday hisobot tahlil talablariga to‘liq javob berishi darkor.

Mazkur hisobotning boshida yalpi tushum va davlatga to‘lanadigan soliqlar (QQS, aksiz)ning ko‘rsatilishi shart emas. Chunki yalpi tushum tahlil kdlishda korxona faoliyatini baholash uchun kerak bo‘lmaydi. Bundan tashqari soliq to‘g‘risida ushbu hujjatning oxirida alohida ma’lumotnoma berilgan. Uni birlashtirish lozim.

Korxona to‘laydigan soliqlarni ikki qismga, ya’ni davlat byudjeta va mahalliy byudjetga to‘lanadigan turlari bo‘yicha alohida ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Bu birinchidan, korxonaning davlat va mahalliy byudjetga qancha xissa qo‘shganligini ko‘rsatsa, ikkinchidan esa, soliqlarni alohida turlari bo‘yicha tahlil qilish imkoniyatini ham yaratadi. Erkin iqtisodiyot sharoitida korxonalar to‘laydigan

solliqlar tahlil qilinmog'i lozim, zero bu xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning davlat bilan munosabatini o'zida ifodalaydi.

Davr xarajatlarining umumiy summasi va uning alohida turlari hisobotda o'z ifodasini topishi lozimligidan kelib chiqib, unga ayrim ko'rsatkichlarni kiritishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Xususan, sotish bilan bog'liq xarajatlarni, ma'muriy boshqaruv xarajatlari, boshqa operasion xarajatlar. Bu moddaga sohalarga qarab yana turli ko'rsatkichlarni kiritish mumkin.

Moliyaviy faoliyat natijasining ham umumiy summasi alohida turlari bo'yicha ko'rinib turmog'i lozim. Shu tufayli hisobotning bu moddasini ham o'zgartirishni tavsiya qilamiz. Bu moddani alohida aniq moddalari bilan ifodalash uchun unga uyushma va sho'ba korxonalardan olingan dividenddar, boshqa olingan dividendlar, uyushma va sho'ba korxonalaridan olingan va berilgan qarzlar bo'yicha foizlar, boshqa to'langan va olingan foizlar, valyuta kursi farqi (ijobiy+, salbiy-), uzoq muddatli ijaraga berishdan (lizing) olingan daromadlar, moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar va xarajatlar kabilarni qo'shish mumkin.

Hisobotda favqulodda foyda yoki zarar ko'rsatilgan. Ammo ular nimalardan tarkib topganligini ham tahlil qilishga to'g'ri keladi. Shu tufayli uni ham alohida moddalari bo'yicha ko'rsatish lozim. Bunda faoliyati to'xtatilishi bilan bog'liq zarar, ko'zda tutilmagan hodisalar bo'yicha foyda (zarar), boshqa tasodifiy foyda (zarar)larni ko'rsatish tavsiya qilinadi.

Hisobotda moliyaviy natijalar to'g'risidagi ko'rsatkich sof foyda bilan tugaydi. Lekin moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar turkumiga taqsimlanmagan foyda, to'langan dividendlar, jamg'arilgan foyda kabi ko'rsatkichlar ham o'z ifodasini topmog'i lozim. Shu tufayli mazkur hisobotda shu ko'rsatkichlar ham yoritilishi kerak, deb hisoblaymiz.

5-ma'ruza: IQTISODIY TAHLIL ISHLARINI TASHKIL ETISH.

Reja:

5.1. Korxonalar faoliyatida iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish

5.2. Iqtisodiy tahlilni rejalashtirish va tashkil qilish bosqichlari

5.3. Tahlil natijalaridan xo'jalik sub'ektlari faoliyatida samarali foydalanish

5.1. Korxonalar faoliyatida iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish

Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish jarayoni, tashkiliy mexanizmlarning takomillashishi, isloxtlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Chunki mulkdor iqtisodiy jarayonda asosiy sub'yekt sifatida ishtiroq etadi. U o'z mulkining ko'payishidan, ko'proq foyda olishidan manfaatdir. Bunga o'z-o'zidan erishib qolmaydi. Bu uchun tadbirkorlik, izchillik, ziyraklik va akd bilan ish ko'rish lozim.

Hozirgi sharoitda iqtisodiyot sub'yektlari asosan turli mulk shaklida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda iborat. Bu esa o'z navbatida, mulkning holatini, ishlatilishi va saklanishini tahlil qilishni taqozo qiladi. Tahlil asosan korxonaning xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy tahlil kimga kerak bo'lsa, o'shalar tomonidan amalga oshiriladi. Bu birinchi galda, o'z mulkini tikkan mulkdor uchun kerak.

Mulkdor o'z mulkini ishlatish uchun turli korxonalarga ega bo'lishi mumkin. Bu esa boshqa kishilarni, mutaxassislarni, xodimlarni yollashiga to'g'ri keladi. Ular mehnat jamoasini tashkil qiladi. Korxonaning yaxshi, samarali ishlashi mehnat jamoasining farovonligini ta'minlaydi. Ularni barqaror ish bilan ta'minlaydi. Korxona qancha ko'p daromad qilsa mehnat jamoasi a'zolari shuncha ko'p mehnat haqi oladi. Bu esa mehnat jamoasining o'zlari ishlayotgan korxona xo'jalik faoliyatini muntazam tahlil qilib borishni taqozo qiladi. Demak, iqtisodiy tahlil bevosiga mehnat jamoasi uchun ham kerak ekan.

Iqtisodiy tahlil quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Tahlil ishlarini amachga oshirish rejasi tuziladi, bunda qaysi masapalar qanday va kim tomonidan o'rganilishi, qaysi masalalarga alohida ahamiyat berish lozimligi aniq ko'rsatiladi;

- Tahlil qilish uchun tegishli ma'lumotlar to'planadi. Bunda hisob va hisobot ma'lumotlari bilan birga, turli me'yoriy-huquqiy hujjatlar, reja va boshqa ko'rsatkichlar hozirlanadi;

- Korxonaning umumiy holati baholanadi. Bunda ko'rsatkichlar rejasining qanday bajarilganligi, shu ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyasi qanday bo'lganligi kabi masalalar o'rganiladi;

- Korxonada tahlil qilingan ko'rsatkichlar o'zgarishiga (rejaga nisbatan va dinamikasining o'zgarishi) ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi va ushbu omillarning ta'siri hisoblanadi. Omillar ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Shu tufayli ularga iqtisodiy tahlilning usullari yoki matematik metodlardan foydalangan holda amalga oshiriladi;

- Omilli tahlil natijasida tegishli imkoniyatlar axtarib topiladi va bular asosida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi;

- Belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

5.2. Iqtisodiy tahlilni rejalashtirish va tashkil qilish bosqichlari

Korxonalar xo'jalik faoliyatini chuqur o'rganish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- korxonalarning tashkiliy-texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar
- ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq ko'rsatkichlar
- moliyaviy natijalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar
- korxonaning iqtisodiy salohiyati (potensiapi) bilan bog'liq ko'rsatkichlar
- korxonaning moliyaviy salohiyati (potensial) bilan bog'liq ko'rsatkichlar

- korxonaning to‘lovga qodirlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar
- korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar
- korxonaning mustaqilligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar
- korxonaning iqtisodiy nochorligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar
- korxonaning faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Korxonaning mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarishi va sotishi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlari ham tahlilda muhim o‘rin eg‘allaydi. Bularga mahsulotni (ish, xizmatni) ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi kiradi. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarga ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi (natural miqdori va qiymatida), tovar mahsuloti kabilar kiradi.

Moliyaviy natijalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar iqtisodiy tahlilda o‘rganiladigan asosiy ko‘rsatkichlardir. Bular tarkibiga daromadlar, xarajatlar, foyda va rentabellik bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar kiradi. O‘z navbatida daromadlarning ham birqancha turlari bor. Xuddi shunday xarajatlar ham, foyda va rentabellik ko‘rsatkichlari ham turlicha. Kdysi ko‘rsatkichni qo‘llash tahlilning qaysi sohani o‘rganishiga va nima maqsadda amalga oshirishiga bog‘liq.

Korxonaning iqtisodiy salohiyati (potensial) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilda keng qo‘llaniladigan muhim ko‘rsatkichlardir. Ushbu ko‘rsatkichlarning hajmi korxonaning moliyaviy xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida batafsil ma‘lumot beradi. Ushbu guruh ko‘rsatkichlarga asosiy vositalar, aylanma mablag‘lar, nomoddiy faollar (aktivlar) va mehnat potensiali (salohiyati) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar kiradi.

Korxonaning moliyaviy salohiyati (potensial) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish bo‘limidagi muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Chunki ular bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar korxona moliyaviy manbasining tarkibi, uning holati va samarali ishlatilishini ifodalaydi. Mazkur guruhga korxonaning o‘z mablag‘lari va unga tenglashtirilgan mablag‘lar hamda chetdan jalb qilingan uzoq va qisqa muddatli mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar kiradi.

Korxonaning to‘lovga qodirlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar erkin raqobat sharoitida o‘ta muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko‘rsatkichlar tizimini tahlil qilish orqali hamisha korxonaning bankrotlik holatiga tushib qolmasligining oldini olishga erishish mumkin. Ushbu guruh ko‘rsatkichlarga korxona balansining likvidligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, kreditni to‘lashga qodirlik bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar kiradi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni o‘rganish korxona faoliyatining qanday rivojlanganligini bugungi axvoli qanday va kelajakda qanday bo‘lishi mumkinligini ifodalaydi. Ushbu guruh ko‘rsatkichlar tizimi quyidagi besh guruhga bo‘linadi:

- 1) korxonaning o‘z mablag‘lari (xususiy kapital) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
- 2) chetdan jalb qilingan mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
- 3) harakatdagi mablag‘lar bilan bog‘lik ko‘rsatkichlar;

- 4) asosiy vositalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
- 5) aylanma mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar.

Korxonaning mustahkamligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismidir. Ular o‘z mazmuni va mohiyati jihatidan ikki guruhga bo‘linadi:

- korxonaning iqtisodiy mustahkamligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
- korxonaning moliyaviy mustahkamligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar.

Korxonaning iqtisodiy nochorligi bilai bog‘liq ko‘rsatkichlar ham mulkdor va korxona menejeri uchun muhim ko‘rsatkichlardir. Shu tufayli mazkur guruh ko‘rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ularga korxonaning iqtisodiy nochorligini ifodalovchi va bankrotlik ehtimolini aniqlaydigan ko‘rsatkichlar tizimi kiradi.

Korxonaning faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar ikki yirik guruhga bo‘linadi: korxonaning ish faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va korxonaning bozor faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

Korxona ish faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘z navbatida yana uch guruhga bo‘linadi:

- iqtisodiy salohiyatdan foydalanish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
- moliyaviy salohiyatdan foydalanish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
- korxona faoliyati samaradorligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar.

5.3. Tahlil natijalaridan xo‘jalik sub’ektlari faoliyatida samarali foydalanish

Korxonaning faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish bu iqtisodiy ishlarning tarkibiy qismi sifatida o‘zining boshlanishi va adog‘iga ega. Bu jarayon birqancha bosqichlardan iborat:

- Tahlilni o‘tkazishning maqsadini aniqlash va dasturini tuzish;
- Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarni to‘plash;
- Axborotlarni tahlil maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda qayta ishlash, tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirish va jadvallar tuzish;
- Jadval ma’lumotlari asosida dastlabki xulosalar chiqarish;
- Xulosani chuqurlashtirish maqsadida lozim bo‘lgan holatlarni chuqurroq o‘rganish uchun ularning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta’sirini hisoblash;
- Xo‘jalik faoliyati yoki o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar haqida mufassal xulosaga kelish;
- Korxona xo‘jalik faoliyatini yoki o‘rganilayotgan ko‘rsatkichni yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqarish va shu tadbirlarni amal qilayotgan tadbirlar etish.

Odatda tahlilni shunchaki tahlil qilish uchun emas, balki korxona xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida batafsil xulosaga kelib va boshqarishni takomillashtirish uchun qilinadi. Chunki tahlil jarayonida o‘rganilgan ko‘rsatkichlar, qilingan hisob-kitoblar

korxona xo‘jalik faoliyatining u yoki bu jihatinigina ifodalaydi. Xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida to‘liq tushunchaga ega bo‘lish uchun barcha ko‘rsatkichlar tahlilini jamlab ularni umumlashtirish lozim. Ular umumlashgach korxona xo‘jalik faoliyatining qaysi qismida yaxshi natijalarga erishilgan, qaysi qismida kamchiliklarga yo‘l quyilgani aniq bo‘ladi. Kamchilikka yo‘l quyilgan qismlarga asosiy e‘tiborni qaratib shu kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish yo‘llarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Bu jarayon iqtisodiy tahlilning pirovard natijasi va asosiy maqsadidir.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish tahlilning muhim bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Bunda barcha hisob-kitoblar asosida tahliliy jadvallar tuziladi. Mazkur jadvallar korxona xo‘jalik faoliyatini to‘liq ifoda etishi lozim. Shuningdek, jadvallar bitta korxonada har safar, korxonaning bo‘linmalarida bir vaqtning o‘zida yagona kelishilgan shaklda to‘zilishi lozim. Bunday yondashuv ko‘rsatkichlarni bir-biri bilan solishtirish va umumlashtirish imkonini beradi.

Hisobot davri tugagach tahlil natijasi tezkor tarzda jadvallarda, chizmalarda, turli diagrammalarda tuzilib qog‘ozga chiqariladi va mutaxassislar tomonidan yozma ravishda xulosa yoziladi. Xulosada barcha erishilgan yutuklar bilan birga yo‘l quyilgan kamchiliklar, ularning sabablari va qanday oqibatga olib kelganligi ko‘rsatiladi. Ayniqsa, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarda kim aybdorligi ochiq-oydin ko‘rsatilishi lozim. Chunki bu tadbir kelajakda mazkur shaxsning shu kamchilikka yo‘l qo‘ymasligini ta‘minlaydi.

Iqtisodiy tahlilning natijalari bo‘yicha tuzilgan barcha axborotlar, yozma xulosalar jamlanib korxona rahbariga, mulkdorga topshiriladi. Rahbar tahlil natijasiga asosan boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Qaror qabul qilishda birqancha mutaxassislarni, bo‘linmalar rahbarlarini taklif qilib chuqur o‘ylangan va puxta ishlangan boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Iqtisodiy tahlil natijalari boshqaruv bilan birga auditorlarning xulosa chiqarishi uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Auditorlar oldingi taftishchilardek taftish bilan emas, endilikda tahlil bilan shug‘ullanishlari lozim. Shu tufayli tahlil usullarini, uni amalga oshirish metodologiyasini buxgalterlar qancha bilsa, auditorlar ularga nisbatan ikki karra ko‘p va puxta bo‘lishlari shart. Zero, auditorlik xulosasini chiqarish uchun faqat tahlil natijalaridan foydalanish mumkin xolos.

6-ma’ruza: MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LAR ISHLAB CHIQARISH HAJMINING TAHLILI.

Reja:

6.1. Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishning muhim ko‘rsatkichlari tahlili.

6.2. Asosiy vositalar bilan ta‘minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili

6.3. Mahsulot tannarxining tahlili.

6.1. Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishning muhim ko'rsatkichlari tahlili.

Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish jarayoni, tashkiliy mexanizmlarning takomillashishi, isloxlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Chunki mulkdor iqtisodiy jarayonda asosiy sub'yekt sifatida ishtiroq etadi. U o'z mulkining ko'payishidan, ko'proq foyda olishidan manfaatdir. Bunga o'z-o'zidan erishib qolmaydi. Bu uchun tadbirkorlik, izchillik, ziyraklik va akd bilan ish ko'rish lozim.

Hozirgi sharoitda iqtisodiyot sub'yektlari asosan turli mulk shaklida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda iborat. Bu esa o'z navbatida, mulkining holatini, ishlatilishi va saklanishini tahlil qilishni taqozo qiladi. Tahlil asosan korxonaning xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy tahlil kimga kerak bo'lsa, o'shalar tomonidan amalga oshiriladi. Bu birinchi galda, o'z mulkini tikkan mulkdor uchun kerak.

Mulkdor o'z mulkini ishlatish uchun turli korxonalarga ega bo'lishi mumkin. Bu esa boshqa kishilarni, mutaxassislarni, xodimlarni yollashiga to'g'ri keladi. Ular mehnat jamoasini tashkil qiladi. Korxonaning yaxshi, samarali ishlashi mehnat jamoasining farovonligini ta'minlaydi. Ularni barqaror ish bilan ta'minlaydi. Korxona qancha ko'p daromad qilsa mehnat jamoasi a'zolari shuncha ko'p mehnat haqi oladi. Bu esa mehnat jamoasining o'zlari ishlayotgan korxona xo'jalik faoliyatini muntazam tahlil qilib borishni taqozo qiladi. Demak, iqtisodiy tahlil bevosiga mehnat jamoasi uchun ham kerak ekan.

Iqtisodiy tahlil quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Tahlil ishlarini amachga oshirish rejasi tuziladi, bunda qaysi masapalar qanday va kim tomonidan o'rganilishi, qaysi masalalarga alohida ahamiyat berish lozimligi aniq ko'rsatiladi;

- Tahlil qilish uchun tegishli ma'lumotlar to'planadi. Bunda hisob va hisobot ma'lumotlari bilan birga, turli me'yoriy-huquqiy hujjatlar, reja va boshqa ko'rsatkichlar hozirlanadi;

- Korxonaning umumiy holati baholanadi. Bunda ko'rsatkichlar rejasining qanday bajarilganligi, shu ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyasi qanday bo'lganligi kabi masalalar o'rganiladi;

- Korxonada tahlil qilingan ko'rsatkichlar o'zgarishiga (rejaga nisbatan va dinamikasining o'zgarishi) ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi va ushbu omillarning ta'siri hisoblanadi. Omillar ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Shu tufayli ularga iqtisodiy tahlilning usullari yoki matematik metodlardan foydalangan holda amalga oshiriladi;

- Omilli tahlil natijasida tegishli imkoniyatlar axtarib topiladi va bular asosida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi;

- Belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

6.2.Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili .

Korxonaning faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish bu iqtisodiy ishlarning tarkibiy qismi sifatida o'zining boshlanishi va adog'iga ega. Bu jarayon birqancha bosqichlardan iborat:

- Tahlilni o'tkazishning maqsadini aniqlash va dasturini tuzish;
- Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarni to'plash;
- Axborotlarni tahlil maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda qayta ishlash, tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirish va jadvallar tuzish;
- Jadval ma'lumotlari asosida dastlabki xulosalar chiqarish;
- Xulosani chuqurlashtirish maqsadida lozim bo'lgan holatlarni chuqurroq o'rganish uchun ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash;
- Xo'jalik faoliyati yoki o'rganilayotgan ko'rsatkichlar haqida mufassal xulosaga kelish;
- Korxona xo'jalik faoliyatini yoki o'rganilayotgan ko'rsatkichni yaxshilash yo'llarini ishlab chiqarish va shu tadbirlarni amaliyotga tatbiq etish.

6.3.Mahsulot tannarxining tahlili.

Moliyaviy tahlilning asosiy qismi bo'lib korxonalar moliyaviy xolatining tahlili hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy xolati uning moliyaviy barqarorligi, moliyaviy mustaqilligi, to'lovga qodirligi, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligi, debitorlik va kreditorlik qarzlari xolati kabi jihatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi. Ushbu ko'rsatkichlar darajasini o'rganish va tahlil etish hamda ularning natijalarini umumlashtirish orqali korxonaning moliyaviy holatiga baho beriladi. Shuning uchun ham ushbu ko'rsatkichlarni o'z vaqtida tahlil qilib turish – korxonaning moliyaviy axvolini yaxshilash hamda iqtisodiyotni mustaxkamlash uchun shart sharoit yaratadi. Shu nuqtai nazardan tahlilning ahamiyati nixoyatda katta va beqiyosdir. Tahlil -korxonaning moliyaviy axvolini yaxshilash garovidir.

Iqtisodiy tahlilning natijalari bo'yicha tuzilgan barcha axborotlar, yozma xulosalar jamlanib korxona rahbariga, mulkdorga topshiriladi. Rahbar tahlil natijasiga asosan boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Qaror qabul qilishda birqancha mutaxassislarni, bo'linmalar rahbarlarini taklif qilib chuqur o'ylangan va puxta ishlangan boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Iqtisodiy tahlil natijalari boshqaruv bilan birga auditorlarning xulosa chiqarishi uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Auditorlar oldingi taftishchilardek taftish bilan emas, endilikda tahlil bilan shug'ullanishlari lozim. Shu tufayli tahlil usullarini, uni amalga oshirish metodologiyasini buxgalterlar qancha bilsa, auditorlar ularga nisbatan ikki karra ko'p va puxta bo'lishlari shart. Zero, auditorlik xulosasini chiqarish uchun faqat tahlil natijalaridan foydalanish mumkin xolos.

7-mavzu: YER-SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING TAHLILI.

Reja:

7.1. Yer resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili.

7.2 Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligining tahlili.

7.3. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili.

7.1. Yer resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish tahlilning muhim bosqichi bo'lib hisoblanadi. Bunda barcha hisob-kitoblar asosida tahliliy jadvallar tuziladi. Mazkur jadvallar korxona xo'jalik faoliyatini to'liq ifoda etishi lozim. Shuningdek, jadvallar bitta korxonada har safar, korxonaning bo'linmalarida bir vaqtning o'zida yagona kelishilgan shaklda to'zilishi lozim. Bunday yondashuv ko'rsatkichlarni bir-biri bilan solishtirish va umumlashtirish imkonini beradi.

Hisobot davri tugagach tahlil natijasi tezkor tarzda jadvallarda, chizmalarda, turli diagrammalarda tuzilib qog'ozga chiqariladi va mutaxassislar tomonidan yozma ravishda xulosa yoziladi. Xulosada barcha erishilgan yutuklar bilan birga yo'l quyilgan kamchiliklar, ularning sabablari va qanday oqibatga olib kelganligi ko'rsatiladi. Ayniqsa, yo'l qo'yilgan kamchiliklarda kim aybdorligi ochiq-oydin ko'rsatilishi lozim. Chunki bu tadbir kelajakda mazkur shaxsning shu kamchilikka yo'l qo'ymasligini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Yerdan foydalanish darajasi oshgan sayin mahsulot hajmi ko'payib, ishlab chiqarish samaradorligi oshib, oqibatda iqtisodiyot mustahkamlanib boradi. Shuning uchun ham yerdan foydalanish darajasini uzluksiz ravishda tahlil qilib turish zarur.

Bir birlik yer maydoni hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi **yardan foydalanish samaradorligi** deb tushuniladi. Yerdan foydalanish samaradorligi 1 yoki 100 gektar maydon hisobiga yetishtirilgan mahsulot bilan ifodalanadi.

Yerdan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari:

- 1) Bir yoki yuz gektar hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi;
- 2) Bir yoki yuz gektar hisobiga olingan yalpi daromad (sof mahsulot) hajmi;
- 3) Bir yoki yuz gektar hisobiga olingan sof daromad (foyda) hajmi.

Ushbu ko'rsatkichlar **yer mahsuldorligi** deb ham ataladi.

Yalpi mahsulot hajmi (yalpi daromad hajmi) ni yer maydoniga (M) bo'lish orqali saaradorlikning asosiy umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari aniqlanadi, ya'ni quyidagi formulalardan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$YeRM = \frac{\Sigma YaM}{\Sigma M}; \quad YeRM = \frac{\Sigma YaD}{\Sigma M}; \quad YeRM = \frac{\Sigma SD}{\Sigma M};$$

Bunda, YeRM-yer mahsuldorligi darajasi;

ΣYaM -yalpi mahsulot

ΣYaD -yalpi daromad

ΣSD -sof daromad

ΣM -jami yer maydoni

Agar, ishlab chiqarish yo'nalishi bir ekin turiga moslashgan bo'lsa, yalpi mahsulotni ekinzor maydoniga, agar xar xil yo'nalish ekinlari bo'yicha mahsulot yetishtirilgan bo'lsa, kadastr maydonga bo'lish orqali aniqlash to'g'riroq bo'ladi.

Kadastr maydon xar bir ekinning fizik maydoni o'lchamini (FM) kadastr maydonga aylantirish koeffitsientiga (KMAK) ko'paytirib, natijalarini jamlash orqali aniqlanadi.

$$\Sigma (FM \times KMAK)$$

Yer mahsuldorligi darajasining umumiy o'zgarishi:

$$\frac{\Sigma YaM_1}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma YaM_0}{\Sigma M_0} = \pm \Delta_{M, YaM}$$

Ushbu o'zgarish ikki omilning ta'siri ostida yuzaga kelgan:

1) Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonining o'zgarish hisobiga (kadastr maydonining o'zgarishi hisobiga);

2) Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi hisobiga;

Ushbu omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, aniqlaymiz. Omillar ta'sirini aniqlashga o'tishdan oldin «Shartli yer mahsuldorligi» ko'rsatkichini aniqlab olish zarur. **«Shartli yer mahsuldorligi»** ko'rsatkichini aniqlash uchun bazis yilidagi yalpi mahsulot hajmini (YaM_0) hisobot yilidagi yer maydoniga (M_1) bo'lish kerak:

$$YeRM_{Sh} = \frac{\Sigma YaM_0}{\Sigma M_1}$$

1-omil «yer maydoni hajmi o'zgarishi»ning ta'siri:

$$\frac{\Sigma YaM_0}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma YaM_0}{\Sigma M_0} = \pm \Delta_M$$

2-omil «yalpi mahsulot hajmi o'zgarishi»ning ta'siri:

$$\frac{\Sigma YaM_1}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma YaM_0}{\Sigma M_1} = \pm \Delta_{YaM}$$

Ushbu ikki omil ta'sirlarining yigindisi yer mahsuldorligi darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{YaM} + \Delta_M = \Delta_{YaM, M}$$

7.2. Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligining tahlili.

Suv bilan ta'minlanish darajasining tahlili ham hisobot va bazis yillardagi ko'rsatkichlarni o'zaro solishtirib, farqini aniqlashdan boshlanadi.

Hisobot yilidagi suv bilan ta'minlanish darajasi ko'rsatkichini bazis yilidagi yoki rejalashtirilgan ko'rsatkichi bilan solishtirib uning o'zgarishi mutloq va nisbiy

ko'rsatkichlarda aniqlanadi. So'ngra omillarning ta'siri aniqlanib, suv bilan ta'minlanish darajasiga baho beriladi.

Suv bilan ta'minlanish darajasi (STD) sarf bo'lgan jami suv (ming kub metr hisobidagi) hajmini (JS'H) jami maydonga (JM) bo'lish orqali aniqlanadi:

$$STD = \frac{JSX}{JM}$$

Ushbu ko'rsatkich 1 gektar maydonga sarf bo'lgan suv hajmini ifodalaydi.

Suv bilan ta'minlanish darajasining umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$\frac{JSX_1}{JM_1} - \frac{JSX_0}{JM_0} = \pm \Delta_{JM,SSX}$$

Ushbu o'zgarish quyidagi ikki omil hisobiga yuzaga keladi.

- 1) Jami maydon o'lchamining o'zgarishi hisobiga;
- 2) Sarf bo'lgan suv hajmining o'zgarishi hisobiga.

Omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, aniqlaymiz. Omillar ta'sirini aniqlashdan oldin **«Shartli suv hajmi»** ko'rsatkichini hisoblash kerak. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun bazis yilida sarf bo'lgan jami suv hajmini hisobot yilidagi maydonning jamiga bo'lish kerak:

$$STD_u = \frac{JSX_0}{JM}$$

1-omil «Yer maydon o'lchami o'zgarishi»ning ta'siri:

$$\frac{JSX_0}{JM_1} - \frac{JSX_0}{JM_0} = \pm \Delta_{JM}$$

2-omil «Sarf bo'lgan suv hajmi o'zgarishi»ning ta'siri:

$$\frac{JSX_1}{JM_1} - \frac{JSX_0}{JM_1} = \pm \Delta_{JSX}$$

Suvdan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichi (S) 1 ming M³ suv hajmi hisobiga olingan mahsulot hajmi bilan ifodalanadi. Bu 1 gektardan olingan mahsulot miqdori (X) 1 gektar uchun sarf bo'lgan suv hajmiga (SS) bo'lish orqali aniqlanadi:

$$S = \frac{X}{SS}$$

Suvdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichi umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$S_1 - S_0 = \frac{X_1}{SS_1} - \frac{X_0}{S_0} = \pm \Delta_{SS,X}$$

Suvdan foydalanish samaradorligi darajasi o'zgarishiga ikki omil:

- 1) 1 gektar maydon hisobiga sarf bo'lgan suv hajmining o'zgarishi;
- 2) 1 gektar maydondan olingan mahsulot hajmining (miqdorining) (yoki hosildorlikning) o'zgarishi ta'sir qilgan.

«Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanamiz. Oldin suvdan foydalanish samaradorligining shartli ko'rsatkichini aniqlab olish zarur. Buni bazis yilidagi 1 gektar hisobiga olingan mahsulot miqdorini hisobot yilida 1 gektarga sarf bo'lgan suv hajmiga bo'lish orqali aniqlash mumkin:

$$S_{SH} = \frac{X_0}{SS_1}$$

1-omil «1 gektar hisobiga sarf bo‘lgan suv hajmi o‘zgarishi»ning ta’siri:

$$\frac{X_0}{SS_1} - \frac{X_0}{SS_0} = \pm \Delta_{ss}$$

2-omil «hosildorlik o'zgarishi»ning ta'siri:

$$\frac{X_1}{SS_1} - \frac{X_0}{SS_1} = \pm \Delta_x$$

8 mavzu: KORXONANING MEHNAT RESURLARI BILAN TA'MINLANGANLIK VA MEHNAT UNUMDORLIGINING TAHLILI.

Reja:

8.1. Korxonalarning mehnat resurslari bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanishni tahlil qilish.

8.2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanishni tahlil qilishning maqsadi.

8.3. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili.

8.1. Korxonalarning mehnat resurslari bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanishni tahlil qilish.

Korxonalarning ish kuchi bilan ta'minlanishini tahlil qilishda ishlovchi barcha xodimlarning tarkibi aniqlanadi. Korxonaning ishchi kuchi bilan qay darajada ta'minlanganligi. Ular ikki turkumga bo'linadi: asosiy faoliyatda ishlovchi va asosiy bo'lmagan faoliyatda xizmat qiluvchi xodimlar. O'z navbatida, asosiy faoliyatda xizmat qiluvchi xodimlar quyidagi toifalarga bo'linadi: ishchilar, xizmatchilar, shu jumladan, rahbarlar, mutaxassislar va boshqa xizmatchilar. Ushbu qayd etilgan xodimlar mahsulot ishlab chiqarishda birday qatnashmaydilar. Agar rahbarlar, mutaxassislar va xizmatchilar soni bo'yicha faqat mutlaq farq aniqlansa, ishchilar soni bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish o'sish sur'atini hisobga olgan holda nisbiy farq ham aniqlanadi. Nisbiy kamlik esa mehnat unumdorligi o'sganligidan dalolat beradi. Nisbiy kamlik mehnat unumdorligi o'sganligidan dalolat beradi. Ishchilar soni bo'yicha nisbiy farqni aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzamiz.

Ishchilar soni bo'yicha nisbiy farqni aniqlash

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Nisbiy farqni aniqlash hisob-kitobi	Farq (+,-)	
				Mutlaq	Nisbiy
A	1	2	3	4 (2-1)	5 (2-3)
Ishchilar soni, kishi	24	37	$24 \times 145,83/100 = 35$	+13	+2

Izoh. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi: O'tgan yil -111 33677 ming so'm; Hisobot yili - 16236271 ming so'm. $16236271 \times 100/11133677 = 145,83$

%.

Jadvaldan ko'rinishicha, mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmining o'sish sur'atini hisobga olmaganda ishchilar soni bo'yicha mutlaq farq 13 kishini tashkil qiladi. Korxonada mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum rejasini bajarish uchun 37 ishchi emas, balki 35 ishchi faoliyat yuritishi kerak edi. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atini (145,83 foiz) inobatga olganda esa, nisbiy ortiqchalik 2 kishini tashkil etdi. Bu esa korxonada mehnat unumdorligi darajasi pasayganligini ko'rsatadi.

Mehnat unumdorligi vaqt birligi (soat, smena, oy, kvartal, yil) ichida ishchilar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bir mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarf qilingan vaqt birligi bilan o'lchanadi.

Mehnat unumdorligini hisoblashda, quyidagi uch ko'rsatkichdan foydalanish mumkin:

1. Natural ko'rsatkichlar.
2. Shartli-natural ko'rsatkichlar.
3. Pul (qiymat) ko'rsatkichlari.

Mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda vaqt birligi davomida hosil qilingan mahsulot miqdori bilan o'lchanadi. Bunda individual korxona va iqtisodiyot ko'lamidagi mehnat unumdorligi farqlanadi.

Ijtimoiy mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan milliy daromad miqdori bilan o'lchanadi. Korxonalarda mehnat unumdorligi darajasi tovar mahsulotining hajmini ishlovchilarning soniga nisbati bilan aniqlanadi. Tahlil jarayonini chuqurlashtirish uchun bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik, kunlik va soatlik ish unumdorligi ham hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar tovar mahsuloti hajmini mutanosib tarzda ishchilarning ro'yxatdagi soniga, hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishikunlariga va kishi-soatlariga nisbati tariqasida aniqlanadi.

Mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi umumlashgan ko'rsatkich bo'lib bir xodimga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi hisoblanadi. Tahlil uchun quyidagi jadvalni keltiramiz

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichining tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)	O'sish sur'ati, %
1. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum , ming so'm	1113367 7	1623627 1	+510259 4	145,83
2. Xodimlarning ro'yxat bo'yicha soni, kishi	35	65	+30	185,71
3. Ishchilarning ro'yxat bo'yicha soni, kishi	24	37	+13	154,17
4. Bir xodimga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi, ming so'm (1/2)	318105, 06	249788, 79	- 68316,27	78,52
5. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi, so'm (1/3)	463903, 21	438818, 13	- 25085,08	94,59

jadval m a'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada bir xodimga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi 318105,06 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxirida 249788,79 ming so'mdan iborat bo'lgan holda 68316,27 ming so'mga kamaydi. Uning o'sish sur'ati esa 78,52 foizdan iborat bo'ldi. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi ham yil oxirida yil boshiga nisbatan 25085,08 ming so'mga kamaygan holda, uning o'sish sur'ati 94,59 foizni tashkil qildi. Demak, korxonada tahlil yillarida mehnat unumdorligi darajasi pasaydi. Korxonada mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi asosan xodimlar sonini oshishi hisobiga bo'lgan. Bu asosan mehnat unumdorligi darajasining oshishi hisobiga bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Endi mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi umumlashgan ko'rsatkich (bir xodimga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi) tahlilini mutloq farq usuli orqali ko'rib chiqamiz

Bir xodimga mehnat unumdorligi ko'rsatkichini tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)	O'sish sur'ati, %
1. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum , ming sum	1113367 7	1623627 1	+510259 4	145,83
2. Xodimlarning ro'yxat bo'yicha soni, kishi	35	65	+30	185,71
3. Bir xodimga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi, ming so'm (1/2)	318105, 06	249788, 79	- 68316,27	78,52

jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmi 5102594 ming so'mga oshgan. Bu o'zgarishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

1. Xodimlarining o'rtacha ro'yxatdagi sonining o'zgarishi: $+30 \times 318105,06 = +9543152$ m.s.

2. Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish unumining o'zgarishi: $-68316,27 \times 65 = -4440557$ m.s.

Omillar balansi: $9543151,8 + (-4440557,55) = +5102594$ m.s.

Xulosa qilib aytish mumkinki, korxonada xodimlar sonining oshishi natijasida 9543152 ming so'mga ko'p mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum olingan. Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish unumini pasayishi esa mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmini 4440557 ming so'mga kamayishiga sabab bo'lgan. Tahlil obyektida mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmini oshirish bo'yicha ichki xo'jalik rezervi summasi 4440557 ming so'mdan iborat. Demak, tahlil natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, korxona boshqaruv ma'muriyati mehnat unumdorligi darajasini oshirish bo'yicha kerakli tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi.

Korxonada mehnat unumdorligini oshirish rezervlarining asosiy manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- mahsulot hajmini oshirish, imkoniyatlarni ishga solish;

mahsulot ishlab chiqarish uchun mehnat sarflarini mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, mehnatni tashkil etishni takomil- lashtirish, mehnatni intensivlash darajasini oshirish.

8.2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanishni tahlil qilishning maqsadi

Mehnat resurslari va ulardan foydalanishni tahlil qilishning ish vaqtidan samarali foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va sarf-xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarni ko'rsatishdan iborat.

Mehnat resurslaridan foydalanish quyidagi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi:

1. o'rtacha 1 ishlovchining bir yilda ishlagan kunlari soni (K);
2. o'rtacha 1 ishlovchining bir yilda ishlagan soatlari soni (S);
3. Ish kunining o'rtacha davomiyligi (D);
4. Ish vaqti fondi (soat hisobida).

Ushbu ko'rsatkichlar orqali mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyentlari aniqlanib, tahlil qilinadi. Ushbu koeffitsiyentlarni o'zaro solishtirib, tahlil qilinadi, xulosa chiqariladi. Mehnat resurslaridan foydalanishning umumlashgan ko'rsatkichi bo'lib, ish vaqti fondi hisoblanadi.

Ish vaqti fondidan foydalanish ahvolarining omilli tahlili zanjirli bog'lanish usuli orqali amalga oshirildi.

Ish vaqti fondining o'zgarishi quyidagi uch omil hisobiga yuzaga keladi:

1. ishlovchi xodimlarning o'rtacha yillik sonining (T) o'zgarishi;

2. bir ishlovchining o'rtacha ishlagan kunlari sonining (K) o'zgarishi;
1. ish kunining o'rtacha davomiyligining (D) (soat hisobida) o'zgarishi.

Ushbu omillar ko'paytmalarining yig'indisi ish vaqti fondining hajmiga teng keladi:

$$T \cdot K \cdot D = FS$$

Ushbu omillarning ish vaqti fondining o'zgarishiga ta'sirini aniqlashdan oldin ish vaqti fondini ifodalovchi quyidagi 4 ta zanjirli bog'lanish ko'rsatkichi aniqlab olinadi.

$$\text{I. } FS_0 = T_0 \cdot K_0 \cdot D_0$$

$$\text{II. } FS_{SH1} = T_1 \cdot K_0 \cdot D_0$$

$$\text{III. } FS_{SH2} = T_1 \cdot K_1 \cdot D_0$$

$$\text{IV. } FS_1 = T_1 \cdot K_1 \cdot D_1$$

Mehnat unumdorligi – mehnat resurslaridan foydalanishning asosiy ko'rsatkichidir. Mehnat unumdorligi jonli mehnatning samarasi bo'lib hisoblanadi.

Mehnat unumdorligi deganda aniq vaqt birligi (1 kishi-soat yoki 1 kishi-kuni) hisobiga yetishtirilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ish hajmi tushuniladi. Demak, 1 kishi-soatda ishlab chiqarilgan paxta, g'alla, go'sht kabi mahsulotlarning miqdori mehnat unumdorligiga misol bo'ladi.

Mehnat unumdorligi qaysi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi? Mehnat unumdorligi bevosita va bilvosita ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi.

Mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichi bo'lib, aniq vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan o'simlikchilik yoki chorvachilik mahsulotlari miqdori va hajmi hisoblanadi.

Mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichlari o'z navbatida uch turga bo'linadi:

1. 1 kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (V): Buni aniqlash uchun ishlab chiqarilgan jami mahsulot miqdorini (Q) jami kishi-soatlarga (T) bo'lish kerak:

$$V = \frac{Q}{T}$$

2.1 kishi-kuni hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (V). Buni hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotning jami miqdorini (Q) kishi-kunlari (T) jamiga bo'lish kerak:

$$V = \frac{Q}{T}$$

3. 1 ishlovchi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (V). Buni hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotning jami miqdorini (Q) ishlovchilarning o'rtacha soniga (T) bo'lish kerak:

$$V = \frac{Q}{T}$$

Mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichi bo'lib, bir birlik mahsulotni (1 s. mahsulotni, 1 dona qorako'l terini va boshqalarni) yetishtirish uchun sarf bo'lgan vaqt (t) miqdori (kishi-soat, kishi-kuni) hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun jami kishi-soatni, jami kishi-kunini jami mahsulot miqdoriga bo'lish kerak:

$$t = \frac{T}{Q}$$

Mahsulot birligi uchun qancha vaqt kam sarflansa, mehnat unumdorligi shuncha yuqori bo'ladi. Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligini bevosita ko'rsatkichini aksidir.

8.3.Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili.

Korxonalar xo'jalik faoliyatini chuqur o'rganish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- korxonalarning tashkiliy-texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar
- ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq ko'rsatkichlar
- moliyaviy natijalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar
- korxonaning iqtisodiy salohiyati (potensiapi) bilan bog'liq ko'rsatkichlar
- korxonaning moliyaviy salohiyati (potensial) bilan bog'liq ko'rsatkichlar
- korxonaning to'lovga qodirlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar
- korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar
- korxonaning mustaqilligini ifodalovchi ko'rsatkichlar
- korxonaning iqtisodiy nochorligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar
- korxonaning faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Korxonaning mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarishi va sotishi bilan bog'liq ko'rsatkichlari ham tahlilda muhim o'rin eg'allaydi. Bularga mahsulotni (ish,xizmatni) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi kiradi. Ishlab chiqarish bilan bog'liq ko'rsatkichlarga ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi (natural miqdori va qiymatida), tovar mahsuloti kabilar kiradi.

Moliyaviy natijalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan asosiy ko'rsatkichlardir. Bular tarkibiga daromadlar, xarajatlar, foyda va rentabellik bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiradi. O'z navbatida daromadlarning ham birqancha turlari bor. Xuddi shunday xarajatlar ham, foyda va rentabellik ko'rsatkichlari ham turlicha. Kdysi ko'rsatkichni qo'llash tahlilning qaysi sohani o'rganishiga va nima maqsadda amalga oshirishiga bog'liq.

Korxonaning iqtisodiy salohiyati (potensial) bilan bog'liq ko'rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilda keng qo'llaniladigan muhim ko'rsatkichlardir. Ushbu ko'rsatkichlarning hajmi korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyati to'g'risida batafsil ma'lumot beradi. Ushbu guruh ko'rsatkichlarga asosiy vositalar, aylanma mablag'lar, nomoddiy faollar (aktivlar) va mehnat potensiali (salohiyati) bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiradi.

Korxonaning moliyaviy salohiyati (potensial) bilan bog'liq ko'rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bo'limidagi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Chunki ular bilan bog'liq ko'rsatkichlar korxona

moliyaviy manbasining tarkibi, uning holati va samarali ishlatilishini ifodalaydi. Mazkur guruhga korxonaning o'z mablag'lari va unga tenglashtirilgan mablag'lar hamda chetdan jalb qilingan uzoq va qisqa muddatli mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiradi.

Korxonaning to'lovga qodirlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar erkin raqobat sharoitida o'ta muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilish orqali hamisha korxonaning bankrotlik holatiga tushib qolmasligining oldini olishga erishish mumkin. Ushbu guruh ko'rsatkichlarga korxona balansining likvidligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar, kreditni to'lashga qodirlik bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiradi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'rganish korxona faoliyatining qanday rivojlanganligini bugungi axvoli qanday va kelajakda qanday bo'lishi mumkinligini ifodalaydi. Ushbu guruh ko'rsatkichlar tizimi quyidagi besh guruhga bo'linadi:

- 6) korxonaning o'z mablag'lari (xususiy kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- 7) chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- 8) harakatdagi mablag'lar bilan bog'lik ko'rsatkichlar;
- 9) asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- 10) aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Korxonaning mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismidir. Ular o'z mazmuni va mohiyati jihatidan ikki guruhga bo'linadi:

- korxonaning iqtisodiy mustahkamligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- korxonaning moliyaviy mustahkamligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Korxonaning iqtisodiy nochorligi bilai bog'liq ko'rsatkichlar ham mulkdor va korxona menejeri uchun muhim ko'rsatkichlardir. Shu tufayli mazkur guruh ko'rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ularga korxonaning iqtisodiy nochorligini ifodalovchi va bankrotlik ehtimolini aniqdaydigan ko'rsatkichlar tizimi kiradi.

Korxonaning faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar ikki yirik guruhga bo'linadi: korxonaning ish faolligni ifodalovchi ko'rsatkichlar va korxonaning bozor faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Korxona ish faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'z navbatida yana uch guruhga bo'linadi:

- iqtisodiy salohiyatdan foydalanish bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- moliyaviy salohiyatdan foydalanish bilan bog'liq ko'rsatsatkichlar;
- korxona faoliyati samaradorligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

9 mavzu: KORXONANING MODDIY RESURLAR BILAN TA'MINLANGANLIK VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINING TAHLILI.

Reja:

9.1. Korxonalarining moddiy resurslar samarali foydalanishni tahlil qilish.

9.2. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili.

9.3. Moddiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishni tahlil qilish.

9.1. Korxonalarining moddiy resurslar samarali foydalanishni tahlil qilish.

Odatda tahlilni shunchaki tahlil qilish uchun emas, balki korxona xo'jalik faoliyati to'g'risida batafsil xulosaga kelib va boshqarishni takomillashtirish uchun qilinadi. Chunki tahlil jarayonida o'rganilgan ko'rsatkichlar, qilingan hisob-kitoblar korxona xo'jalik faoliyatining u yoki bu jihatigina ifodalaydi. Xo'jalik faoliyati to'g'risida to'liq tushunchaga ega bo'lish uchun barcha ko'rsatkichlar tahlilini jamlab ularni umumlashtirish lozim. Ular umumlashgach korxona xo'jalik faoliyatining qaysi qismida yaxshi natijalarga erishilgan, qaysi qismida kamchiliklarga yo'l quyilgani aniq bo'ladi. Kamchilikka yo'l quyilgan qismlarga asosiy e'tiborni qaratib shu kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish yo'llarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bu jarayon iqtisodiy tahlilning pirovard natijasi va asosiy maqsadidir.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi, o'z navbatida, mehnat buyumlarining ortishiga olib keladi. Agar iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida (yengil sanoat) moddiy xaraj at laming ishlab chiqarish xarajatlarida tutgan salmog'i 80 foizni tashkil etishini nazarda tutsak, u holda material sarfini kamaytirishning iqtisodiyotda naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tejamkorlik tartibini kuchaytirish, hamma turdagi resurslarni oqilona va tejab-tergab sarflash, resurslarni tejaydigan va chiqitsiz texnologiyaga o'tishni amalga oshirish, ishlab chiqarishning ikkilamchi resurslari va chiqitlaridan foydalanishni yaxshilash, ulami qayta ishlaydigan ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish, ikkilamchi xom ashyoni to'plashni, shu jumladan, aholidan to'plashni tashkil qilish lozim.

Moddiy-texnika ta'minotini bozor iqtisodiyotiga mos ravishda qayta qurish moddiy resurslardan markazlashtirilgan tarzda foydalanish va iste'molchilarni mol yetkazib beruvchilarga biriktirib qo'yishdan ishlab chiqarish vositalari bilan fondlar va naryadlarsiz, iste'molchilarning buyurtmasi bo'yicha, shartnoma narxlaridan foydalangan holda, xaridor manfaatini ko'zlab, ish yuzasidan sherik tanlash orqali erkin oldi-sotdi shaklidagi savdo qilishga o'tish natijasida ishlab chiqaruvchining o'z so'zini o'tkazishi va tanho huquqqa (monopoliya) ega bo'lishni bartaraf etib, rivojlangan bozorning paydo bo'lishiga olib keldi.

Korxonalarining moddiy-texnika ta'minoti holatini tahlil qilish cheklangan doirada olib boriladi, chunki yillik hisobotda ta'minot holati to'g'risida ma'lumotlar

juda ham kam beriladi. Shu bois, ta'minot holatini chuqur va har tomonlama tahlil qilish uchun korxonaning ta'minot bo'limi va omborxona ma'lumotlariga murojaat qilish lozim bo'ladi. Ana shu ma'lumotlarga asoslangan holda materiallar guruhi bo'yicha keltirilishi va biznes-rejaning bajarilishini aniqlash mumkin.

Korxonada ishlab chiqarish jarayonini bir maromda amalga oshirish ko'p jihatdan korxonani moddiy resurslar bilan to'liq ta'minlanishiga bog'liqdir.

Korxonaning moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyoji ikki manba hisobiga, ya'ni, tashqi ta'minot va ichki ta'minot hisobiga qondiriladi.

Tashqi ta'minot deganda, korxonalar xom ashyo birjalari bilan tuzilgan shartnomasi asosida moddiy-texnika resurslarini chetdan yetkazib beruvchilardan kelib tushishi tushuniladi.

Ichki ta'minot deganda ta'minot rejasining bajarilishi, ichki resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, iqtisod rejasiga rioya qilish kabilar tushuniladi.

9.2. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili.

Korxonani xom ashyo va materiallar bilan ta'minlanganligi darajasi sotib olingan xom ashyolarning haqiqatdagi miqdorini rejadagi talabni taqqoslash orqali aniqlanadi. Shu bilan birga moddiy resurslarni olib kelish shartnomalarini bajarilayotganligini ta'minlash va haqiqatda bajarilayotganligini tekshirish lozim.

Jadvalda korxonani moddiy resurslar bilan yetkazib berish shartnomalari va ichki ehtiyoj manbalari orqali ta'minlanganligini tahlil qilamiz

Moddiy resurslarni yetkazib berish shartnomalari va ichki ehtiyoj manbalari bilan ta'minlanganligini tahlili

Material turi	Rejada gi ehtiyoj, m	Ehtiyojni qoplash manbalari		Shartno mada belgilangan, m	Shartnoma viy extiyoj-larni ta'minlash, %	Mol yetkazib beruvchilar-dan olingan, m	Shartnoma-larning bajarilishi. %
		ichki	tashqi				
A Va h.k.z	4700	50	4650	4420	95	4190	94,8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, A materialiga bo'lgan talab yetkazib berish shartnomalari va ichki ehtiyoj manbalari bo'yicha to'liq ta'minlanmagan.

Reja bo'yicha qoplash ta'minlash koeffitsienti quyidagiga teng:

$$50+4420 : 4700=0,95$$

Haqiqatda esa, A materialini yetkazib berish rejasi 10 % ga bajarilmagan:

$$4190+50 : 4700 =0,90$$

Demak, A materiali bo'yicha ehtiyoj faqat 90 % ga ta'minlangan (100-90).

Bundan tashqari, mol yuboruvchilardan olingan materiallarning sifati, ularni

standartlarga javob berishi, texnika va shartnoma shartlari hamda mol yuboruvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarga bildirilgan e'tirozlar tekshiriladi. Asosiy e'tibor materiallarni o'z vaqtida yetkazib berish rejasi bajarilishini o'rganishga beriladi.

Materiallarni o'z vaqtida yetkazib bermaslik natijasida mahsulotni ishlab chiqarish va sotish rejasi bajarilmay qoladi.

9.3. Moddiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishni tahlil qilish.

Moddiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish darajasini ifodalovchi umumlashgan ko'rsatkich material qaytimi hisoblanadi. U moddiy xarajatlarning bir so'mi hisobiga qancha mahsulot ishlab chiqarilganligini ko'rsatadi. Masalan, korxonaning ishlab chiqargan mahsuloti hajmi 100 ming so'mni tashkil etsin, moddiy xarajatlari esa 70 ming so'm, deylik. Bunday holda material qaytimi 1,43 so'mga teng bo'ladi.

Material qaytimini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$MS = TM(ST) : MX$ bunda:

MS - materiallar samarasi;

TM (ST) - tovar mahsuloti (sof tushum) hajmi;

MX - moddiy xarajatlar.

Material samarasi ko'rsatkichining aksi material sig'imidir. U bir so'm tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun necha tiyin moddiy xarajatlar to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Tahlil uchun quyidagi 8.8- jadvalni keltiramiz.

Tahlil qilinayotgan korxona moddiy xarajatlarni iqtisod qilish natijasida qo'shimcha ravishda 67358 ming so'mli mahsulot ishlab chiqarishga erishdi. Demak, korxona tovar mahsulotiga ketadigan material sarfini kamaytirish borasida barcha chora-tadbirlarni o'tqazmoqda, deb xulosa chiqarishimiz mumkin.

Jadvaldan ko'rinishicha, hisobot yili haqiqatda tovar mahsuloti hajmi biznes-rejaga nisbatan 55370 ming so'l mga oshgan. Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

	Ko'rsatkichlar	Bi znes-	Ha qiqatda	Mutl aq farq
	Moddiy xarajatlar, ming so m..	62	62	-
	Tovar mahsuloti ming so m	94	99	5537
.	Bir so'mlik moddiy xarajatlarga to'g'ri keluvchi mahsulot hajmi (material samarasi 2 qator: Iqator so'm, tiyin	1,5	1,61	0,11
.	Tovar mahsulotiga ketgan material sarfi, tiyin (1 qator: 2 qator), yuzdan bir aniqlikda 0,01	0,667	0,6217	-0,045
	Material sarfining o'zgarishining ta'siri	-	-	-

.	(+,-)			44908
	a) tovar mahsulotining ishlab chiqarish tannarxi (moddiy xarajatlarda(qimmatlashishi +; pasayishi -) ming so‘m. (4 qator 5 us x 2 qator 4 us)			6735
	b) tovar mahsulotining hajmi.ming so‘m (5 qator 5 us : 4 qator 3 us)			8

hisobi: 5 a - $0,045 \times 997970 = -44908$ ming so‘m (+); 5b — $44908 : 0,6667 = +67358$ ming so‘m (-).

Moddiy xarajatlarning o'zgarishi (ekstensiv omil): $-8000 \times 1,50 = -12000$ ming so‘m.

Material samarsini o‘zgarishi (intensiv omil) : $+0,11 \times 620430 = +68247$ ming so‘m.

Hisoblangan ikki omilning yig'indisi $(-12000) + (+68247) = +56247$ ming so‘m mahsulot hajmidagi mutlaq farqga (55370 m.s.) taxminan teng keladi. Bu yerda 877 ming so‘mga farq $(56247 - 55370)$ omillar miqdorini butunlash hisobiga ro‘y berdi.

Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha o'sishi faqat intensiv (jadal) omil hisobiga sodir bo'ldi. Bu esa o‘z navbatida korxonaning iqtisodiy salohiyati oshganligidan dalolat beradi.

10- ma’ruza: KORXONANING ASOSIY ISHLAB CHIQARISH VOSITALARI BILAN TA’MINLANGANLIK VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING TAHLILI.

Reja:

10.1. Asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlanish darajasi tahlili.

10.2. Asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta’minlanish ko‘rsatkichlari.

10.3. Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligining tahlili.

10.1. Asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlanish darajasi tahlili.

Qanday ishlab chiqarish korxonasi bo‘lmasin, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida asosiy o‘rinni jonli mehnat omili ya’ni inson omili egallaydi, chunki qay darajada fan–texnika taraqqiyoti rivojlangan bo‘lishidan qat’iy nazar inson omilining ishtirokisiz ishlab chiqarish yuzaga kelmaydi, ya’ni inson omilisiz ishlab chiqarish jarayoni xarakatga kelmaydi. Shuning uchun ham qishloq xo‘jalik korxonasining mehnat resurslari bilan ta’minlanish va ayniqsa ulardan foydalanish darajasini o‘rganish korxona iqtisodiyotining taraqqiyoti nuqtai nazaridan katta ahamiyatga egadir.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida ishlab chiqarish ko‘lamining o‘sishi ko‘p

jihatdan asosiy ishlab chiqarish vositalari (fondlari) bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ushbu bo'limda xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish tartibi bayon qilinadi.

10.2 Asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari.

Xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (KFT) – bu ko'rsatkich asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatini (AIF) qishloq xo'jalik yerlari maydoni (M) hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$KFT = \frac{AIF}{M}$$

Ushbu ko'rsatkich 1 yoki 100 gektar hisobiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish vositalari hajmini ifodalaydi

2. Energetik resurslar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (ET) – xo'jalikdagi mavjud energetik resurslar quvvatlarining (ot kuchi hisobidagi) (EQ) jamini qishloq xo'jalik yerlari maydoniga nisbatan aniqlanadigan ko'rsatkich. Ushbu ko'rsatkich 1 gektar hisobiga to'g'ri keladigan energetik resurslar quvvatini ifodalaydi.

$$ET = \frac{EK}{M}$$

3. Mehnatning fondlar bilan qurollanish koeffitsiyenti (MFQ) – asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatini qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soniga (T) bo'lish orqali aniqlanadigan ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich 1 xodim hisobiga to'g'ri keladigan asosiy fondlar hajmini ifodalaydi.

$$MFK = \frac{AIF}{T}$$

4. Mehnatning energetik resurslar bilan qurollanish koeffitsiyenti (MEQ) – energetik resurslar quvvatlarining jamini (ot kuchi hisobida) ishlovchi xodimlarning o'rtacha yillik soniga bo'lib, aniqlanadigan ko'rsatkich.

$$MEK = \frac{EK}{T}$$

Xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari va energetik resurslar bilan ta'minlanish hamda mehnatning asosiy ishlab chiqarish fondlari va energetik resurslari bilan qurollanish ko'rsatkichlari ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib hisoblanadi.

Hisobot yilidagi fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyentidan bazis yilidagi ta'minlanish koeffitsiyentini chegirish orqali uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$\frac{AIF_1}{M_1} - \frac{AIF_0}{M_0} = \pm \Delta_{M, AIF}$$

Ushbu o'zgarishga birinchi omilning, ya'ni qishloq xo'jalik yerlari maydoni hajmining o'zgarishini ta'sirini aniqlash uchun shartli fondlar bilan ta'minlanish

koeffitsiyentidan bazis yilidagi fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyentini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{AIF_0}{M_1} - \frac{AIF_0}{M_0} = \pm \Delta_M$$

Fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyentining umumiy o'zgarishiga ikkinchi omilning, ya'ni asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyentidan shartli fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyentini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{AIF_1}{M_1} - \frac{AIF_0}{M_1} = \pm \Delta AIF$$

Ushbu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyentining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Shundan keyin omillarning ijobiy va salbiy ta'sirlari ta'riflanib, xulosa chiqariladi.

Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish darajasi oshgan sayin ishlab chiqarish rivojlanib, uning hajmi oshib boradi. Shuning uchun asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligi darajasini o'rganish asosida mavjud imkoniyatlarini aniqlash katta ahamiyatga egadir. Ushbu bo'limda asosiy vositalardan (fondlardan) foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash usullari va tahlil qilish yo'llari yoritildi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi quyidagi 3 ta ko'rsatkich bilan ifodalanadi:

1. Fond qaytimi (FQ) – bu yalpi mahsulot hajmini (YaM) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga (AIF) nisbati tariqasida aniqlanadi:

$$FQ = \frac{YaM}{AIF}$$

Bu ko'rsatkich 1 so'mlik asosiy fondlar hajmi hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmini (summasi) bildiradi. Ushbu ko'rsatkich tahlil etilayotgan davrda oshgan bo'lsa, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligining oshganligini bildiradi.

2. Fond sig'imi (FS) – fond qaytimini aksini ifodalovchi ko'rsatkichdir:

$$FS = \frac{AIF}{YaM}$$

Bu ko'rsatkich 1 so'mlik yalpi mahsulot hajmiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari summasini bildiradi. Ushbu ko'rsatkich pasaygan bo'lsa, bu fondlardan foydalanish samaradorligini oshganligini ko'rsatadi.

3. Fond rentabelligi (FR) – sof foydani (SF) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik hajmiga (AIF) bo'lish orqali aniqlanadigan ko'rsatkich:

$$FR = \frac{SF}{AIF}$$

Bu ko'rsatkich 1 so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondlari hisobiga olingan sof foyda summasini bildiradi.

10.3. Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligining tahlili.

Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish darajasi oshgan sayin ishlab chiqarish rivojlanib, uning hajmi oshib boradi. Shuning uchun asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligi darajasini o'rganish asosida mavjud imkoniyatlarini aniqlash katta ahamiyatga egadir. Ushbu bo'limda asosiy vositalardan (fondlardan) foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash usullari va tahlil qilish yo'llari yoritildi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi quyidagi 3 ta ko'rsatkich bilan ifodalanadi:

1. Fond qaytimi (FQ) - bu yalpi mahsulot hajmini (KJI/) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga (A1F) nisbati tariqasida aniqlanadi:

$$FQ = \frac{KJI}{A1F}$$

Bu ko'rsatkich 1 so'mlik asosiy fondlar hajmi hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmini (summasi) bildiradi. Ushbu ko'rsatkich tahlil etilayotgan davrda oshgan bo'lsa, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligining oshganligini bildiradi.

Fond sig'imi (FS) — fond qaytimining aksini ifodalovchi ko'rsatkichdir:

$$FS = \frac{1}{FQ}$$

Bu ko'rsatkich 1 so'mlik yalpi mahsulot hajmiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari summasini bildiradi. Ushbu ko'rsatkich pasaygan bo'lsa, bu fondlardan foydalanish samaradorligi oshganligini ko'rsatadi.

Fond rentabelligi (FR) - sof foydani (SF) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik hajmiga (AIF) bo'lish orqali aniqlanadigan ko'rsatkich:

$$FR = \frac{SF}{AIF}$$

Bu ko'rsatkich 1 so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondlari hisobiga olingan sof foyda summasini bildiradi.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarining tahlili solishtirish va zanjirli bog'lanish usullari yordamida amalga oshiriladi.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarining har bir turi bo'yicha hisobot yilidagi ko'rsatkichini bazis yilidagisiga solishtirib o'zgarishi aniqlanadi, so'ngra o'zgarishning sabablari topiladi. Omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» yoki indeks usullaridan foydalanib, aniqlash mumkin.

Biz asosiy fondlardan foydalanish samaradorligining tahlilini uning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan fond qaytimi misolida ko'rib chiqamiz.

Hisobot yilidagi fond qaytimini bazis yilidagi fond qaytimiga solishtirib, uning umumiy o'zgarishi (oshgan yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$I = \frac{FQ}{FQ_0}$$

$$AIF \cdot AIF_0$$

bunda: FQ_0 , AIF_0 — inos holda bazis va hisobot yillaridagi asosiy ishlab

chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati (hajmi); YM_0 , - mos holda bazis va hisobot yillaridagi yalpi mahsulot qiymati (hajmi).

Bu o'zgarish ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik hajmining o'zgarishi;
yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi.

Fond qaytimining o'zgarishiga omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib aniqlaymiz. Omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin shartli fond qaytimi ko'rsatkichini aniqlab olish zarur. Buni aniqlash uchiin bazis yilidagi yalpi mahsulot hajmini hisobot yilidagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish kerak:

Fond qaytimining o'zgarishiga birinchi omilning, ya'ni asosiy fondlar hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun shartli fond qaytimi ko'rsatkichidan bazis yilidagi fond qaytimi ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$m_0 - m_0 \pm \Delta$$

$$AIF \setminus AIFq$$

Fond qaytimining o'zgarishiga ikkinchi omilning, ya'ni yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi fond qaytimi ko'rsatkichidan shartli fond qaytimi ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{EW_0}{K}$$

$$K$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi fond qaytimining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart. Shu hisob-kitoblardan so'ng fond qaytimi dinamikasining o'zgarishiga oid xulosa qilinadi, uni oshirish bo'yicha chora- tadbirlar ishlab chiqiadi.

Endi, 41-jadvalda keltirilgan amaliy ma'lumotlar asosida fond qaytimi dinamikasi o'zgarishining tahlilini ko'rib chiqamiz.

Birinchi navbatda, fond qaytimining umumiy o'zgarishi aniqlanadi.

Buning uchun hisobot yilidagi fond qaytimini bazis yilidagi fond qaytimiga solishtirib o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi.

$$YM \{ YM_0 - 6073156409 - \dots$$

$$\sim K_{TM_0} - 8444 - 0'428 - 0'407 = 0'021 S_{Om} (2'1 \text{ tiy}, n >$$

Demak, hisobot yilida bazis yiliga nisbatan fond qaytimi darajasi, ya'ni 1 so'mlik asosiy vositalar hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi 2,1 tiyinga yoki 5,2 foizga oshgan.

Ushbu o'zgarish ikki omil hisobiga sodir bo'lgan.

Fond qaytimining o'zgarishiga asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\sim A1F \setminus \sim " T42000 " III444 - 0'J97 - 0'407 = 0'01 S^o m (1^o \text{ tiyin})-$$

Demak, asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati (hajmi) hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 3556 ming so'mga ($142000 - 138444 = +3556$ ming so'm) oshgan, natijada shu omil hisobiga fond qaytimi darajasi 10 tiyinga yoki 2.4% ga pasaygan. Boshqacha aytganda, 1 so'mlik asosiy fond hisobiga ishiab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi 10 tiyinga kamaygan.

Fond qaytimining o'zgarishiga yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\Delta_{\text{ж}} = \Delta_{\text{TM}} - \Delta_{\text{TM}} = 0'428 - 0'397 = +0-031 \text{ soni}(3;1 \text{ tiy},n)-$$

Demak, yalpi mahsulot hajmining 4322 ming so'mga (60731 - 56409 = +4322 ming so'm) oshishi natijasida fond qaytimi darajasi (1 so'mlik asosiy fond hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot summasi) 3,1 tiyinga yoki 7,8% ga oshgan.

Shunday qilib, fond qaytimining darajasi miqdoriy omilning salbiy, sifatiy omilning ijobiy ta'siri ostida o'zgarib, oqibatda u 5,2% ga oshgan.

Bu asosan yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi tufayli sodir bo'lgan. Biz fond qaytimining tahlilini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar asosida ko'rib chiqdik.

Endi, fond qaytimining tahlilini asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv (aktiv) qismi va undan foydalanish samaradorligi bilan bog'langan holda ko'rib chiqamiz, chunki mahsulot ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etuvchi mehnat vositalari bo'lib. asosiy fondlarning aktiv qismi hisoblanadi.

Fond qaytimining o'zgarishiga quyidagi ikki omil ta'sir qiladi:

asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv (aktiv) qismi salmog'ining o'zgarishi;

asosiy ishlab chiqarish aktiv fondlarining qaytimi darajasining o'zga- rishi.

Mazkur omillar ko'paytmalarining yig'indisi asosiy fondlar qaytimining umumiy hajmiga teng bo'ladi:

$$FQ = AS \cdot AQ.$$

bunda: FQ — fond qaytimi darajasi; AS — asosiy fondlar aktiv (aktiv) qismining salmog'i; AQ - asosiy aktiv (aktiv) fondlar qaytimi.

Ushbu omillar ta'sirlarining yig'indisi fond qaytimining umumiy o'zgarishiga teng bo'ladi.

Fond qaytimi o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlashdan oldin «Shartli fond qaytimi» ko'rsatkichi aniqlab olinishi kerak.

«Shartli fond qaytimi» ko'rsatkichini aniqlash uchun hisobot yilidagi asosiy fondlar aktiv qismi salmog'ini bazis yilidagi asosiy aktiv fondlar qaytimiga ko'paytirish kerak:

$$FQ^{\wedge}AS-AQ0.$$

Shundan keyin fond qaytimining o'zgarishiga asosiy fondlarning aktiv qismi bilan bog'liq bo'lgan omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlash mumkin.

Fond qaytimining o'zgarishiga asosiy fondlar aktiv qismi salmog'i o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun «Shartli fond qaytimi»dan bazis yilidagi fond qaytimini chegirib tashlash kerak:

$$\{AS\}-AQJ-(ASq-AQq)=\pm^{\wedge}.$$

Fond qaytimining o'zgarishiga asosiy aktiv (aktiv) fondlar qaytimi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi fond qaytimidan shartli fond qaytimini chegirib tashlash kerak:

$$(.451-\pi 0,)-(\wedge 1-7/\pi o)=\pm \Delta A9.$$

Shu omillar ta'sirlarining yig'indisi fond qaytimining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak.

11- ma'ruza: MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQUARISH TANNARXINING TAHLILI.

Reja:

11.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari.

11.2. O'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahlili.

11.2. Tannarx moddalari bo'yicha xarajatlar darajasining omilli tahlili.

10.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari.

Mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, mahsulot tannarxi hisoblanadi. Demak, ishlab chiqarish xarajatlari hajmini kamaytirish va mahsulot tannarxi darajasini pasaytirish samaradorlikni oshirishning asosiy imkoniyatlaridan biridir. Tannarxning pasayishi foydaning ko'payishi va rentabellikning oshishiga olib keladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarish xarajatlari hajmi dinamikasini hamda o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari tannarxi darajasi dinamikasini uzluksiz ravishda tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir, chunki tahlil tufayli xarajatlarni kamaytirish va tannarxni pasaytirish imkoniyatlari aniqlanadi, natijada ulardan foydalanish bo'yicha chora- tadbirlar ishlab chiqiladi.

Mahsulot tannarxini o'rganish asosida uni pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash tahlilning maqsadidir. Ushbu maqsadga tahlil quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish orqali erishadi:

- mahsulot tannarxi darajasini o'rganish va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini aniqlab baho berish;

- mahsulot tannarxi tarkibi, tarkibiy tuzilishining o'zgarishini va har bir modda bo'yicha xarajatlar o'zgarishini oinilli tahlil qilish hamda baho berish;

- tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini ko'rsatish va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxi tahlilining asosiy manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaning biznes rejasi ma'lumotlari;

- o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular- ning tannarxi to'g'risidagi buxgalteriya hisobotlarining ma'lumotlari;

- buxgalteriya hisobining «Asosiy ishlab chiqarish hisobi schoti»ning ma'lumotlari; statistik va boshqa axborot ma'lumotlari.

Mazkur hujjatlardagi ma'lumotlar asosida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning jami tannarxi va mahsulot birligining tannarxi 1 so'mlik tovar mahsulotiga to'g'ri keladigan xarajatlar darajasi tahlil qilinadi hamda ularni kamaytirish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

10.2. O'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahlili.

Mahsulot tannarxi korxona xo'jalik faoliyatining barcha tomonlarini aks ettiruvchi umumlashtiruvchi ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkichni to'g'ri hisoblash va tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Tannarx deb nimaga aytiladi? Mahsulot yetishtirish uchun sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlarining pul shaklida ifodalanishi tannarx deb ataladi. Tannarx, o'z navbatida, jami mahsulot tannarxi, mahsulot birligi tannarxi va 1 so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat ko'rsatkichlariga bo'linadi. Bu bo'limda bir birlik mahsulot tannarxini tahlil qilish tartibi yoritiladi.

Mahsulot birligining tannarxi tahlilini amalga oshirish uchun solishtirish va zanjirli bog'lanish usullari keng qo'llaniladi.

Hisobot davridagi bir birlik mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini bazis davridagi (yoki rejalashtirilgan) tannarxiga solishtirib, mutlaq va nisbiy o'zgarishlari aniqlanadi. So'ngra «zanjirli bog'lanish» usuli orqali omilli tahlil etilib, omillarning har birining ta'siriga baho beriladi va pasaytirish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

1 s mahsulot tannarxining o'zgarishi bevosita ekstensiv va intensiv omillar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Bu omillar quyidagilardir:

1) 1 gektar ekin maydoni (yoki 1 bosh chorva moli) hisobiga sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishi;

2) 1 gektar ekin maydonidan olingan hosil (yoki 1 bosh moldan olingan mahsulot) miqdorining o'zgarishi (hosildorlik yoki mahsuldorlikning o'zgarishi).

Ushbu omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlaymiz. Tannarx tahlilini o'simlikchilik mahsuloti misolida ko'rib chiqamiz. Tannarxning o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin 1 s mahsulotning shartli tannarxini aniqlab olish zarur.

Chorvachilik mahsulotlarining tannarxini tahlil qilish tartibi (usuli) o'simlikchi 1 ik mahsulotlari tannarxining tahlili tartibidan farq qilmaydi, faqat ko'rsatkichlar nomi o'zgaradi, xolos.

1 gektar maydon xarajati o'rniga 1 bosh chorva moli xarajati, hosildorlik o'rniga esa mahsuldorlik ko'rsatkichi olinib, tahlil qilinadi. Shuning uchun o'zingiz quyida keltirilgan formulalardan (zanjirli bog'lanish ko'rsatkichlaridan) foydalanib, 1 s sutning tannarxi tahlilini bajaring.

IXQ: PQ - bazis davridagi 1 s sutning tannarxi.

IX^Δ. PQ - 1 s sutning shartli tannarxi.

IX: Pf - hisobot davridagi 1 s sutning tannarxi,

bunda: IX₀, Z_{Aj} - bazis va hisobot davrida 1 bosh sigirga sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajati sutnatsi; P(P - bazis va hisobot davrida 1 bosh sigir hisobiga olingan mahsulot miqdori (sut mahsuldorlik darajasi).

1 s sut tannarxining umumiy o'zgarishi:

$(ZV;P)-(Z_0;P_0)=\pm AIXP.$

Tannarx o'zgarishiga 1 bosh sigirga bo'lgan xarajat summasi o'zgarishi- ning ta'siri:

$$\frac{\Delta X}{X} - \frac{\Delta P}{P} = \pm \frac{\Delta X}{X}$$

Tannarx o'zgarishiga sut mahsuldorligi o'zgarishining ta'siri: $\frac{\Delta X}{X} : \frac{\Delta P}{P} = \pm by$

Omillar ta'sirlarining yig'indisi 1 s sut tannarxining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Shundan keyin omillar ta'siriga baho berilib, tannarxni pasaytirish imkoniyatlari ko'rsatilgan holda xulosa qilinadi.

10.2. Tannarx moddalari bo'yicha xarajatlar darajasining omilli tahlili.

1 s mahsulot tannarxining tahlili bilan bir qatorda uning tarkibini xarajat moddalari bo'yicha ham tahlil qilish zarur, chunki tannarx tarkibidagi har bir modda bo'yicha o'zgarishini omilli tahlil qilish orqali uni arzonlashtirish imkoniyatlarini ko'rsatish mumkin. Tannarx tarkibidagi har bir moddada o'z aksini topgan xarajatlar hajmining o'zgarishi ham ekstensiv, ham intensiv omillari hisobiga sodir bo'ladi. Bu omillarni miqdor va sifat (qiymat) omillar deb ham atash mumkin. Shu ikki omil ko'paytmasining yig'indisi har bir moddadagi xarajatlar hajmi (summasi) ga teng bo'ladi, demak, omillar ta'sirining yig'indisi ham har bir moddadagi xarajatlar hajmining umumiy o'zgarishiga teng bo'lishi shart. Masalan, mehnat haqi moddasini olaylik. Bu moddagi mehnat haqini ifodalovchi xarajatlar summasi mahsulot yetishtirish uchun sarf bo'lgan kishi soatlar miqdori (KS) bilan 1 kishi-soatga hisoblangan ish haqi summasi (1 AT/jning ko'paytmasiga teng bo'ladi: 120

$$MX = KS \cdot KH.$$

Shundan birinchisi. miqdor omili, ikkinchisi sifat omili (yoki qiymat omilidir. Shu omillar ta'sirlarining yig'indisi «Mehnat haqi» moddasidagi xarajatlar hajmining o'zgarishiga teng bo'ladi. Bu omillar ta'sirining tahlili keyinroq shu paragrafda keltiriladi.

12- ma'ruza: MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LARNI SOTISH HAJMINING TAHLILI.

Reja:

12.1. Tahlilning ahamiyati, vazifalari va manbalari.

12.2. Mahsulot sotish bo'yicha rejaning bajarilishini va dinamikasini tahlil qilish.

12.3. Mahsulotlarni sotishdan olingan sof pul tushumi hajmining omilli tahlili.

12.4. Mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnomaviy majburiyatlar bajarilishining tahlili.

12.5. Sotilgan mahsulot sifatining va uning o'rtacha sotish bahosi bilan pul daromadi hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili.

12.1. Tahlilning ahamiyati, vazifalari va manbalari.

Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot chetga chiqariladigan va xo'jalikning o'zida iste'mol qilinadigan mahsulot turlariga bo'linadi. Yalpi mahsulotning asosiy qismi chetga sotiladi, boshqacha aytganda, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga iste'mol uchun tushadi. Demak, har bir qishloq xo'jalik korxonasi o'zi ishlab chiqargan yalpi mahsulotning asosiy qismini chetga sotadi, undan tushadigan pul daromadi uning moliyaviy ahvolini belgilaydi, boshqacha aytganda, uning iqtisodiyotining taraqqiyoti mahsulotlarni sotishdan tushadigan pul daromadining hajmiga bog'liq bo'ladi. Mahsulotlarni sotish jarayonini o'rganish va uning samarasini oshirish imkoniyatlarini izlab topish tahlilning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Sotilgan mahsulotlar hajmi pul tushumi orqali ifodalanadi. Pul tushumi, birinchi navbatda, barcha majburiyatlarni va xarajatlarni qoplashga yo'naltiriladi. Ushbu jarayonni o'rganish va to'g'ri tashkil qilish ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida katta ahamiyatga egadir, chunki sotish jarayonining samarali tashkil qilinishi ishlab chiqarish va ta'minot jarayonining tezlashishiga hamda moliyaviy faoliyatning yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun sotish jarayonini o'z vaqtida tahlil qilish va mavjud imkoniyatlarni aniqlash iqtisodiy tahlilning asosiy maqsadidir. Tahlil bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z maqsadiga quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish orqali erishishi mumkin:

- 1) ishlab chiqarilgan o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini sotish hajmi rejasining bajarilishiga baho berish hamda o'zgarish sabablarini omilli tahlil qilish;
- 2) o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini sotish hajmi bo'yicha dinamikasi o'zgarishini o'rganish hamda omilli tahlil qilish;
- 3) sotilgan o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari bo'yicha sifat ko'rsatkichlari darajasi o'zgarishini sotish hajmi va o'rtacha sotish bahosining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash va baho berish;
- 4) shartnomaviy majburiyatlarning holatini o'rganish va ularga baho berish;
- 5) qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish hajmini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish va ularni jalb qilish bo'yicha tavsiyalar berish.

Mahsulotlarini sotish jarayonining natijalarini tahlil etish uchun axborot manbalari bo'lib asosan quyidagilar hisoblanadi:

- 1) xo'jalikning biznes rejasi ma'lumotlari;
- 2) «qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlari;
- 3) «moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlari;
- 4) mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar va sotilgan mahsulotlar tannarxi hisobi shartlari ma'lumotlari.

Mahsulotlarni sotishdan olinadigan pul daromadlari o'z navbatida ikki ko'rsatkich orqali ifodalanadi:

- 1) jami pul daromadi (jami pul tushumi);
- 2) sof pul daromadi (sof pul tushumi).

«Jami pul daromadi» ko'rsatkichi sotish baholari bo'yicha mahsulotlarni sotishdan olingan sof pul daromadlari bilan davlat budjetiga bevosita tushadigan soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i kabilar) ni o'z ichiga oladi.

«Sof pul daromadi» ko'rsatkichi bo'lib, sotish baholari bo'yicha mahsulotlarni sotishdan olingan sof pul tushumi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun «Jami pul daromadi (jami pul tushumi)» dan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i kabi soliqlarni chegirib tashlash kerak.

12.2. Mahsulot sotish bo'yicha rejaning bajarilishini va dinamikasini tahlil qilish.

Mahsulotlarini sotish holatining tahlili ularning fizik miqdorlari va qiymatlari bo'yicha amalga oshiriladi. Natura mahsulotlarini sotish dinamikasi (yoki rejasi bajarilishi)ning tahlili har bir mahsulot turi va xo'jalik bo'yicha amalga oshiriladi.

Har bir mahsulot turi bo'yicha hisobot yilida sotilgan miqdorini bazis yilidagi (yoki rejadagi) mahsulot miqdoriga solishtirib, mutlaq va nisbiy o'zgarishi aniqlanadi:

Xo'jalikda sotilgan jami mahsulotlar bo'yicha fizik miqdori (hajmi) ning dinamikasiga (yoki rejasining bajarilishiga) baho berish uchun ularning hajmi barcha davrlar uchun taqqoslama (yoki baza) bahosi bo'yicha hisoblanib olinadi, so'ngra hisobot yilidagi (yoki rejadagi) ko'rsatkich bilan solishtirib, mutlaq va nisbiy o'zgarishlari aniqlanadi.

12.3. Mahsulotlarni sotishdan olingan sof pul tushumi hajmining omilli tahlili.

Sof pul tushumi dinamikasini tahlil qilish uchun solishtirish, ko'rsatkichlar farqi va zanjirli bog'lanish usullaridan foydalanish mumkin.

Sof pul tushumining tahlili taqqoslashdan boshlanadi, ya'ni hisobot yilidagi mahsulotni sotishdan olingan sof pul tushumi hajmini bazis yilidagi sof pul tushumi hajmiga solishtirib, uning mutlaq va nisbiy o'zgarishlari aniqlanadi.

Sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga sifatiy omilning, ya'ni mahsulot bir birligining o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida sotilgan mahsulotning o'rtacha sotish bahosi, bazis yilida sotilgan mahsulotning o'rtacha sotish bahosi, orasidagi farqni hisobot yilida sotilgan mahsulotning miqdoriga ko'paytirish kerak.

12.4. Mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnomaviy majburiyatlar bajarilishining tahlili.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy qismi chetga sotiladi. Chetga sotiladigan mahsulotlar bo'yicha bo'ladigan hisob-kitoblar shartnomalar asosida yuzaga keladi.

Shartnoma deganda nima tushuniladi? Shartnoma deganda ikki yoki bir necha shaxsning o'zaro kelishuvi tushuniladi. Shartnomada uni tuzgan shaxslarning huquq va majburiyatlari aks ettiriladi. Shartnomada belgilanadigan huquq va majburiyatlar bir-biri bilan bog'liq, chunki bir tarafning huquqi ikkinchi tarafning majburiyatini

vujudga keltiradi. Xullas, shartnomada fermer xo'jaligining ham, xaridorning ham huquq va majburiyatlari o'z aksini topadi.

Shartnoma shartlariga amal qilmaslik, ularni buzish iqtisodiyotga salbiy ta'sir qiladi. Mahsulot yetkazib beruvchilarning shartnoma majburiyatini buzishi, o'z navbatida, boshqalarning majburiyatlarni bajarmasligiga olib keladi, oqibatda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot jarayonini paysaiga soladi.

Shartnomaviy majburiyatlar rejasining bajarilishini aniqlashda majbu-riyatlarga nisbatan yetkazib berilgan ortiqcha mahsulotlar hajmi hisobga olinmaydi. Bular sotilgan mahsulotlar hajmi bo'yicha biznes-rejaning bajarilishini aniqlashda, ya'ni jami sotilgan mahsulotlarning haqiqiy hajmini biznes-rejadagi mahsulotlarni sotish hajmiga bo'lish orqali aniqlash paytida hisobga olinadi, ammo tuzilgan shartnomaviy majburiyat rejasining bajarilishini aniqlashda hisobga olinmaydi.

Bozor munosabatlari sharoitida biznes-rejaning bajarilishi bilan bir qatorda shartnomaviy majburiyatning bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega, chunki shartnoma aniq sharoitdan kelib chiqqan holda shu hudud talabiga muvofiq tuziladi, ya'ni unda aholining yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarning aniq tovarlarga bo'lgan talabi hisobga olinadi. Talab qilinadigan tovarlardan ortiqcha yoki kam yuborish, yoki talab qilinmaydigan tovarlarni yuborish shartnoma shartini buzish hisoblanadi.

Fermer xo'jaliklari mahsulot sotish rejasini nafaqat umumiy hajmi, balki shartnomada belgilangan mahsulotlarning turlari bo'yicha ham bajarishi zarur, chunki mahsulotlar turlicha iste'mol xususiyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, ayrim mahsulotlar bo'yicha yuzaga kelgan tanqislikni boshqa bir mahsulotlarni iste'mol qilish bilan to'ldirib bo'lmaydi. Shuning uchun shartnomaviy majburiyatlarni bajarish katta ahamiyatga ega.

12.5. Sotilgan mahsulot sifatining va uning o'rtacha sotish bahosi bilan pul daromadi hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili.

Korxonalari faoliyatining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifati hisoblanadi. Mahsulotlar sifatining oshishi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida va aholi moddiy farovonligining oshishida muhim rol o'yinaydi.

Mahsulot sifati ma'lum ko'rsatkichlar yordamida ifodalanadi. Masalan, paxtaning sifati uning navlari bilan, donning sifati uning klasslari bilan, qoramol go'shtining sifati semizlik kategoriyalari (yuqori, o'rta, o'rtadan past va oriq kategoriyalari) bilan, sutning sifati uning yog'lilik darajasi bilan ifodalanadi. Shunday tasnifiy belgilar boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarida ham mavjud. Mahsulot sifatining oshgan yoki kamayganligini aniqlash uchun, avvalo, uning sifatini ifodalovchi o'rtacha ko'rsatkichni (koeffitsiyenti) hisoblab olish zarur, ya'ni paxta bo'yicha o'rtacha navlik koeffitsiyentini, sut bo'yicha o'rtacha yog'lilik koeffitsiyentini, qoramol bo'yicha o'rtacha semizlik koeffitsiyentini va boshqa

mahsulotlar bo'yicha ham o'rtacha koeffitsiyentlarni hisoblab olish kerak. O'rtacha koeffitsiyentlar yordamida mahsulot sifatining dinamikasi (yoki rejasining bajarilishi) qiyoslash orqali tahlil qilinadi.

Mahsulot sifatining oshishi, o'z navbatida, sotilgan mahsulot miqdori va hajmining oshishiga hamda foydaning ko'payishiga va rentabellikning oshishiga olib keladi. Mahsulot sifatining oshishi unga bo'lgan talabning oshishiga sababchi bo'ladi. Mahsulot sifatining oshishi bozorda raqobat kurashida yutib chiqish yoki o'z mavqeyini ushlab turish imkoniyatini yaratadi. Sifatli mahsulot bozorda yuqori baholarda sotilib, qo'shimcha daromad olib kelish manbaiga aylanadi.

Mahsulot sifatini tahlil qilishning asosiy maqsadi - bu ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatiga baho berish hamda sotilgan mahsulot bo'yicha pul daromadi hajmining va foydasining ko'payishiga (yoki kamayishiga) uning tegishli ta'sirini aniqlash bo'lib hisoblanadi.

Mahsulot sifatining tahlilini sotilgan paxta misolida ko'rib chiqamiz. Sotilgan paxta sifati o'rtacha navlik koeffitsiyenti va o'rtacha sotish bahosi koeffitsiyenti ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi.

13-ma'ruza: KORXONA FAOLIYATINING MOLIYAVIY NATIJALARI VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARINING TAHLILI.

Reja:

13.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari.

13.2. Moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlari, ularni hisoblash usullari.

13.3. Sotilgan mahsulotlar rentabelligining tahlili.

13.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari.

Moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlarining tahlili bo'yicha rejalashtirilgan barcha savollarning javobi ushbu badda, ham nazariy, ham uslubiy jihatdan yetarli darajada yoritilgan. Bular esa talabaga mavzuni yaxshi o'zlashtirib olishi uchun ta'limiy asos bo'ladi. Shuning uchun ham ular *mavzuning ta'limiy o'quv maqsadini* ifodalaydi.

Mavjud imkoniyatlarni aniqlab, ishga solish orqali foydani ko'paytirish va rentabellikni oshirish - xo'jalikning o'z mablag'larini ko'paytirilishi va moliyaviy barqarorligini inustahkamlanishiga olib kelishligi to'g'risidagi g'oyani talaba ongiga singdirish *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar bo'yicha mavjud imkoniyatlarni maksimal darajada aniqlab, faoliyatga jalb etish uchun talilil jarayonida an'anaviy usullar bilan bir qatorda matematik usullardan ham keng foydalanish zarur. Shunday yondashish tahlilning ta'sir etuvchi kuchini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi. Demak. matematik usullardan foydalanish *mavzuning rivojlan- tiruvchi o'quv rnaqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir qishloq xo'jalik korxonasining oldida turgan maqsad, faoliyat yuritishdan foyda olish hisoblanadi. Foydali faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida asosiy tayanch bo'lib muhim rol o'ynaydi. Zarar bilan faoliyat yuritayotgan korxonalar salbiy ta'sir qilib, zaiflashishiga sababchi bo'ladi. Shuning uchun ham faoliyatning pirovard natijasini foyda shaklida namoyon bo'lishiga erishish imkoniyatlarini aniqlash yo'llarini talaba yaxshi bilib olishi zarur. Shu maqsadga erishish uchun korxonalar faoliyatining pirovard natijasini ifodalovchi «Moliyaviy natijalar» deb atalmish ko'rsatkichlar holatini uzluksiz ravishda tahlil qilib borish zarur.

Moliyaviy natijalar deganda nima tushuniladi? Moliyaviy natijalar deganda foyda yoki zarar ko'rsatkichlari birgalikda tushuniladi. Ushbu ko'rsatkichlar daromad va xarajatlar orasidagi farq tariqasida aniqlanadi. Daromadlar hajmi xarajatlarga nisbatan ko'p bo'lsa, oraliqdagi farq foydani bildiradi, aksincha bo'lsa, zararni bildiradi. Xullas, foyda daromad va xarajatlar nisbatidagi yuqori o'zgaruvchanlikni, zarar esa ular nisbatidagi quyi o'zgaruvchanlikni ifodalaydi. Foyda qancha ko'p bo'lsa, korxona iqtisodiy jihatdan shuncha mustahkam bo'ladi. Foyda oshgan sayin korxonaning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib, to'lovga qodirligi oshib boradi, o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash darajasi yaxshilanib boradi, oqibatda ishlab chiqarishni kengaytirish, rivojlantirish, moddiy ne'matni yaratuvchilarning moddiy manfaatdorligi darajasini oshirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish uchun sharoit yaratiladi. Shuning uchun ham har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatini foydali yuritish uchun harakat qilishi kerak. Foydali faoliyat ko'rsatish uchun iqtisodiy tahlilni samarali tashkil qilish talab etiladi, chunki foydani ko'paytirish va zararni yo'qotish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni faqat tahlil orqali aniqlash mumkin.

Tahlilning maqsadi — foyda va rentabellik ko'rsatkichlari dinamikasini chuqur o'rganish hamda omilli tahlil qilish asosida ularni yanada ko'paytirish va oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun tahlil quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishi lozim:

- 1) fcriner xo'jaligi moliyaviy natijalari (foydasini va zarari)ning tarkibi, tuzilishi va dinamikasini o'rganish;
- 2) yalpi foyda (zarar) va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar ta'siriga baho berish;
- 3) asosiy ishlab chiqarish faoliyati foydasi (zarari) va uning o'zgarishini omilli tahlil qilish;
- 4) umumxo'jalik faoliyati foydasi (zarari) o'zgarishini omilli tahlil qilish;
- 5) sof foyda o'zgarishini aniqlash va omillar ta'siriga baho berish;
- 6) korxonaning rentabellik ko'rsatkichlarini o'rganish va ularga ta'sir

qiluvchi omillarga baho berish;

- 7) foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish.

Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning asosiy manbalari bo'lib, biznes-reja, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish to'g'risidagi hisobot hamda buxgalteriya hisobining moliyaviy natijalarini aks ettiruvchi schotlari ma'lumotlari hisoblanadi.

13.2. Moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlari, ularni hisoblash usullari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom» ga muvofiq moliyaviy natijalar (foyda yoki zarar) 5 ta turga bo'linadi:

- 1) mahsulot (ish, xizmat) larni sotishdan olinadigan yalpi foyda (zarar);
- 2) asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi (zarari);
- 3) umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari);
- 4) soliqlar to'langunga qadar bo'lgan foyda (zarar);
- 5) hisobot davrining sof foydasi (zarari).

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi qanday aniqlanadi?

Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydadan (YF) davr xarajatlari (DA'') bilan asosiy faoliyatning boshqa operatsion xarajatlarini (BN) ayirish va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini (BD) qo'shish orqali asosiy faoliyatning foydasi (AFF) aniqlanadi: $AFF = YF - DX - BX + BD$.

Umumxo'jalik faoliyatining foydasi qanday aniqlanadi? Asosiy faoliyatning foydasiga (AFF) moliyaviy faoliyatning daromadlarini (MFD) qo'shib, moliyaviy faoliyat bo'yicha bo'lgan xarajatlarni (MFx) ayirib tashlash orqali umumxo'jalik faoliyatining foydasi (UXF) aniqlanadi: $UXF = AFF + MFD - MFx$.

Moliyaviy faoliyat daromadlariga quyidagi daromadlar kiritiladi:

- 1) dividendlar shaklidagi daromadlar;
- 2) foizlar shaklidagi daromadlar;
- 3) uzoq muddatli ijara (lizing) dan daromadlar;
- 4) valyuta kursi farqidan daromadlar;
- 5) boshqa daromadlar.

Moliyaviy faoliyat xarajatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) foiz shaklidagi xarajatlar;
- 2) uzoq muddatli ijara (lizing) bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar;

- 3) valyuta kursi farqidan zararlar;
- 4) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

Soliqlar to'langunga qadar bo'lgan foyda (*STF*) qanday aniqlanadi? Bu foyda umumxo'jalik faoliyati foydasiga (*UXF*) favqulodda yuzaga kelgan foydani (*FF*) qo'shish va favqulodda yuzaga kelgan zararni (*FZ*) chegirib tashlash orqali aniqlanadi: $STF = UXF + FF - FZ$.

13.3. Sotilgan mahsulotlar rentabelligining tahlili.

Xo'jalik bo'yicha (yoki tarmoq bo'yicha) rentabellik darajasini tahlil etish ham katta ahamiyatga egadir.

Xo'jalik bo'yicha sotilgan mahsulotlar rentabelligini aniqlash tartibi sotilgan mahsulotlarning har bir turi bo'yicha rentabelligini aniqlash tartibidan farq qilmaydi. ya'ni mahsulotlarni sotishdan olingan jami foydani shu mahsulotlarning jami tannarxiga bo'lish orqali xo'jalik bo'yicha sotilgan mahsulotlarning rentabelligi darajasi aniqlanadi:

Foyda xo'jalikning pirovard moliyaviy natijasini mutlaq ko'rsatkichda ifodalasa, rentabellik ushbu natijani nisbiy ko'rsatkichda ifodalaydi. Samaradorlikka baho berishdagi asosiy ko'rsatkich bo'lib, rentabellik hisoblanadi.

Rentabellik deganda nima tushuniladi? Rentabellik deganda foydalilik, daromadlilik darajasi tushuniladi. Resurslarga, kapitallarga, ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan olingan foyda hajmi tushuniladi. 1 so'mlik 164 asosiy fondlar hisobiga, yoki 1 so'mlik xususiy kapital hisobiga, yoki 1 so'mlik xarajat hisobiga olingan foyda hajmini ifodalovchi ko'rsatkich tushuniladi. Ushbu ko'rsatkich rentabellik koeffitsiyenti deb ham ataladi.

Sotilgan mahsulotlarning barcha turlari bo'yicha rentabellik darajasining o'zgarishini (masalan, g'allachilik, sabzavotchilik va boshqalari bo'yicha) tahlil qilish tartibi sotilgan paxta rentabelligining tahlilidan farq qilmaydi, shuning uchun ham ular bo'yicha rentabellikning tahlilini sotilgan paxta rentabelligi tahlilida bayon qilingan qoida va usullardan foydalanib amalga oshirish kerak. Shuning uchun bu yerda ularning tahlili yoritilmadi.

14-ma'ruza: KORXONA MOLIYAVIY HOLATINING TAHLILI.

Reja:

14.1. Moliyaviy holatni o'rganishning ahamiyati, tahlilning maqsadi, vazifalari va axborot manbalari.

14.2. Buxgalteriya balansi asosida xo'jalik mablag'lari, ularning manbalari tarkibi va tarkibiy tuzilishining tahlili.

14.3. Likvidlik ko'rsatkichlari tahlili.

14.4. Korxonaning moliyaviy barqarorligi tahlili.

14.1. Moliyaviy holatni o'rganishning ahamiyati, tahlilning maqsadi, vazifalari va axborot manbalari.

Respublikamizda iqtisodiyotning bozor munosabatlari asosida tashkil topishi korxonalar faoliyati tahlilining ahamiyatini yanada oshiradi, chunki u mazkur sharoitda faoliyatga joriy etilmagan ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni o'z vaqtida aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish uchun mavjud imkoniyatlarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Foydalanilmagan resurslarni aniqlab, ulardan samarali foydalanish korxonalar iqtisodiyotini, qolaversa, milliy iqtisodiyotni mustahkamlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun har bir talaba ishlab chiqarish faoliyatining tahlili bilan bir qatorda moliyaviy faoliyatning tahlilini ham amalga oshirish yo'llarini chuqur o'zlashtirib olishi zarur, chunki ular kelajakda qishloq xo'jalik korxonalari va tashkilotlari hamda mamlakat iqtisodiyoti ravnaqi yo'lida mutaxassis bo'lib xizmat qiladilar.

Yuqorida keltirilgan boblarda ishlab chiqarish faoliyatining tahlili ko'rib chiqildi, endi moliyaviy faoliyatning tahlil quyida navbatdagi boblarda bayon qilinadi.

Moliyaviy faoliyat tahlili (yoki moliyaviy tahlil) deh nimaga aytiladi?

Korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini moliyaviy hisobotlar, buxgalteriya hisobi va boshqa axborotlarning ma'lumotlari asosida o'rganib, mavjud moliyaviy imkoniyatlarni aniqlash va *moliyaviy holatni* yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish usuli moliyaviy tahlil deb ataladi.

Moliyaviy tahlilning asosiy qismi bo'lib korxonalar moliyaviy holatining tahlili hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy holati uning moliyaviy barqarorligi, moliyaviy mustaqilligi, to'lovga qodirligi, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligi, debitorlik va kreditorlik qarzlarning holati kabi jihatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi. Ushbu ko'rsatkichlar darajasini o'rganish va tahlil etish hamda ularning natijalarini umumlashtirish orqali korxonaning moliyaviy holatiga baho beriladi. Shuning uchun ham mazkur ko'rsatkichlarni o'z vaqtida tahlil qilib turish - korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash hamda iqtisodiyotni mustahkamlash uchun shart-sharoit yaratadi. Shu nuqtayi nazardan tahlilning ahamiyati nihoyatda katta va beqiyosdir. Tahlil - korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash garovidir.

Moliyaviy tahlilning asosiy maqsadi bo'lib, korxona aktivlari, kapitali va majburiyatlarini, moliyaviy barqarorlik darajasini, to'lovga qodirlik ahvolini, o'z va qarz mablag'lari bilan ta'minlanish darajasini, moliyaviy mustaqillik ahvolini,

debitorlik va kreditorlik qarzlarning muayyan davrga bo'lgan holatini o'rganish asosida korxona moliyaviy holatiga baho berish va uni yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan moliyaviy holat tahlilining asosiy vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- 1) korxonaning aktivlari, kapitali, majburiyatlari holatini aniqlash va o'zgarishiga baho berish;
- 2) moliyaviy ahvolning barqarorligini aniqlash va uning o'zgarishiga baho berish;
- 3) balans likvidligi ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning o'zgarishini tahlil qilish;
- 4) korxonaning to'lov layoqati koeffitsiyentini aniqlash va uning o'zgarishiga baho berish;
- 5) moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlash va ularning o'zgarishiga bag'o berish;
- 6) aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini o'rganish;
- 7) debitorlik va kreditorlik qarzlari ahvolini o'rganish;
- 8) foydalanilmagan imkoniyatlarni safarbar etish bo'yicha tavsiyalar, takliflar berish.

Moliyaviy holatni tahlil qilishning asosiy manbalari bo'lib, quyidagi axborotlar hisoblanadi:

- 1) buxgalteriya balansi (1-shakl);
- 2) moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl);
- 3) asosiy vositalar to'g'risidagi hisobot (3-shakl);
- 4) pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (4-shakl);
- 5) xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl);
- 6) debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma'lumotnoma (2a-shakl).

14.2. Buxgalteriya balansi asosida xo'jalik mablag'lari, ularning manbalari tarkibi va tarkibiy tuzilishining tahlili.

Buxgalteriya balansi korxona mulki, kapitali va majburiyatlari hajmini ma'lum sanaga aks ettiruvchi maxsus jadvaldir. U ikki qismdan iborat bo'lib. uning aktiv qismida korxonaning asosiy va aylanma mablag'lari (mulki), passiv qismida kapitali va majburiyatlari aks ettiriladi. Balansning aktiv va passiv tomonlari o'zaro teng bo'ladi.

Buxgalteriya balansi, o'z navbatida, balans-brutto va balans-netto turlariga bodinadi. Xo'jalik mablag'larini boshlang'ich qiymati bo'yicha o'zida aks ettiruvchi

balans brutto deb ataladi. Xojalik mablag'larni haqiqiy (qoldiq) qiymati bo'yicha aks ettiruvchi balans *balans-netto* deyiladi. Xojalik mablag'darining boshlang'ich qiymatidan ularning eskirish summasini chegirib tashlash orqali haqiqiy qiymati aniqlanadi.

Korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar buxgalteriya balansi - netto moddalari asosida aniqlanadi va tahlil qilinadi. Buxgalteriya balansi aktivdagi moddalar «Mablag'larni pul shakliga aylanish tezligi (likvidlik darajasi)» belgisi bo'yicha, passividagi moddalar esa «Majburiyatlarning to'lov muddati darajasi» belgisi bo'yicha maxsus guruhlariga bo'lib o'rganiladi. Buni quydagi balans shaklidan ko'rish mumkin.

Buxgalteriya balansi asosida, birinchi navbatda, korxonaning umumiy moliyaviy holatiga baho beriladi. Buning uchun korxonaning tnlki (aktivlari), kapitali va majburiyatlari (passivlari)ning tarkibi va tarkibiy tuzilishi hamda ularning o'zgarishi tahlil qilinadi. Tahlilda gorizontal va vertikal usullaridan foydalaniladi. Tahlilda korxona aktivlari va passivlari, ulardagi umumiy va tarkibiy o'zgarishlar balansning har qaysi tomoni bo'yicha alohida o'rganiladi. Gorizontal tahlil usuli yordamida aktivning har bir bo'limi va har bir moddasi bo'yicha yil oxiridagi summasini yil boshidagi summasiga ,passivning ham har bir bo'limi va har bir moddasi bo'yicha yil oxiridagi summasini yil boshidagi summasiga solishtirib, mutlaq va nisbiy o'zgarishi (ko'payganligi yoki kamayganligi) aniqlanadi. Balans aktivi va passivi bo'yicha moliyaviy holatning tarkibini tahlil qilish bilan birgalikda ularning tarkibiy tuzilishi ham o'rganiladi. Buning uchun, avvalo, har bir bo'lim va moddalarning balans jamiga nisbatan salmog'i aniqlanadi. So'ngra yil oxiridagi salmog'ini yil boshidagi salmog'iga qiyoslab. tarkibiy tuzilishining o'zgarishi aniqlanadi va tahlil qilinadi.

14.3. Likvidlik ko'rsatkichlari tahlili.

Mahsulotlarini sotish ahvolining tahlili ularning fizik miqdorlari va qiymatlari bo'yicha amalga oshiriladi. Natura mahsulotlarini sotish dinamikasi (yoki rejasi bajarilishi)ning tahlili har bir mahsulot turi va xo'jalik bo'yicha amalga oshiriladi.

Agar hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot shu yilda to'liq sotilgan taqdirda, sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi:

- 1) ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi ($Q_1 - Q_0$);
- 2) ishlab chiqarilgan mahsulotning tovarlik darajasining o'zgarishi ($T_1 - T_0$).

Bunday holda sotilgan tovar mahsuloti miqdori Q bilan T ning ko'paytmasiga teng bo'ladi: QT

Agar hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot shu yilda to'liq sotilmagan taqdirda (bir qismi kelgusi davrga o'tganda), hisobot yilida sotilgan mahsulot

miqdorining o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

1. Yil boshiga qolgan mahsulot miqdorining o'zgarishi ($YBQ_1 - YBQ_0$)
2. Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi ($IM_1 - IM_0$)
3. Mahsulot bo'yicha har xil chiqimlar miqdorining o'zgarishi ($MCh_1 - MCh_0$)
4. Yil oxiriga qolgan mahsulot miqdorining o'zgarishi ($YOQ_1 - YOQ_0$)

Ikkinchi holatda sotilgan mahsulot miqdori (SM) quyidagicha aniqlanadi:

$$SM = YBQ + IM - MCh - YOQ$$

YBQ-yil boshiga qolgan mahsulot qoldig'i;

IM-ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori;

MCh-mahsulot bo'yicha har xil chiqimlar miqdori;

YOQ-yil oxiriga qolgan mahsulot miqdori.

Omillarning sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga ta'sirini «Ko'rsatkichlar farqi», «Zanjirli bog'lanish», «Balansli bog'lanish» usullari orqali aniqlash mumkin.

Biz bu yerda sotilgan mahsulotning birinchi holatdagi o'zgarishining tahlilini tartibiga to'xtalamiz. Tahlilni «Ko'rsatkichlar farqi» usulidan foydalanib amalga oshirdik.

Sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi birinchi omil bo'lib ishlab chiqarilgan mahsulot fizik miqdorining o'zgarishi hisoblanadi. Ushbu omilning ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida yetishtirilgan mahsulot miqdori (q_1) bilan bazis yilida yetishtirilgan mahsulot miqdori (q_0) orasidagi farqni ($q_1 - q_0$) bazis yilidagi tovarlilik darajasiga (T_0) ko'paytirish kerak:

$$(q_1 - q_0) \cdot T_0 = \pm \Delta_q$$

Sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi ikkinchi omil bo'lib, mahsulotning tovarlilik darajasining o'zgarishi hisoblanadi.

14.4. Korxonaning moliyaviy barqarorligi tahlili.

Korxonalarining moliyaviy holatiga baho berishdagi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti hisoblanadi. Xo'jalikning moliyaviy barqarorligi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar yordamida ifodalanadi va ular orqali tahlil etiladi. xulosalar chiqariladi.

Korxonani qay vaqtda moliyaviy barqaror xo'jalik deb atash mumkin? Korxonaning moddiy oborot mablag'larini tashkil qiluvchi manbalari bilan to'liq qoplangan taqdirda, uni moliyaviy barqaror xo'jalik deb atash mumkin. Demak, moliyaviy barqarorlik deganda moddiy aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi manbalari bilan mavjud tovar-moddiy zahiralar hajmining qoplanish darajasini tushunmoq kerak.

Moliyaviy barqarorlik ahvolini o'rganish va tahlil etishning asosiy manbai buxgalteriya balansi-netto hisoblanadi. Buxgalteriya balansi-nettoning quyidagi modeli asosida moliyaviy barqarorlikni aniqlash va tahlil etish yo'llarini ko'rib chiqamiz:

$$U+Z+P+D=O'+Q+B+K,$$

bunda: U — uzoq muddatii aktivlar; Z - tovar-moddiy zahiralar (moddiy aylanma mablag'lar); P - pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar; D — debitorlik qarzlari; O' - o'z mablag'larining manbalari; O - uzoq muddatii qarzarlar va kreditlar; B - banklarning va boshqa tashkilotlarning qisqa muddatii kreditlari va qarzlari; K — kreditorlik qarzlari.

Ushbu modeldagi $Z+P+D$ belgilari joriy aktivlarni, $Q+B+K$ belgilari majburiyatlarni bildiradi.

Buxgalteriya balansi-netto modelidan ko'rinib turibdiki, aktivlar (xo'jalik mablag'lari) ikki manba hisobiga, ya'ni o'z va qarz mablag'lari hisobiga tashkil bo'ladi. Qarz mablag'lari o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

uzoq muddatli majburiyatlar;

qisqa muddatli majburiyatlar.

Uzoq muddatli majburiyatlar asosiy vositalarni tashkil etish manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qisqa muddatli majburiyatlar joriy aktivlarni tashkil qilish manbalaridan biridir.

Demak, joriy aktivlar ikki manba hisobiga tashkil bo'ladi. Buni yuqorida keltirilgan buxgalteriya balansi-netto modelidan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$Z+P+D=\{()'+Q-U\}+B+K.$$

Bu formuladan xo'jalikning joriy aktivlari ikki manba hisobiga, ya'ni o'z joriy aktivlari manbalari ($O'+Q-U$) bilan qisqa muddatli qarz mablag'lari ($B+K$) hisobiga tashkil bo'lishligi ko'rinib turibdi.

Moliyaviy barqarorlik mezoniga ko'ra moddiy aylanma mablag'lari hajmi o'z aylanma mablag'lari manbalari bilan to'la qoplasa, korxona moliyaviy barqaror bo'lib, u qisqa muddatli qarzlarni to'lash imkoniyatiga ega bo'ladi, ya'ni to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan korxona hisoblanadi. Boshqacha aytganda, korxonada moliyaviy barqarorlik mavjud ekanligini yoki unda uning mustahkam ekanligini ko'rsatadi.

Moddiy aylanma mablag'lari hajmi korxonaning o'z aylanma mablag'larini tashkil qilish manbalari bilan to'la qoplasa yoki oshsa, korxona moliyaviy barqaror xo'jalik bo'lib hisoblanadi, ya'ni u qisqa muddatli majburiyatlarni uzish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday korxona to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan korxona deyiladi. Bu holatni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Z<O'+Q-U.$$

Agar o'z aylanma mablag'larini tashkil etuvchi manbalar summasi tovar- moddiy zahiralar summasiga teng bo'lsa ($Z=O'+Q-U$), pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va debitorlik qarzlarning birgalikdagi jami summasi ($P+D$) qisqa muddatli kreditlar va qarzarlar bilan kreditorlik qarzlarning jami summasiga ($B+K$) teng bo'ladi:

$$P+D=B+K.$$

Agar o'z aylanma mablag'larini tashkil qiluvchi manbalar summasi tovar- moddiy zahiralar summasidan oshsa ($Z>O'+Q-U$), pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va debitorlik qarzlarning jami summasi ($P+D$) qisqa muddatli majburiyatlar jami summasidan ($B+K$) katta bo'ladi:

$$P + D > B + K.$$

$P+D$ hajmi $B + K$ hajmidan katta yoki unga teng bo'lsa, korxona qisqa muddatli majburiyatlarini uzish (to'lash) qurbiga yetarli darajada ega bo'ladi. Shunday qilib, moddiy aylanma mablag'larni tashkil qilish manbalari hajmi bilan tovar-moddiy zahiralar orasidagi o'zaro bog'liqlik nisbati koeffitsiyenti moliyaviy barqarorlik darajasi ahvolini belgilaydi.

Moddiy aylanma mablag'larni tashkil etuvchi manbalar, o'z navbatida, ikki turga bo'linadi:

o'z aylanma mablag'larining manbalari;

moddiy aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi asosiy manbalar.

Korxonaning o'z aylanma mablag'larini aniqlash uchun o'z mablag'larining manbalariga (O') uzoq muddatli qarzlar va kreditlarni (O qo'shib, ularning jami summasidan uzoq muddatli aktivlar summasini (U) chegirib tashlash kerak:

$$Z = O' + O - U;$$

O —

bunda: Z_o - o'z aylanma mablag'dari manbalari summasini ($O' + Q - U$) bildiradi.

So'ngra ushbu ko'rsatkichni mavjud tovar-moddiy zahiralar hajmiga solishtirish orqali moliyaviy barqarorlik darajasi tahlil etiladi. Buning uchun manbalar summasidan mavjud zahiralar summasin/chegirib, o'zgarishi (kam yoki ko'pligi) aniqlanadi, xulosa qilinadi.

Korxonaning moddiy aylanma mablag'larining tashkil bo'lishida o'z aylanma mablag'lari bilan bir qatorda qarz mablag'lari, birinchi navbatda, qisqa muddatli bank kreditlari ishtirok etadi. Shu manbalar yig'indisi asosiy manbalar degan tushunchani beradi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Z_v + B = (O' + Q - U) + B.$$

bunda: B - banklar va boshqa tashkilotlarning qisqa muddatli kreditlari va qarzlari.

Asosiy manbalarni jami summasini mavjud aylanma mablag'lar summasiga (Z) solishtirib, o'zgarishi (ko'p yoki kamligi) aniqlanadi. Natijada ushbu ko'rsatkichlar orqali xo'jalikning moliyaviy barqarorligi ahvoriga baho beriladi. Tahlil gorizontal va vertikal usullar yordamida amalga oshiriladi. Tahlil ham davr boshi, ham davr oxiridagi ko'rsatkichlarni, ham davr oxirini davr boshidagi ko'rsatkichlarga qiyoslash orqali amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, aylanma mablag'larning ham davr boshida, ham davroxirida manbalar bilan ta'minlanish darajasi hamda ularning davr oxirida davr boshiga nisbatan o'zgarishlarining ahvoli batafsil tahlil etilishi kerak.

15- ma'ruza: Raqamlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlil.

Reja:

11.1. Raqamlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning tutgan o'rni va ahamiyati.

11.2. Raqamlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilni tashkil etish.

11.3. Raqamlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilni rivojlantirish istiqbollari

11.1. Raqamlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning tutgan o'рни va ahamiyati.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'yektlari ko'zda tutilmagan hodisa va jarayonlarga ko'plab duch kelishi muqarrar. Bu sharoitda har bir korxona, firma o'z faoliyatini chuqur tahlil qilib noan'anaviy qarorlar qabul qilishni, ko'zda tutilmagan chora-tadbirlarni qo'llashni talab qiladi. Bunga faqat funksional qiymat tahlilini (FQT) qo'llash yo'li bilan erishishi mumkin.

FQT jahon amaliyotida, ayniqsa, taraqqiy etgan mamlakatlarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Uning samaradorligi beqiyos ekanligini jahon amaliyoti takror va takror isbotlab kelmoqda, chunki mahsulotning (ish, xizmatning) sifatini unga sarf qilinadigan xarajatlarni kamaytirish evaziga erishilib kelinmoqda. Bu esa o'z navbatida korxonaning ichki va tashqi bozordagi raqobatda yutib chiqishini, uning moliyaviy barqarorligining mustahkamligini ta'minlamoqda.

FQT iqtisodiyotning barcha sohalarida (sanoat, qishloq xo'jaligi, ko'rilish, transport, xizmat, savdo kabilar) qo'llanilishi mumkin. Uning ahamiyati beqiyosdir, chunki jamiyatda manfaatlar mushtarakligini ta'minlaydi. U eng avvalo, mehnatkash manfaatiga mos, ularni ortiqcha samarasiz ishlashdan, nokerak funksiyalarni amalga oshirishdan holi qiladi va shu yo'l bilan barcha qilinadigan mehnatning foydaliligini ta'minlaydi. Shu orqali ular bir xil mehnatga bir vaqt birligida ko'p mehnat haqi olishga erishadi.

FQT mulk egasi, investorlar manfaati uchun ham xizmat qiladilar. U eng avvalo, mahsulot sifatini yaxshilash evaziga mulk egasining iste'mol bozoridagi nufuzini oshiradi. Ikkinchidan esa korxonada ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish evaziga uni iqtisodiy samaradorligining oshishiga, foydaning ko'payishiga zamin yaratadi. Korxonaning faoliyatida moliyaviy barqarorlik ta'minlanib, uning raqobatga bardoshliligi oshadi.

FQT davlat manfaatini ham o'zida aks ettiradi. Korxona faoliyati samaradorligini oshirish, u ishlab chiqargan mahsulotning ichki va tashqi bozordagi nufuzi oshganligi birin-chidan, davlatni tashqi mamlakatlarga tanitadi va ikkinchidan, uning byudjetiga har xil solikli va soliqsiz to'lovlar orqali tushumlarni ko'paytiradi. Demak, FQT butun manfaatlar mushtarakligini va muvofiqligini ta'minlaydi. Bu esa bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy faoliyatning asosiy tamoyillaridan biridir.

FQT iqtisodiy tahlilning alohida shaklidir. Shu tufayli uni amalga oshirish ham o'ziga xos bosqichlardan iborat.

FQTning vujudga kelish tarixi XX asrning 40-yillariga to'g'ri keladi. Bu tahlilning paydo bo'lishi ob'yektiv zaruratdan kelib chiqqan. Iqtisodiyotda shunday vaziyat vujudga keladiki, endi maqsadsiz xarajatlarni bartaraf qilib korxona faoliyatining samaradorligini oshirish evaziga ko'proq foyda olish zarurati tug'ildi. Bu esa FQTning metodologiyasini birinchi marta Sobiq ittifoq davrida 40-yillarda rus konstruktori permlik Yu.M.Sobolev tomonidan ishlab chiqila boshlandi. Shu davrda ham bir guruh olimlar FQT metodologiyasini yaratish bo'yicha muhandis L.Maylson rahbarligida ish olib bordilar. So'ngra tahlilning bu turi Garbiy Yevropa va taraqqiy

etgan yirik kapitalistik mamlakatlarga (Angliya, Germaniya, Yaponiya va x.k.) tarqaldi.

Shuni takidlash lozimki, FQT Sobiq ittifoq davrida birinchi marta yaratilishiga qaramasdan uning amaliyotda qo'llanilishi orqada qoldi. Shu tufayli AQShda tahlilning bu turi amaliyotga birinchi marta joriy qilinishi bilan harakterlanadi. Bu esa FQTning vatani AQSh degan tushunchani vujudga keltirdi.

FQTni qo'llashdan maqsad korxonaning xarajatlarini kamaytirish evaziga uning faoliyatida yuqori samaradorlik va sifat ko'rsatkichiga erishishdan iboratdir. Bunga iqtisodiy hodisa, jarayon va faoliyatni sodir bo'lmasdan oldin sistemali ravishda tahlil qilish orqali erishiladi. Natijada mahsulotning yuqori sifati, ishning yuksak samaradorligi ta'minlanadi. Shu tufayli FQT iqtisodiy tahlilning eng samarali va ilg'or shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Tahlilning bu shakli asosan mikro-iqtisodiyot darajasida qo'llaniladi. Bunda ham aniq bo'g'inlarni, mahsulotni, jarayonni, faoliyatni ob'yekt qilib oladi. Masalan, biror mahsulotni ishlab chiqarish, yoki tovar harakatini boshqarish, yoki biror mutaxassis faoliyatini takomillashtirish kabilar. Demak, FQTning qo'llanilish doirasi qisqa va aniq maqsaddarni ko'zda tutar ekan.

Shunday qilib, FQT deb ishning, faoliyatning, mehnatning samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida, ularni sistemali ravishda, sodir bo'lmasdan oldin, mantiqiy (evristik) yo'l bilan, tahlil qilish orqali mahsulotni ishlab chiqarishda unga sarflanadigan xarajatlarni va bajariladigan funksiyalarni kamaytirish evaziga uning foydaliligi va rentabelligini FQT o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bular quyidagilardan iborat:

Tahlil qilinayotgan ob'yekt hali ishga tushmagan, faoliyat ko'rsatmayotgan, loyihalashtirish, rejalashtirish bosqichida bo'lishi mumkin. Shu tufayli FQT iqtisodiy jarayon sodir bo'lmasdan oldin o'tkaziladi.

Har bir tahlil qilinayotgan ob'yektda birorta hodisa yoki iqtisodiy jarayonning to'liq sodir bo'lishi uchun u qanday funk-siyalardan iboratligi aniqlanadi. Bunday tahlilda abstrakt tafakkur, evristik tahlillardan foydalanish mumkin.

FQT da barcha funksiyalar uchga bo'lib o'rganiladi: asosiy, qo'shimcha, nokerak. Tahlil qilinadigan ob'yekt faoliyatini loyihalashtirishda nokerak funksiyalarni bartaraf qilish yo'llari ishlab chiqiladi. Bu esa xarajatning o'z-o'zidan kamayishini ta'minlaydi.

Har bir asosiy va qo'shimcha funksiyalarning qanday amalga oshishi belgilanadi. Imkoni boricha bu funksiyalar ham tejamli yo'llar bilan mahsulot (ish, xizmat) sifatini oshiradigan darajada bajarilishini ta'minlaydi.

11.2. Raqamlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilni tashkil etish.

Evristika grekcha so'zdan olingan bo'lib, topaman ma'nosini bildiradi. Bu tushuncha fanga tadbik qilinadigan bo'lsa biror jarayon, hodisa, faoliyat, ob'yektning ayni mohiyatini aniqlash uchun nazariy tadqiqotda qo'llaniladigan mantiqiy usullar majmuasidan iborat bo'ladi.

Mantiqiy tahlil hayotning hamma jabhalarida, xususan, iqtisodiyotni boshqarishda, uni tahlil qilishda ham qo'llaniladi. Barcha yangiliklar, ulkan tadqiqotlarning yaratilishi eng avvalo, mantiqiy tahlilga asoslanadi.

Mantiqiy tahlilning qo'llanilish tarixi juda uzoq. U insoniyat tafakkur qilgan vaqtdan boshlangan desak xato bo'lmaydi. Ammo uning fanga, olamni o'rganishda bir mustaqil usul sifatida kirib kelishi va shakllanishi XX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu borada jahonda juda ko'p usullar ishlab chiqilgan va to'plangan.

O'xshatish usuli. Bu usulda mavjud usullarni o'rganib shunga o'xshash usulini o'z faoliyatida joriy qilishga aytiladi. Hozirgi paytda korxona mutaxassisi, menejerlari o'ta zukko bo'lishi talab qiladi, chunki biror bir firma juda katta muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin. Ammo uning usuli tijorat siri sifatida ommalashtirilmaydi. Bu holda shu firma mutaxassislari bilan suhbatlashish, maslahatlashish jarayonida asosiy usullarini ilg'ab olishi mumkin. Bundan ayniqsa, chet el safarlarida bo'lganda, yirik firmalar faoliyati bilan tanishganda muvaffaqiyatga erishishning asosiy, eng e'tiborli tomonlarini yodda saqlab qolish va uni o'z firmasida aynan shunga o'xshash usulini qo'llash mumkin. Bu usulni jahon amaliyotida o'xshatish usuli deb ataydilar. Yoki bir ob'yektda (firmada) yuqori ko'rsatkichga xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish usuli bilan erishmoqda. Aynan shu usulni yoki shunga o'xshash usulni siz ham qo'llashingiz mumkin. Bu o'xshash usullardir.

Tasavvur usuli. Bu usulda kishi biror narsani yaratayotgan bo'lsa uning o'rniga o'zini quyib ko'radi. Yangidan yaratiladigan predmet bajaradigan barcha funktsiya va jarayonlarni bajarishi mumkinligini butun tasavvuridan o'tkazadi. Agar boshqaruv faoliyatiga tavsiya ishlab chiqayotgan bo'lsa o'zini boshqaruvchi o'rnida ko'radi, agar tavsiya qilayotgan faoliyat bajaruvchiga mo'ljallangan bo'lsa u o'zini bajaruvchi sifatida tasavvur qiladi. Barcha bajariladigan jarayonlarni, funktsiyalarni aynan shu usul bilan aniqlaydilar.

Ilg'ab qolish usuli. Tadqiqotchiga juda ko'p yangi g'oyalar uni ishlashga qattiq kirishgan, o'ylagan paytda emas, balki, bir erkin tasodifiy holatlarda, ayniqsa dam olib o'tirganda, yo'lda ketayotganda, biror kishi bilan suhbatlashganda, birorta o'yinni o'ynayotganda, uxlayotganda kelishi mumkin.

11.3. Raqamlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilni rivojlantirish istiqbollari.

FQT samaradorligini aniqlashda ham samaradorlikning umumiy metodologiyasidan kelib chiqqan holda natijaning xarajatlarga nisbati bilan o'lchanishini inobatga olish lozim.

Odatda FQT dan foydalanish faqat uning iqtisodiy samaradorligini aniqlash bilan cheklanadi. U yuksak ijtimoiy samara (K_{ss}) va yuqori sifat darajasiga (K_s) erishish uchun ham asosiy iqtisodiy dastaklardan biridir. FQT ni joriy qilganda uning samaradorligi har xil bo'lishi mumkin. Faraz qilamiz, har bir so'm xarajat bir so'm natija beradi. Buni birqancha variantlarda ko'rib chiqamiz.

I - variant. Xarajatlar (X) va natija (N) bir biriga mos ravishda o'sgan. Xarajatlar 10 dan 50 gacha bir xil usib borishi bilan natija ham shunga mos ravishda o'sib boradi.

II- variant. "N"ning o'sish sur'ati "X" o'sish sur'atiga nisbatan yuqori bo'lsa $N_{us} > H_x$ yoki $X_{us} > N_{us}$ u holda ko'zlangan natijaga xarajatlarni tejash evaziga erishish mumkin. Ushbu variantda I-variantga nisbati tejamkorlik (7) 30 dan 50 gacha masofaga, ya'ni vs chizikning cd ga ko'paytmasiga to'g'ri keladigan maydonga teng: $T=vs \cdot cd$

III - variant. "X"ning o'sish sur'ati (X_{us}) "N"ning o'sish sur'atiga nisbatan katta bo'lganda $X_{sh} > N_{us}$ yoki $N_{us} > X_{us}$ ma'lum belgilangan xarajat tegishli natijani bermaydi. Bu holda I - variantga nisbatgan qilingan xarajatning samarasizligi (se) ro'y beradi. Buning hajmi av ning vs ga ko'paytmasiga teng:

$$SS = av \cdot vs$$

IV - variant. FQT ni joriy qilish natijasida bir xil natijani (N) "L"ning o'sish sur'atini uzluksiz kamaytirgan holda ham erishish mumkin: $X_{us} \Rightarrow tgp = I \Rightarrow 40$. U holda ushbu jarayonning foydalilik maydoni av burchakdan ($avs1$) uzluksiz ravishda as chizik sari kengayib boradi. Foydalilik maydonini geometrik yo'l bilan to'g'ri burchakli uchburchakning yuzasi aniqlash formulasini qo'llab yechish mumkin:

V - variant. Bunda FQT natijasida "X"ning uzluksiz kamayib borishiga (X_{tt}) va "#"ning oshib borishiga (N_{tas}) erishish mumkin:

$X_{us} \Rightarrow tt=N_{us} \rightarrow tas$. Bu holda faoliyatning boshlanishi ancha zararli bo'ladi. chunki 50 so'm xarajat 50 so'm natija berishi kerak edi. Ammo bu yerda 50 so'm xarajat faqat 30 so'm natija berdi xolos. Biroq FQT ni joriy qilish evaziga xarajatlarni eng kam miqdorga (10) natijani eng ko'p miqdoriga (50) olib kelindi. Bu variantda xarajat qancha kamayib borishi bilan natija ham shuncha oshib bordi.

VI - variant. FQT natijasida xarajatlarni o'zgartmasdan natijaning vertikal ko'payishiga erishildi deb faraz qilamiz. U holda faoliyat zarar bilan boshlanadi. Ammo ma'lum davrdan so'ng keskin foyda olishga erishiladi. Bu holda uning foydalilik maydoni (F) "ab"ning "bc" chizigi ko'paytmasiga teng bo'ladi:

$$F = ab \cdot bc$$

3.2. Amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv materiallari

1-amaliy mashg'ulot: IQTISODIYOTDA MA'LUMOTLAR TAHLILI , PREDMETI VA VAZIFALARI

Mashg'ulot rejasi:

- 1.1. Iqtisodiy tahlilning mazmuni.
- 1.2. Iqtisodiy tahlilning predmeti va vazifalari.

1-topshiriq. Quyidagilarga izoh yozing

1. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti.
2. Iqtisodiy tahlil fanining asosiy vazifalari.
3. Iqtisodiy tahlil fanining asosiy tamoyillari.
4. Iqtisodiy tahlilning iqtisodiyot nazariyasi fani bilan bog'liqligi.
5. Iqtisodiy tahlilning buxgalteriya hisobi nazariyasi fani bilan bog'liqligi.
6. Iqtisodiy tahlilning statistika fani bilan bog'liqligi.
7. Iqtisodiy tahlilning menejment fani bilan bog'liqligi.
8. Iqtisodiy tahlilning marketing fani bilan bog'liqligi.
9. Iqtisodiy tahlilning audit fani bilan bog'liqligi.
10. Iqtisodiy tahlilning falsafa fani bilan bog'liqligi.
11. Iqtisodiy tahlilning huquq fani bilan bog'liqligi.
12. Iqtisodiy tahlilning matematika fani bilan bog'liqligi.
13. Iqtisodiy tahlilning texnologiya fani bilan bog'liqligi.
14. Iqtisodiy tahlil metodi.
15. Solishtirish (taqqoslash) usuli va uning tahlilda qo'llanilishi
16. Qayta hisoblash usuli va uning tahlilda qo'llanilishi
17. Guruhlashtirish usuli va uning tahlilda qo'llanilishi
18. Balansli bog'lanish usuli va uning tahlilda qo'llanilishi
19. Mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash usuli.
20. Zanjirli bog'lanish usuli va uning tahlilda qo'llanilishi.
21. Indeks usuli va uning tahlilda qo'llanilishi

2-amaliy mashg'ulot: IQTISODIY TAHLILNING METODI VA UNDA QO'LLANILADIGAN USULLAR.

Mashg'ulot rejasi:

1. Iqtisodiy tahlilning metodilari.
2. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar.

1-topshiriq. Quyidagilarga javob bering xamda izoh yozing

1. Iqtisodiy tahlil fanining usuli to'g'risida umumiy tushuncha va uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib bering.

2. Xo‘jalik faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar tushunchasi va ular qanday turkumlanadi?
3. Iqtisodiy tahlilning qanday maxsus usullari bor?
4. Zanjirli almashtirish usulini qo‘llashning mohiyati va afzalliklarini ko‘rsatib bering.
5. Iqtisodiy tahlilning metodi va metodologiyasining farqli jihatlari.
6. Iqtisodiy tahlilda induksiya va deduksiya kategoriyalari
7. Iqtisodiy tahlilda makon va zamon kategoriyalari
8. Iqtisodiy tahlilda analiz va sintez kategoriyalari
9. Iqtisodiy tahlilda sabab va oqibat kategoriyalari
10. Iqtisodiy tahlilda shakl va mazmun kategoriyalari
11. Iqtisodiy tahlilda miqdor va sifat kategoriyalari

2-topshiriq

Bug‘doy yalpi hosili dinamikasini tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yili	Hisobot yili
1.Bug‘doy maydoni,ga	110	
2.Yalpi hosili,s		5060
3.Hosildorligi,s/ga	41	44

Berilgan ma’lumotlar asosida aniqlang:

1. Hisobot uchun bug‘doy maydonini;
2. Yalpi hosil miqdori o‘zgarishini;
3. Yalpi hosil o‘zgarishiga omillar ta’sirini “Solishtirish usuli” orqali hisoblang:
 - a) ekin maydoni o‘zgarishini ta’sirini;
 - b) hosildorlik o‘zgarishini ta’sirini.
4. Xulosa yozing.

3-topshiriq.

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yil	Qayta hisoblangan	O‘zgarishi (+ ; -)		
				Jami	Shu jumladan:	
					Sotilgan mahsulot hisobiga	Tannarx hisobiga
Sotilgan mahsulot hajmi, ming so‘m	42850	44520	44520		x	x
Tannarx, ming so‘m	37151	37841	37151		x	x
Foyda, ming so‘m						

Foyda summasi o‘zgarishiga sotilgan mahsulot hajmi va tannarx o‘zgarishining ta’sirini “Qayta hisoblash usuli”dan foydalanib aniqlang:

1. O‘tgan va hisobot yillari uchun foyda summasini;
2. Foyda summasining umumiy o‘zgarishini;
3. Omillar ta’sirini:

- a) Sotilgan mahsulot ta'sirini;
- b) Tannarx ta'sirini;
4. Xulosa yozing.

3-amaliy mashg'ulot: IQTISODIY TAHLILDA QO'LLANILADIGAN KO'RSATKICHLAR.

Mashg'ulot rejasi:

1. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar.
2. Qayta hisoblash usulining tahlilda qo'llanilishi.

1-topshiriq

Moddiy resurslar rentabelligi dinamikasining o'zgarishini omilli tahlil qiling. Buning uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalaning:

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1.Moddiy xarajatlar, ming so'm	6050	6025
2.Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda, ming so'm	907,5	1205

Ushbu ko'rsatkichlardan foydalanib, hisoblang:

1. Bazis va hisobot yilar uchun moddiy resurlar rentabelligini;
2. Rentabellikning o'zgarishini ;
3. Rentabellik o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sirini:
4. a) moddiy xarajatlar hajmi o'zgarishini ta'sirini;
b) yalpi foyda hajmi o'zgarishini ta'sirini;
5. Xulosa yozing.

2-topshiriq

Moddiy resurslar holatini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar.

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1. Moddiy resurslar qiymati, ming so'm	28600	34500
2. Moddiy resurslarini eskirishi, ming so'm.	1450	2050

Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, aniqlang:

1. Yil boshi va yil oxiriga moddiy resurlarning qoldiq qiymatini;
2. Moddiy resurlarning dastlabki qiymati bo'yicha o'sish va qo'shimcha o'sish koeffitsiyentlarini;
3. Moddiy resurslarni yil boshi va yil oxiriga eskirishi koeffitsiyentlarini.
4. Yil boshi va yil oxiriga moddiy resurlarning yaroqlilik koeffitsiyentlarini;
5. Xulosa yozing

4-amaliy mashg'ulot: KORXONANING MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR.

Mashg'ulot rejasi:

1. Korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati.
2. Iqtisodiy tahlilda ta'sir qiluvchi omillarni guruhlashtirish.

1-topshiriq

Korxonaning moliyaviy barqarorligining dinamikasini tahlil qiling.

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri
1. O'z aylanma mablag'lari manbalari, ming so'm	16 500	18 000
2. Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlار, ming.sum	3 000	3 000
3. Tovar-moddiy zaxiralar, ming so'm	20 050	21 020

Berilgan mahsulotlar asosida aniqlang:

1. Yil boshi va yil oxirida moddiy aylanma mablag'larning o'z aylanma mablag'lari manbalari bilan koplash darajasini;
2. Yil boshi va yil oxirida moddiy aylanma mablag'lar hajmining asosiy manbalar bilan qoplash darajasi;
3. Yil oxiridagi moliyaviy barqarorlik darajasini yil boshidagi moliyaviy barqarorlik darajasiga solishtirib, o'zgarishini aniqlab, unga baxo bering:
4. a) o'z aylanma mablag'lari manbalari hisobiga;
5. b) asosiy manbalar hisobiga;
6. Xulosa yozing.

2-topshiriq

Korxona to'lov qobiliyatini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar:
(ming so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri
1. Pul mablag'lari	1 500	1 620
2. Debitorlik qarzlار	6 000	7 500
3. Tovar-moddiy zaxiralar	10 500	12 000
4. Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlار	3 000	3 000
5. Kreditorlik qarzlari	10 200	11 400
6. Uzoq muddatli bank qarzlari	2 050	2 050

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. Yil boshi va yil oxiriga to'lov mablag'lari summasini;
2. Yil boshi va yil oxiriga qisqa muddatli to'lov majburiyatlari summasini;
3. Yil boshi va yil oxiriga korxonaning to'lov qobiliyati koeffitsiyentlarini;
4. Tulov qobiliyatining o'zgarishiga baxo berib, xulosa qiling.

3-topshiriq

2-topshiriqsidagi ma'lumotlar asosida oraliq to'lovga qodirlik koeffitsiyenti dinamikasini tahlil qiling va xulosa yozing.

5-amaliy mashg'ulot: IQTISODIY TAHLILNING TURLARI VA AXBOROT MANBALARI

Mashg'ulot rejasi:

1. Iqtisodiy tahlilning turlari.
2. Iqtisodiy tahlil axborot manbalari.

1-topshiriq

Paxtani sotishdan olingan yalpi foyda hajmi dinamikasini omilli tahlil qilish. Buning uchun quyidagi hisobot ma'lumotlaridan foydalaning:

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1.Sotilgan paxta,s	1960	2100
2.1s. paxta baxosi, so'm	63 673	66 008
3.1s. paxta tannarxi,so'm	?	?
4.1s. paxta foydasi,so'm	11 428	14 625
5.Paxtani sotishdan olingan yalpi foyda, ming so'm	22 399	30 713

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. Bazis va hisobot yillari uchun 1 s. paxta tannarxini;
2. Yalpi foydaning umumiy o'zgarishini;
3. Yalpi foydaning o'zgarishiga quyidagi omillarninshg ta'sirini:
 - a) sotilgan paxta miqdori o'zgarishining ta'sirini;
 - b) baxo o'zgarishining ta'sirini;
 - v) barqaror o'zgarishining ta'sirini;
4. Xulosa yozing.

2-topshiriq

1-topshiriqdagi ma'lumotlar asosida paxta rentabelligini omilli tahlil qiling. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlang:

1. Bazis va hisobot yillar uchun paxta rentabelligi darajasini;
2. Shartli rentabellik darajasini;
3. Rentabellik darajasining o'zgarishini;
4. Rentabellik darajasining o'zgarishga quyidagi omillarning ta'sirini:
 - a) o'rtacha sotish baxosi o'zgarishini ta'sirini;
 - b) 1 s . paxta tannarxi darajasi o'zgarishini ta'sirini;
5. Rentabellikni oshirish imkoniyatlarini ko'rsatib, xulosa qiling.

3-topshiriq

1-topshiriqda keltirilgan ma'lumotlar asosida yalpi foyda dinamikasining tahlilini «Indeks» usulidan foydalanib, bajaring.

6-amaliy mashg'ulot: IQTISODIY TAHLIL ISHLARINI TASHKIL ETISH.

Mashg'ulot rejasi:

1. Iqtisodiy tahlil mazmuni.
2. Iqtisodiy tahlil zanjirli bog'lanish usulining tahlilda qo'llanilishi.

1-topshiriq

Paxtani sotishdan olingan sof pul tushumi hajmi dinamikasini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1. Sotilgan paxta miqdori,s	1960	2100
2.Paxtani sotishdan olingan sof pul tushumi, ming so'm	124 799	138 617

Keltirilgan ma'lumlardan foydalanib, sof pul tushumi dinamikasini tahlil qiling. Buning uchun aniqlang:

1. Bazis va hisobot yillari uchun 1s. paxtani o'rtacha sotish baxosini;
2. Sof pul tushumi hajmini o'zgarishini ;
3. Shartli sof pul tushumi hajmini.
4. Sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirini:
 - a) paxta miqdori o'zgarishining ta'sirini ;
 - b) o'rtacha sotish baxosi o'zgarishining ta'sirini;

Omillar tasirini «Zanjirli (almashtirish) bog'lanish» usulidan foydalanib, aniqlang.

2-topshiriq

1-topshiriqdagi ma'lumlardan foydalanib, sof pul tushumi hajmini «Ko'rsatkachlar farqi» usuli yordamida tahlil qiling va xulosa yozing.

3-topshiriq

1-topshiriqdagi ma'lumlardan foydalanib, sof pul tushumi hajmini «Indeks» usuli yordamida tahlil qiling va xulosa yozing.

4-topshiriq

1-topshiriqdagi ma'lumlardan foydalanib, Sotilgan paxta miqdori hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 7,1% ga oshgan, 1s. paxtani o'rtacha sotish baxosi 3,6% ga oshgan .

Ushbu ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. Sotilgan paxta miqdorining indeksini;
2. O'rtacha sotish baxosi indeksini;
3. Sof pul tushumining umumiy indeksini.

Xulosa yozing.

7-amaliy mashg'ulot: MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LAR ISHLAB CHIQUARISH HAJMINING TAHLILI.

Mashg'ulot rejasi:

1. Ishlab chiqarish hajmining tahlili.
2. Ishlab chiqarishda Indeks usulining tahlilda qo'llanilishi.

1-topshiriq

Yer-suvdan foydalanish samaradorligini tahlil qilish uchun ma'lumotlar:

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1.Kadastr maydon, ga	180	182
2.Olingan yalpi daromad, ming so'm	280800	303940
3.Olingan foyda, ming so'm	50400	76440
4.Paxta maydoni, ga	80	83
5.Paxtaga sarf bo'lgan suv hajmi, ming m ³	880	885
6.Paxta yalpi hosili, sn.	1960	2100

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. Bazis va hisobot yillari uchun 1sn. hisobiga olingan yalpi daromad summasini;
2. Yerdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichining o'zgarishini;
3. Yerdan foydalanishni shartli samaradorlik ko'rsatkichini;
4. Yerdan foydalanish samaradorligini o'zgarishiga omillar ta'sirini "Qayta hisoblash" usulidan foydalanib hisoblang va xulosa yozing.

2-topshiriq

1-topshiriqdagi ma'lumotlar asosida paxta yetishtirish bo'yicha iste'mol qilingan suvdan foydalanish samaradorligini tahlil qiling. Buning uchun aniqlang:

1. Bazis va hisobot yillari uchun paxta hosildorligini;
2. Bazis va hisobot yillari uchun 1 ga paxta maydoniga sarf bo'lgan suv hajmini;
3. Bazis va hisobot yillar uchun suvdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini;
4. Suvdan foydalanish samaradorligining o'zgarishini;
5. Suvdan foydalanish shartli samaradorlik ko'rsatkichini;
6. Suvdan foydalanish samaradorligini o'zgarishiga omillarning ta'sirini "Qayta hisoblash" usulidan foydalanib hisoblang va xulosa yozing.

3-topshiriq

1-topshiriqdagi ma'lumotlar asosida aniqlang: Paxta hosildorligi indeksi 1,033 koeffitsiyentni, suvdan foydalanish samaradorligi indeksi 1,082 koeffitsiyentni tashkil qilgan. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, suvdan foydalanish samaradorligini nisbiy o'zgarishiga omillar ta'sirini "Indeks usuli"da aniqlang va ularga baxo berib, xulosa yozing.

8-amaliy mashg'ulot: YER-SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING TAHLILI.

Mashg'ulot rejasi:

1. Tahlilning axborot manbalari.
2. Yer resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili

1-topshiriq

Xo'jalikda yetishtirilgan sut ishlab chiqarish xarajatlari hajmi dinamikasini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalaning:

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1. Yetishtirilgan sut,s	1300	1562,5
2. Sut mahsuldorligi, s/b	22	24,5
3. Sigirlar soni, bosh	65	70
4. 1 s. sut tannarxi, ming sum	78	79,5

Berilgan ma'lumotlardan foydalanib, hisoblang:

1. Bazis va hisobot yillari uchun yetishtirilgan sutning jami ishlab chiqarish xarajatlari hajmini;
2. Shartli xarajatlar hajmini;
3. Xarajatlar hajmi o'zgarishini;
4. Xarajatlar hajmini o'zgarishiga quyidagi omillarning ta'sirini:
 - a) sut miqdori o'zgarishining ta'siri;
 - b) 1 s. sut tannarxi o'zgarishining ta'sirini;
5. Xulosa yozing.

2-topshiriq

1-topshiriqda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, 2 s. sut tannarxini omillni tahlil qiling. Tahlilni «Zanjirli (almashtirish) bog'lanish» usuli orqali amalga oshiring.

9-amaliy mashg'ulot: KORXONANING MEHNAT RESURLARI BILAN TA'MINLANGANLIK VA MEHNAT UNUMDORLIGINING TAHLILI.

Mashg'ulot rejasi:

1. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik tahlili
2. Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining tahlili

1-topshiriq

Yer-suvdan foydalanish samaradorligini tahlil qilish uchun ma'lumotlar:

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1.Kadastr maydon, ga	185	187

2.Olingan yalpi daromad, ming so‘m	290800	303940
3.Olingan foyda, ming so‘m	52400	78440
4.Paxta maydoni, ga	80	83
5.Paxtaga sarf bo‘lgan suv hajmi, ming m ³	880	885
6.Paxta yalpi hosili, sn.	1960	2100

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. Bazis va hisobot yillari uchun 1sn. hisobiga olingan yalpi daromad summasini;
2. Yerdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichining o'zgarishini;
3. Yerdan foydalanishni shartli samaradorlik ko'rsatkichini;
4. Yerdan foydalanish samaradorligini o'zgarishiga omillar ta'sirini "Qayta hisoblash" usulidan foydalanib hisoblang va xulosa yozing.

2-topshiriq

1-topshiriqdagi ma'lumotlar asosida paxta yetishtirish bo'yicha iste'mol qilingan suvdan foydalanish samaradorligini tahlil qiling. Buning uchun aniqlang:

1. Bazis va hisobot yillari uchun paxta hosildorligini;
2. Bazis va hisobot yillari uchun 1 ga paxta maydoniga sarf bo'lgan suv hajmini;
3. Bazis va hisobot yillar uchun suvdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini;
4. Suvdan foydalanish samaradorligining o'zgarishini;
5. Suvdan foydalanish shartli samaradorlik ko'rsatkichini;
6. Suvdan foydalanish samaradorligini o'zgarishiga omillarning ta'sirini "Qayta hisoblash" usulidan foydalanib hisoblang va xulosa yozing.

10- amaliy mashg'ulot: KORXONANING MODDIY RESURLAR BILAN TA'MINLANGANLIK VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINING TAHLILI.

Mashg'ulot rejasi:

1. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasining tahlili
2. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligining tahlili

1-topshiriq

Korxonaning moliyaviy barqarorligining dinamikasini tahlil qiling.

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri
1. O'z aylanma mablag'lari manbalari, ming so'm	19 500	21 000
2. Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlار, ming.sum	4 000	4 000
3. Tovar-moddiy zaxiralar, ming so'm	25 050	26 020

Berilgan mahsulotlar asosida aniqlang:

1. Yil boshi va yil oxirida moddiy aylanma mablag'larning o'z aylanma mablag'lari manbalari bilan koplash darajasini;
2. Yil boshi va yil oxirida moddiy aylanma mablag'lar hajmining asosiy manbalar bilan qoplash darajasi;
3. Yil oxiridagi moliyaviy barqarorlik darajasini yil boshidagi moliyaviy barqarorlik darajasiga solishtirib, o'zgarishini aniqlab, unga baxo berib;
4. a) o'z aylanma mablag'lari manbalari hisobiga;
5. b) asosiy manbalar hisobiga;
6. Xulosa yozing.

2-topshiriq

Korxona to'lov qobiliyatini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar:
(ming so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri
1. Pul mablag'lari	1 500	1 620
2. Debitorlik qarzarlar	6 000	7 500
3. Tovar-moddiy zaxiralar	10 500	12 000
4. Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzarlar	3 000	3 000
5. Kreditorlik qarzlari	10 200	11 400
6. Uzoq muddatli bank qarzlari	2 050	2 050

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. Yil boshi va yil oxiriga to'lov mablag'lari summasini;
2. Yil boshi va yil oxiriga qisqa muddatli to'lov majburiyatlari summasini;
3. Yil boshi va yil oxiriga korxonaning to'lov qobiliyati koeffitsiyentlarini;
4. Tulov qobiliyatining o'zgarishiga baxo berib, xulosa qiling.

11-amaliy mashg'ulot: ASOSIY VOSITALAR BILAN TA'MINLANGANLIK VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING TAHLILI

Mashg'ulot rejasi:

1. Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik tahlili
2. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining tahlili

1-topshiriq

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar.

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	54 000	57 500
Sh.j aktiv qismi qiymati	29 700	35 650

2. Yalpi mahsulot, ming so'm	59 400	69 000
3. Foyda, ming so'm	16 200	20 125

Berilgan ma'lumotlar asosida hisoblang:

1. Bazis va hisobot yillari uchun asosiy fondlardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini:
 - a) fond sig'imini;
 - b) fond rentabelligini;
2. Fondlardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarining o'zgarishlarini;
3. Xulosa yozing.

2-topshiriq

1-topshiriqdagi ma'lumotlar asosida fond qaytimi dinamikasining o'zgarishini omilli tahlil qiling. Buning uchun aniqlang:

1. Fond qaytimini mutlaq va nisbiy o'zgarishini;
 2. Shartli fond qaytimi darajasini;
 3. Fond qaytimining o'zgarishiga quyidagi omillarning ta'sirini:
 - a) asosiy fondlar o'rtacha yillik qiymati o'zgarishining ta'sirini;
 - b) yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'sirini.
- Omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, hisoblang.
4. Xulosa yozing.

12- amaliy mashg'ulot: O'SIMLIKCHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH TANNARXINING TAHLILI.

Mashg'ulot rejasi:

1. Tahlilning axborot manbalari
2. Mahsulot tannarxining tahlili

1-topshiriq

Paxta tannarxini dinamikasining o'zgarishini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalaning:

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1.Jami ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	105 400	109 900
2.Paxta maydoni,ga	85	86
3.Paxta yalpi hosili,s	1960	2100

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. Bazis va hisobot yillari uchun 1 ga paxta maydoniga sarf bo'lgan xarajat summasini;
2. Bazis va hisobot yillari uchun paxta hosildorligini;
3. Bazis va hisobot yillari uchun 1 s. paxta tannarxini;
4. 1 s. paxtaning shartli tannarxini;
5. 1 s. tannarxi dinamikasining o'zgarishini;

6. Tannarx o'zgarishiga omillar ta'sirini :
 - a) paxta xarajati hajmi o'zgarishini ta'sirini ;
 - b) paxta hosildorligi darajasi o'zgarishini ta'sirini;
7. Tannarxni kamaytirish imkoniyatarini ko'rsatib, xulosa yozing.

13- amaliy mashg'ulot: CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH TANNARXINING TAHLILI.

1. Mashg'ulot rejasi:

1. Tahlilning axborot manbalari
2. Mahsulot tannarxining tahlili

1-topshiriq

Xo'jalikda yetishtirilgan sut ishlab chiqarish xarajatlari hajmi dinamikasini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalaning:

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1. Yetishtirilgan sut,s	1400	1662,5
2. Sut mahsuldorligi, s/b	26	28,5
3. Sigirlar soni, bosh	90	95
4. 1 s. sut tannarxi, ming sum	95	99,5

Berilgan ma'lumotlardan foydalanib, hisoblang:

1. Bazis va hisobot yillari uchun yetishtirilgan sutning jami ishlab chiqarish xarajatlari hajmini;
2. Shartli xarajatlar hajmini;
3. Xarajatlar hajmi o'zgarishini;
4. Xarajatlar hajmini o'zgarishiga quyidagi omillarning ta'sirini:
 - a) sut miqdori o'zgarishining ta'siri;
 - b) 1 s. sut tannarxi o'zgarishining ta'sirini;
5. Xulosa yozing.

2-topshiriq

1-topshiriqda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, 2 s. sut tannarxini omillni tahlil qiling. Tahlilni «Zanjirli (almashtirish) bog'lanish» usuli orqali amalga oshiring.

14- amaliy mashg'ulot:MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LARNI SOTISH HAJMINING TAHLILI.

Mashg'ulot rejasi:

1. Iqtisodiy tahlilning turlari.
2. Iqtisodiy tahlilning axborot manbalari

1-topshiriq

Paxtani sotishdan olingan sof pul tushumi hajmi dinamikasini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1. Sotilgan paxta miqdori,s	2100	2400
2.Paxtani sotishdan olingan sof pul tushumi, ming so'm	129790	158 917

Keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, sof pul tushumi dinamikasini tahlil qiling. Buning uchun aniqlang:

1. Bazis va hisobot yillari uchun 1s. paxtani o'rtacha sotish baxosini;
2. Sof pul tushumi hajmini o'zgarishini ;
3. Shartli sof pul tushumi hajmini.
4. Sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirini:
 - a) paxta miqdori o'zgarishining ta'sirini ;
 - b) o'rtacha sotish baxosi o'zgarishining ta'sirini;

Omillar tasirini «Zanjirli (almashtirish) bog'lanish» usulidan foydalanib, aniqlang.

2-topshiriq

1-topshiriqdagi ma'lumotlardan foydalanib, sof pul tushumi hajmini «Ko'rsatkachlar farqi» usuli yordamida tahlil qiling va xulosa yozing.

3-topshiriq

1-topshiriqdagi ma'lumotlardan foydalanib, sof pul tushumi hajmini «Indeks» usuli yordamida tahlil qiling va xulosa yozing.

15- amaliy mashg'ulot:KORXONA FAOLIYATINING MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI.

Mashg'ulot rejasi:

1. Tahlilning axborot manbalari
2. Korxona moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari tahlilining uslubiy asoslari

1-topshiriq

Paxtani sotishdan olingan sof pul tushumi hajmi dinamikasini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1. Sotilgan paxta miqdori,s	1960	2100
2.Paxtani sotishdan olingan sof pul tushumi, ming so'm	124 799	138 617

Keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, sof pul tushumi dinamikasini tahlil qiling. Buning uchun aniqlang:

1. Bazis va hisobot yillari uchun 1s. paxtani o'rtacha sotish baxosini;

2. Sof pul tushumi hajmini o'zgarishini ;

3. Shartli sof pul tushumi hajmini.

4. Sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirini:

a) paxta miqdori o'zgarishining ta'sirini ;

b) o'rtacha sotish baxosi o'zgarishining ta'sirini;

Omillar tasirini «Zanjirli (almashtirish) bog'lanish» usulidan foydalanib, aniqlang.

2-topshiriq

1-topshiriqdagi ma'lumotlardan foydalanib, sof pul tushumi hajmini «Ko'rsatkachlar farqi» usuli yordamida tahlil qiling va xulosa yozing

3.3. Laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv materiallari

3.4. Mustaqil ta'lim bo'yicha o'quv materiallari

	Mustaqil ta'lim mavzulari	Amalga oshirish mexanizmi
1	Iqtisodiy tahlilning mazmuni, predmeti va vazifalari	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
2	Iqtisodiy tahlilning metodi va uning o'ziga xos xususiyatlari	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
3	Iqtisodiy tahlilning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
4	O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlilning tashkil topishi va rivojlanishi.	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
5	Iqtisodiy tahlilning boshqa fanlar o'rtasida tutgan o'rni va ular bilan aloqadorligi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
6	Iqtisodiy tahlilning metodologik asoslari	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
7	Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo'llaniladigan an'anaviy usullar	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish tayyorlash
8	Oddiy-an'anaviy usullar: solishtirish (taqqoslash) usuli va uni qo'llashda amal qiladigan shartlar	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish tayyorlash
9	Iqtisodiy matematik usullarning umumiy tavsifi.	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
10	Korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyati tahlilida qo'llaniladigan maxsus usullar	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
11	Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
12	Korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish tayyorlash
13	Iqtisodiy tahlilning axborot manbalari	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
14	Iqtisodiy tahlilni tashkil etish	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
15	Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
16	Iqtisodiy tahlil turlari bo'yicha tasniflanishi va uning mezonlari	Referat yozib, taqdimot tayyorlash

17	Iqtisodiy tahlilning shakllari.	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
18	Kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil etish asoslari, mazmuni va asosiy printsiplari	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
19	Ekstensiv va intensiv o'sish munosabatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
20	Funktsional qiymat tahlili	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
21	Ishlab chiqarishning muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilishning uslubiy asoslari	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish tayyorlash
22	Raqamlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning tutgan o'rni va ahamiyati	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
23	Raqamlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilni rivojlantirish istiqbollari	Referat yozib, taqdimot tayyorlash
24	Funktsional qiymat tahlili	Referat yozib, taqdimot tayyorlash

3.5. Fan bo'yicha glossariy (o'zbek, rus, ingliz tillarida)

Atamaning o'zbek tilidagi nomlanishi	Atamaning ingliz tilidagi nomlanishi	Atamaning rus tilidagi nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	Земли сельскохозяйственного назначения	Agricultural land	qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar
Xo'jalikning yer bilan ta'minlanish ko'rsatkichi	Индекс приобретения сельскохозяйственных земель	Farm Land Acquisition Index	qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar maydonining jamini ishlovchi xodimlarning o'rtacha soniga nisbati tariqasida aniqlanadigan ko'rsatkich
Yerlardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichi	Эффективность землепользования	Land use efficiency	1 yoki 100 gektar hisobiga olingan yalpi mahsulot (yalpi daromad, sof daromad) hajmini ifodalovchi ko'rsatkich. Bular yer mahsuldorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardir
Rentabellik	Рентабельность	Profitability	daromadlilik, foydalilik degan ma'noni anglatadi
Ishlab chiqarish xarajatlari	Затраты на производство	Production costs	mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar yig'indisini ifodalovchi ko'rsatkich
Balans	The balance	Баланс	tenglik degan ma'noni anglatadi, aktiv va passivga bo'linadi
Baho	Appreciation	Оценка	tovar qiymatining pul ko'rinishida ifodalanishi
Bosh daftar	Main book	Главная книга	sintetik hisob yuritish uchun tayinlangan hisob registri
Buxgalteriya	Accounting	Бухгалтерия	buxgalteriya hisobini tashkil etadigan va yuritadigan hisob apparati.
Inventarizatsiya	Inventory	Инвентаризация	natura shaklidagi mavjud mablag'lar haqiqiysining buxgalteriya hisobi

			ma'lumotlariga to'g'ri kelishini, majburiyatlar hisobda to'g'ri aks ettirilishini tekshirish usuli
Kapital qo'yilmalar	Capital investments	Капитальные вложения	natijada asosiy vositalarni ko'paytiradigan xarajatlar.
Hisob	Account	Счёт	biror narsa mavjudligini belgilash, uni o'lchash va son hamda sifat tomonidan qayd etish
Yer fondi	Земельный фонд	Land fund	mamlakat (viloyat, tuman, xo'jalik) xududidagi barcha yerlar jami
Yalpi foyda	Валовая прибыль	Gross profit	pul tushumi bilan sotilgan mahsulot tannarxi orasidagi farq. Agar pul tushumi tannarxdan oshsa, orasidagi farq foydadir
Asosiy fondlar	Основные фонды	Fixed assets	ishlab chiqarish jarayonida uzoq yillar davrida xizmat qiluvchi mehnat vositalaridir
Mehnat unumdorligi	Производительность труда	Labor productivity	aniq vaqt birligida yetishtirilgan mahsulot miqdori (bajarilgan ish hajmi) yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt bilan tavsiflanadi.
Mehnat resurslari	Трудовые ресурсы	Labor resources	bu mehnatga layoqatli, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan insonlar hisoblanadi

**IV. Fan bo'yicha o'tkaziladigan attestatsiyalar
uchun savollar:**

4.1. 1 OB uchun og‘zaki savollar (150 ta)

AUDITORIYA DARSLARI BO'YICHA

1. Iqtisodiy tahlil nazariyasi fanining predmeti va metodlari
2. Materiallar qaytimining omilli tahlili
3. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahlili
4. O'simlikchilik mahsulotlarini sotish hajmining tahlili
5. Moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari va ularning tahlili
6. Iqtisodiy tahlil nazariyasi fanining ahamiyati, maqsadi va vazifalari
7. Yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligining tahlili
8. Asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanish darajasi tahlilining ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari
9. Chorvachilik mahsulotlarini sotish hajmining tahlili
10. Rentabellik ko'rsatkichlari va ularning tahlili
11. Iqtisodiy tahlil nazariyasi fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi
12. Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradorligining tahlili
13. Iqtisodiy tahlilning qanday asosiy tamoyillari mavjud
14. Iqtisodiy tahlil predmetini ta'riflang
15. Iqtisodiy tahlil vazifalarini sanab bering.
16. Omillar qanday tasnifiy belgilar asosida guruhlanadi
17. Ko'rsatkichlarni taqqoslama ko'rinishga keltirishning asosiy usullarini sanab bering
18. O'rtacha miqdorning keng tarqalgan ko'rinishlarini ayting.
19. Nisbiy miqdorlarning asosiy turlarini tavsiflang.
20. Iqtisodiy tahlil metodlarini ta'riflang
21. Tahlil usullari va uslublarini tasniflash asosida qanday tamoyillar yotadi
22. Materiallar rentabelligining omilli tahlili
23. Qoramolchilik mahsulotlarini sotish hajmining tahlili ishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning tahlili
24. Iqtisodiy tahlil nazariyasida qo'llaniladigan usullar
25. Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligining tahlili
26. Dehqonchilik mahsulotlarini sotish hajmining tahlili
27. Chorvachilik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning tahlili
28. Tahlilda metod tushunchasi va tahlilda qo'llaniladigan usullar
29. Yerdan foydalanish darajasining mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili
30. Mahsulot (ish, xizmat) hajmi tahlilining vazifalari nimalardan iborat
31. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi tahlili ketma-ketligini bayon qiling.
32. Mahsulotlar assortimenti tahlili metodikasini tavsiflang.
33. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili usullarini aytib bering.
34. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi buzilishining salbiy oqibatlarini sanab bering.
35. Shartnoma majburiyatlarini bajarish tahlili qanday maqsadda va qanday ketma-ketlikda amalga oshiriladi

36. Mahsulot sotishning zararsiz hajmi tahlili korxonalar faoliyatini boshqarishda qanday ahamiyatga ega
37. Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi miqdoriy va sifat parametrlari bo'yicha qanday tahlil qilinadi
38. Ish vaqti fondiga qanday omillar ta'sir qiladi va butun kunlik va smena ichidagi ish vaqti yo'qotishlari qanday aniqlanadi
39. Mahsulot strukturasi va assortimentining mehnat unumdorligiga ta'siri qanday hisoblanadi
40. Bir ishchining o'rtacha yillik ishlab chiqarishiga qanday omillar ta'sir qiladi? Ular qanday hisoblanadi
41. Ishchining soatlik ishlab chiqarishiga mehnat sig'imining ta'siri qanday hisoblanadi
42. Fond sig'imining omilli tahlili
43. Parrandachilik mahsulotlarini sotish hajmining tahlili
44. O'simlikchilik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning tahlili
45. Iqtisodiy tahlilda zanjirli bog'lanish usuli
46. Suvdan foydalanish darajasining tahlili
47. Fond qaytimining omilli tahlili
48. Xususiy kapital tarkibi, strukturasi va dinamikasining tahlili
49. Chorvachilik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning tahlili
50. Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlar farqi usuli
51. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligining tahlili
52. Asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanish darajasining tahlili
53. Don sotish hajmining omilli tahlili
54. Qoramolchilik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning tahlili
55. Iqtisodiy tahlilda indeks usuli
56. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligi tahlili
57. Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligining tahlili
58. Xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligining tahlili
59. Paxta xom ashyosini sotishdan olingan yalpi foydaning tahlili
60. Chorva strukturasi o'zgarishining ta'sirini tahlili
61. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish ahvolining tahlili
62. Mehnat unumdorligining tahlili
63. Fond rentabelligining omilli tahlili
64. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish dinamikasining tahlili
65. Buxgalteriya balansi asosida xo'jalik mablag'lari tarkibining tahlili
66. Buxgalteriya balansi asosida xo'jalik mablag'larining manbalari tahlili
67. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish ahvolining tahlili
68. O'simlikchilikda mehnat unumdorligining omilli tahlili
69. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahlili
70. O'simlikchilik mahsulotlarini sotish dinamikasining tahlili
71. Xo'jalik moliyaviy holatining tahlili
72. O'simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish ahvolining tahlili

73. Chorvachilikda mehnat unumdorligining omilli tahlili
74. O'simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahlili
75. Chorvachilik mahsulotlarini sotish dinamikasining tahlili

MUSTAQIL TA'LIM BO'YICHA

1. Xo'jalik bo'yicha mahsulotlarni sotish rentabelligining tahlili
2. O'simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasining omilli tahlili
3. Dehqonchilikda mehnat unumdorligining omilli tahlili
4. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahlili
5. Qoramolchilik mahsulotlarini sotish dinamikasining tahlili
6. Dehqonchilik mahsulotlari rentabelligining tahlili
7. Paxta ishlab chiqarish dinamikasining omilli tahlili
8. Paxtachilikda mehnat unumdorligining omilli tahlili
9. Qoramolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxining tahlili
10. Parrandachilik mahsulotlarini sotish dinamikasining tahlili
11. Xo'jalik moliyaviy holatining tahlili
12. G'alla ishlab chiqarish dinamikasining omilli tahlili
13. G'allachilikda mehnat unumdorligining omilli tahlili
14. Paxta ishlab chiqarish tannarxining tahlili
15. Mahsulotlarni sotishdan olingan sof pul tushumi hajmining omilli tahlili
16. Chorvachilik mahsulotlari rentabelligining tahlili
17. Sabzavot ishlab chiqarish dinamikasining omilli tahlili
18. Qoramolchilikda mehnat unumdorligining omilli tahlili
19. G'alla tannarxini xarajat moddalari bo'yicha omilli tahlili
20. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan sof pul tushumi tahlili
21. Buxgalteriya balansi asosida xo'jalik mablag'lari va manbalari
22. Ekin maydoni strukturasi tahlili
23. Parrandachilikda mehnat unumdorligining omilli tahlili
24. G'alla ishlab chiqarish tannarxining tahlili
25. O'simlikchilik mahsulotlarini sotishdan olingan sof pul tushumi tahlili
26. Korxona moliyaviy barqarorligining tahlili
27. O'rtacha hosildorlikning omilli tahlili va uni oshirish imkoniyatlari
28. Mehnat resurslari bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish tahlili
29. Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahlili
30. Chorvachilik mahsulotlarini sotishdan olingan sof pul tushumi tahlili
31. Korxona to'lov qobiliyatining tahlili
32. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasining tahlili
33. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini hisoblash usullari
34. Sabzavot ishlab chiqarish tannarxining tahlili
35. Qoramolchilik mahsulotlarini sotishdan olingan sof pul tushumi omilli tahlili
36. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tahlili
37. Sut ishlab chiqarish dinamikasining omilli tahlili
38. Mehnat unumdorligi bevosita ko'rsatkichining tahlili

39. Paxta tannarxini xarajat moddalari bo'yicha omilli tahlili
40. Parrandachilik mahsulotlarini sotishdan olingan sof pul tushumi tahlili
41. Pul oqimlarining tahlili
42. Go'sht ishlab chiqarish dinamikasining omilli tahlili
43. Mehnat unumdorligi bilvosita ko'rsatkichining tahlili
44. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish hajmining tahlili
45. Moliyaviy natija va uning ko'rsatkichlarining omilli tahlili
46. Pul mablag'lari tarkibi va strukturasining tahlili
47. Qoramolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasining tahlili
48. Xo'jalik bo'yicha mehnat unumdorligining omilli tahlili
49. Tannarxni xarajat moddalari bo'yicha omilli tahlili
50. Korxonaning materiallar bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish tahlili oldida qanday asosiy vazifalar turadi
51. Material resurslar tejalishi zaxiralarining tashuvchilari hisoblanuvchi omillarning asosiy guruhlarini ayting.
52. Material sig'iminining xususiy ko'rsatkichlarini ayting.
53. Xarajatlar darajasi va mahsulotning umumiy tannarxiga qanday omillar ta'sir qiladi
54. O'zgaruvchan va doimiy xarajatlar tahlilining farqli xususiyatlari nimalardan iborat
55. Mehnat haqi xarajatlari tahlili qanday bajariladi
56. Ishchi va xizmatchilarning mehnat haqi fondiga ta'sir qiluvchi omillarni sanab bering
57. Mahsulot tannarxi darajasi va dinamikasini tahlil qilishda qanday ko'rsatkich qo'llaniladi, u qanday hisoblanadi va tahlil qilinadi
58. Kreditorlik qarzlarning tahlili
59. Mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnomaviy majburiyatlarning tahlili
60. Xo'jalikning asosiy faoliyatidagi pul oqimlarining tahlili
61. Parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasining tahlili
62. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish tahlili
63. Paxta tannarxini xarajat moddalari bo'yicha omilli tahlili
64. Mahsulot sotish hajmining omilli tahlili
65. Xo'jalikning moliyaviy faoliyatidagi pul mablag'lari harakatining tahlili
66. Qo'ychilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasining tahlili
67. Materiallar sig'iminining omilli tahlili
68. G'alla tannarxini xarajat moddalari bo'yicha omilli tahlili
69. Rentabellik va uning ko'rsatkichlarining omilli tahlili
70. Xo'jalikning investision faoliyatidagi pul mablag'lari harakatining tahlili
71. Chorva strukturasini o'zgarishining ta'sirini tahlili
72. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish tahlili
73. Parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxining tahlili
74. Moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlari tahlili
75. Xususiy kapital tahlili

4.2. 2 OB uchun og‘zaki savollar (150 ta)

AUDITORIYA DARSLARI BO'YICHA

1. Qoramolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxining tahlili
2. Parrandachilik mahsulotlarini sotish dinamikasining tahlili
3. Xo'jalik moliyaviy holatining tahlili
257. Moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlari tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, moliyaviy natijalar, daromad, xarajat, foyda, zarar, foyda va rentabellik ko'rsatkichlari)

258. Xususiy kapital tahlili (tahlilning ahamiyati, vazifalari, axborot manbalari, xususiy kapital, ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda, omilli tahlil)

259. Iqtisodiy tahlil nazariyasi fanining predmeti va metodlari (tahlil, iqtisodiy tahlil, tahlil predmeti, tahlil ob'yekti, ob'yektiv omillar, sub'yektiv omillar, tahlil metodi)

260. Materiallar qaytimining omilli tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, omilli tahlili)

261. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, tannarx, ishlab chiqarish xarajatlari, omilli tahlili)

262. O'simlikchilik mahsulotlarini sotish hajmining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, pul tushumi, sotish hajmi, sotilgan mahsulot, o'rtacha sotish bahosi, omilli tahlili)

263. Moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari va ularning tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, moliyaviy natijalar, yalpi foyda, asosiy ishlab chiqarish faoliyati foydasi, umumxo'jalik faoliyati foydasi, sof foyda)

264. Iqtisodiy tahlil nazariyasi fanining ahamiyati, maqsadi va vazifalari (tahlil, iqtisodiy tahlil, tahlil predmeti, tahlil ob'yekti, ob'yektiv omillar, sub'yektiv omillar, tahlil metodi)

265. Yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, ekin maydoni, ekinzor maydoni, kadastr maydon, yer mahsuldorligi, yerdan foydalanish samaradorligi)

266. Asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanish darajasi tahlilining ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, omilli tahlili)

267. Chorvachilik mahsulotlarini sotish hajmining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, pul tushumi, sotish hajmi, sotilgan mahsulot, o'rtacha sotish bahosi, omilli tahlili)

268. Rentabellik ko'rsatkichlari va ularning tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, rentabellik, sotilgan mahsulotlar rentabelligi, asosiy vositalar rentabelligi, aktivlar rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi)

269. Iqtisodiy tahlil nazariyasi fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligi (iqtisodiy tahlil, statistika, buxgalteriya hisobi)

270. Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradorligining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, yer maydoni, ekin maydoni, kadastr maydon, yer mahsuldorligi, yerdan foydalanish samaradorligi)

271. Materiallar rentabelligining omilli tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, omilli tahlili)

272. Qoramolchilik mahsulotlarini sotish hajmining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, pul tushumi, sotish hajmi, sotilgan mahsulot, o'rtacha sotish bahosi, omilli tahlili)

273. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, yalpi foyda, mahsulot miqdori, o'rtacha sotish bahosi, tannarx, sotishdan olingan foyda)

274. Iqtisodiy tahlil nazariyasida qo'llaniladigan usullar (zanjirli bog'lanish, ko'rsatkichlar farqi, indeks usuli)

275. Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, sarf bo'lgan suv hajmi, suv foydalanish samaradorligi)

276. Asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili (asosiy fondlar, asosiy fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti, fond qaytimi, fond rentabelligi)

277. Dehqonchilik mahsulotlarini sotish hajmining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, pul tushumi, sotish hajmi, sotilgan mahsulot, o'rtacha sotish bahosi, omilli tahlili)

278. Chorvachilik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, yalpi foyda, o'rtacha sotish bahosi, tannarx, sotishdan olingan foyda)

279. Tahlilda metod tushunchasi va tahlilda qo'llaniladigan usullar (tahlil metodi, tahlil usullari, taqqoslash usuli, zanjirli bog'lanish usuli, indeks usuli, ko'rsatkichlar farqi usuli, bog'lanish usuli)

280. Yerdan foydalanish darajasining mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, yer maydoni, ekin maydoni, kadastr maydon, yer mahsuldorligi, yerdan foydalanish samaradorligi)

281. Fond sig'iminining omilli tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, omilli tahlili)

282. Iqtisodiy tahlil nazariyasi fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligi (iqtisodiy tahlil, statistika, buxgalteriya hisobi)

283. Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradorligining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, yer maydoni, ekin maydoni, kadastr maydon, yer mahsuldorligi, yerdan foydalanish samaradorligi)

284. Materiallar rentabelligining omilli tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, omilli tahlili)

285. Qoramolchilik mahsulotlarini sotish hajmining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, pul tushumi, sotish hajmi, sotilgan mahsulot, o'rtacha sotish bahosi, omilli tahlili)

286. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, yalpi foyda, mahsulot miqdori, o'rtacha sotish bahosi, tannarx, sotishdan olingan foyda)

287. Iqtisodiy tahlil nazariyasida qo'llaniladigan usullar (zanjirli bog'lanish, ko'rsatkichlar farqi, indeks usuli)

288. Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, sarf bo'lgan suv hajmi, suv foydalanish samaradorligi)

289. Asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili (asosiy fondlar, asosiy fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti, fond qaytimi, fond rentabelligi)

290. Dehqonchilik mahsulotlarini sotish hajmining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, pul tushumi, sotish hajmi, sotilgan mahsulot, o'rtacha sotish bahosi, omilli tahlili)

291. Chorvachilik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, yalpi foyda, o'rtacha sotish bahosi, tannarx, sotishdan olingan foyda)

292. Tahlilda metod tushunchasi va tahlilda qo'llaniladigan usullar (tahlil metodi, tahlil usullari, taqqoslash usuli, zanjirli bog'lanish usuli, indeks usuli, ko'rsatkichlar farqi usuli, bog'lanish usuli)

293. Yerdan foydalanish darajasining mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, yer maydoni, ekin maydoni, kadastr maydon, yer mahsuldorligi, yerdan foydalanish samaradorligi)

294. Fond sig'iminining omilli tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, omilli tahlili)

295. Parrandachilik mahsulotlarini sotish hajmining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, pul tushumi, sotish hajmi, sotilgan mahsulot, o'rtacha sotish bahosi, omilli tahlili)

296. O‘simlikchilik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, yalpi foyda, o‘rtacha sotish bahosi, tannarx, sotishdan olingan foyda)

297. Iqtisodiy tahlilda zanjirli bog‘lanish usuli (mohiyati, qo‘llanilishi, xususiyatlari, omillar tahlili)

298. Suvdan foydalanish darajasining ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga ta’sirining tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, sarf bo‘lgan suv hajmi, suv foydalanish samaradorligi)

299. Fond qaytimining omilli tahlili (tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, axborot manbalari, omilli tahlili)

300. Xususiy kapital tarkibi, strukturasi va dinamikasining tahlili (tahlilning ahamiyati, vazifalari, axborot manbalari, xususiy kapital, ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda, omilli tahlil)

4.7. 1 OB uchun test savollari (150 ta)

AUDITORIYA DARSLARI BO'YICHA

1. Tahlil so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?

- A) grekcha olingan bo'lib, ajratish, bo'laklash, parchalash kabi ma'nolarni anglatadi
- B) inglizchadan olingan bo'lib, yaxlit holda o'rganish ma'nosini anglatadi
- D) grekcha olingan bo'lib, kompleks, bo'lakga ajratmasdan kabi ma'nolarni anglatadi
- E) lotinchadan olingan bo'lib, bo'laklarga ajratib o'rganish ma'nosini anglatadi

2. Tahlil deganda -...

- A) bir butun jarayonni alohida bo'laklarga bo'lib o'rganish tushuniladi
- B) ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish tushuniladi
- D) jarayonlarni bir butunlikda umumlashtirib o'rganish tushuniladi
- E) xo'jalik faoliyatining nozik va kuchli tomonlarini aniqlash tushuniladi

3. Tahlilning predmeti

- A) ob'yektiv va sub'yektiv omillar ta'siri ostida yuzaga keladigan iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalari
- B) ob'yektiv omillar ta'sirida yuzaga keladigan jarayonlar
- D) sub'yektiv omillar ta'sirida yuzaga keladigan jarayonlar
- E) xo'jalik faoliyatining ishlab chiqarish natijalari

4. Tahlilning tamoyillari

- A) yondoshish, ilmiylik, komplekslik, rejalilik, samaradorlik
- B) hujjatlashtirish, inventarizasiya, schyotlar, ikkiyoqlama yozuv
- D) uzluksizlik, ishonchlilik, qiyoslanuvchanlik
- E) majburiylik, aniqlilik, oshkoralik, yagonalik, adolatlilik

5. Tahlil fani rivojiga hissa qo'shgan shaxslar

- A) Bakanov M.I., Sheremet A.D., Saviskaya G.V.
- B) Adam Smit, Luka Pacholi, Anri Mishel
- D) Anderson, aka-uka Grimlar,
- E) Michurin, Charlec Darvin

6. Omil nima?

- A) natijaga ta'sir qiluvchi miqdorlar
- B) iqtisodiy jarayonlar natijasi
- D) dialektik kategoriya hisoblanadi
- E) xususiylikdan umumiylikka qarab o'zgaruvchi iqtisodiy jarayondir

7. Tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarni mazmuni bo'yicha turlarini aniqlang?

- A) miqdor ko'rsatkichlari, sifat ko'rsatkichlari
- B) umumiy ko'rsatkichlar, maxsus ko'rsatkichlar
- D) mutloq ko'rsatkichlar, nisbiy ko'rsatkichlar
- E) yalpi hosil, yer maydon ko'rsatkichlari

8. Tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarning foydalanish doirasi bo'yicha turlarni aniqlang?

- A) umumiy ko'rsatkichlar, maxsus ko'rsatkichlar
- B) miqdor ko'rsatkichlari, sifat ko'rsatkichlari
- D) rentabellik ko'rsatkichlari, hosildorlik
- E) mutloq ko'rsatkichlar, nisbiy ko'rsatkichlar

9. Tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarni ifodalash shakli bo'yicha turlarni aniqlang?

- A) mutloq ko'rsatkichlar, nisbiy ko'rsatkichlar
- B) miqdor ko'rsatkichlari, sifat ko'rsatkichlari
- D) umumiy ko'rsatkichlar, maxsus ko'rsatkichlar
- E) me'yoriy, ko'rsatkichlar, hisobot ko'rsatkichlari

10. Tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarning umumlashtirish darajasi bo'yicha turlarini aniqlang?

- A) umumlashgan, qisman, yordamchi ko'rsatkichlari
- B) miqdor ko'rsatkichlari, sifat ko'rsatkichlari
- D) me'yoriy ko'rsatkichlar, hisobot ko'rsatkichlari
- E) me'yoriy, hisob, hisobot ko'rsatkichlari

11. Tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarning shakllanish usullari bo'yicha turlarini aniqlang?

- A) reja, hisob, tahliliy ko'rsatkichlar
- B) miqdor, sifat, reja ko'rsatkichlari
- D) reja, hisob, rentabellik ko'rsatkichlari
- E) mutloq, nisbiy, tahliliy ko'rsatkichlar

12. Induksiya deganda nima tushuniladi?

- A) omillardan natijaga qarab o'rganish tushuniladi
- B) natijadan omillarga qarab o'rganish tushuniladi
- D) ijtimoiy hodisalarni o'rganish tushuniladi
- E) iqtisodiy hodisalarni o'rganish tushuniladi

13. Deduksiya deganda nima tushuniladi?

- A) umumiylikdan xususiylikka qarab o'rganish tushuniladi
- B) omillardan natijaga qarab o'rganish tushuniladi
- D) miqdordan sifatga qarab o'rganish tushuniladi
- E) ijtimoiy iqtisodiy jarayonlar ma'lum bir zamonda sodir bo'lishi tushuniladi

14. Makon deganda nima tushuniladi?

- A) xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tushuniladi
- B) o'tgan vaqt tushuniladi
- D) uzviy jarayonlar bilan bog'liqligi tushuniladi
- E) iqtisodiy jarayonlar ketma-ketligi tushuniladi

15. Omillarning ta'sir qilish harakteri bo'yicha tasniflanishi

- A) ekstensiv va intensiv omillar
- B) ekstensiv va miqdoriy omillar
- D) intensiv va sifatiiy omillar
- E) ekstensiv va sifatiiy omillar

16. Omillarni hodisa va jarayonlarni ifoda etish bo'yicha tasniflang

- A) miqdoriy va sifatiy omillar
- B) doimiy va vaqtinchalik omillar
- D) miqdoriy va ekstensiv omillar
- E) miqdoriy va intensiv omillar

17. Jarayonlarga ta'sir qiluvchi ekstensiv omillarni aniqlang

- A) yer maydoni va chorva mollari sonining ko'payishi
- B) yer maydoni va yalpi hosilning ko'payishi
- D) yer maydoni va hosildorlikning oshishi
- E) yer mahsuldorligi va ekinlar hosildorligi

18. Xo'jalik faoliyati natijalariga ta'sir qiluvchi intensiv omillarni ko'rsating

- A) ekinlar hosildorligi va chorva mollari mahsuldorgi
- B) yer maydoni va yer maxsuldorligi
- D) xodimlar soni va chorva mollari soni
- E) mehnat unumdorligi va xodimlar soni

19. Hodisa va jarayonlarga ta'sir qiluvchi miqdoriy omillarni aniqlang

- A) xodimlar soni, yer maydoni
- B) ekstensiv va sifatiy omillar
- D) intensiv va sifatiy omillar
- E) xodimlar soni, ekinlar hosildorligi

20. Hodisa va jarayonlarga ta'sir qiluvchi sifatiy omillarni aniqlang

- A) mehnat unumdorligi, rentabellik
- B) mollar soni, mahsuldorligi
- D) intensiv va miqdor ko'rsatkichlar
- E) mehnat unumdorligi, ekinlar hosildorligi

21. Tahlil o'tkazish shakllarini aniqlang

- A) kompleks, omilli, moliyaviy tahlillar
- B) batafsil tanlab o'tkaziladigan tahlillar
- D) lokal, global va tematik tahlillar
- E) tezkor, joriy va istiqbolli tahlillar

22. Xo'jalik faoliyatining natijasiga ta'sir qiluvchi ob'yektiv omillarni aniqlang?

- A) mahsulot bahosi, tabiiy sharoit
- B) mahsulot tannarxi, tabiiy sharoit
- D) foyda, mahsulot tannarxi
- E) fond sig'imi, mahsulot baxosi

23. Xo'jalik faoliyatining natijasiga ta'sir qiluvchi sub'yektiv omillarni aniqlang?

- A) mahsulot miqdori, tannarx
- B) mahsulot miqdori, fond qaytimi
- D) fond bilan ta'minlanish, tabiiy sharoit
- E) mehnatning qurollanishi, kreditorlik qarzi

24. Tahlilning maqsadi

- A) mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va samaradorligini oshirish

imkoniyatlarini aniqlash

- B) ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini topish

- D) fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash
- E) foydani yanada ko'paytirish rezervlarini aniqlash

25. Tahlilning iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligini bildiruvchi guruh fanlarini aniqlang?

- A) iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiyot, statistika, audit
- B) makroiqtisodiyot, statistika, matematika, soliq
- D) iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiyot, tarix, matematika
- E) makroiqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, soliq, audit

26. Tahlilning asosiy shakllaridan biri bo'lgan omilli tahlilning mazmuni

A) natijaga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlab, ularning ta'sirini aniqlash usullari majmuasi

- B) moliyaviy natijalarni omillar ta'siri ostida tahlil qilish
- D) moliyaviy holatni omillar ta'siri ostida tahlil qilish
- E) iqtisodiy jarayonni o'zgarishiga ob'yektiv omillar ta'sirini aniqlash

27. Tahlilda natija deganda qanday ko'rsatkich tushuniladi?

- A) jarayonlar natijasini ifoda etuvchi iqtisodiy ko'rsatkich
- B) jarayonlar natijasini ifoda etuvchi ijtimoiy ko'rsatkich
- D) jarayonlar natijasini ifoda etuvchi miqdor ko'rsatkich
- E) jarayonlar natijasini ifoda etuvchi sifat ko'rsatkich

28. Omillar deganda qanday ko'rsatkichlar tushuniladi?

- A) jarayonlar natijasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar
- B) mahsulot miqdorining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar
- D) xo'jalik foydasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar
- E) mahsulot tannarxining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar

29. Iqtisodiy ko'rsatkichlar deb nimaga aytiladi?

- A) iqtisodiy jarayonlarni ifodalaydigan miqdor va sifat ko'rsatkichlar
- B) siyosiy jarayonlarni ifodalovchi miqdor va sifat ko'rsatkichlar
- D) ekologik jarayonlarni ifodalovchi miqdor va sifat ko'rsatkichlar
- E) ijtimoiy jarayonlarni ifodalovchi miqdor va sifat ko'rsatkichlar

30. Iqtisodiy axborotlar deganda nima tushuniladi?

A) ma'lumotlarni jamlash va qayta ishlash natijasida olingan ma'lumotlar tushuniladi

- B) ma'lumotlarni jamlash tushuniladi
- D) ma'lumotlarni qayta ishlash tushuniladi
- E) ma'lumotlarni guruhlash tushuniladi

31. Hisob va hisobot ma'lumotlarni aniqlang?

- A) buxgalteriya hisobi, statistik hisob, tezkor hisob ma'lumotlari
- B) buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari
- D) statistik hisobot ma'lumotlari
- E) tezkor hisob va hisobot ma'lumotlari

32. Tahlilni amalga oshirish bosqichlarini aniqlang?

- A) 5 ta
- B) 3 ta

D) 4 ta

E) 6 ta

33. Ichki tahlil deganda nima tushuniladi?

A) xo'jalik xodimlari tomonidan o'tkaziladigan tahlil tushuniladi

B) auditorlar tomonidan o'tkaziladigan tahlil tushuniladi

D) statistika organlari tomonidan o'tkaziladigan tahlil tushuniladi

E) bosh buxgalter tomonidan o'tkaziladigan tahlil tushuniladi

34. Tahlilni ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni o'rganish bo'yicha guruh turlarini aniqlang

A) makroiqtisodiy tahlil, mikroiktisodiy tahlil

B) batafsil tahlil, joriy tahlil

D) tanlama tahlil, batafsil tahlil

E) tanlama tahlil, mikroiktisodiy tahlil

35. Tahlilni tahlil sub'yektlari bo'yicha guruh turlarini aniqlang

A) ichki tahlil, tashqi tahlil

B) tarmoqlar tahlili, tarmoqlararo tahlil

D) makroiqtisodiy tahlil, mikroiktisodiy tahlil

E) batafsil tahlil, tanlama tahlil

36. Tahlilni o'rganilayotgan ob'yektni qamrab olish darajasi bo'yicha guruh turlarini aniqlang

A) batafsil tahlil, tanlama tahlil

B) tezkor tahlil, joriy tahlil

D) makroiqtisodiy tahlil, tarmoqlar tahlili

E) mikroiktisodiy tahlil, tarmoqlararo tahlil

37. Omilli tahlil deb nimaga aytiladi?

A) faoliyat natijasining o'zgarish sabablarini omillar hisobiga aniqlashga

B) natija bilan omillar orasidagi bog'liqlikni o'rganishga

D) omillarning o'zgarishiga natijaning ta'sirini aniqlashga

E) omillar bilan natijaning nisbiy o'zgarishining bog'liqligiga

38. Xo'jalik faoliyatining tahlili – bu..

A) iqtisodiyotni mikroiktisodiyot darajasida o'rganishni ifodalovchi tahlildir

B) natija bilan omillar orasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi tahlildir

D) iqtisodiyotni makroiqtisodiyot darajasida o'rganishni ifodalovchi tahlildir

E) moliyaviy holat va moliyaviy natijalarni o'rganishni ifodalovchi tahlildir

39. Istiqbolli tahlil deganda nimani tushuniladi?

A) xo'jalikning kelgusi faoliyatini o'rganish uchun o'tkaziladigan tahlil

B) biznes reja bo'yicha o'tkaziladigan tahlil

D) yillik hisobot natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tahlil

E) makroiqtisodiyot ma'lumotlari bo'yicha o'tkaziladigan tahlil

40. Tahlilning axborot manbalari

A) buxgalteriya hisobi, statistika hisobotlari va biznes reja ma'lumotlari

B) buxgalteriya hisobi, statistik hisobot ma'lumotlari, qarorlar

D) ichki buyruqlar, statistik va biznes reja ma'lumotlari

E) bo'linmalar hisobotlari, biznes reja va buxgalteriya hisobi ma'lumotlari
41. Tahlilning predmeti bo'lib nimalar hisoblanadi?

A) ob'yektiv va sub'yektiv omillar ta'sirida yuzaga kelgan va kelayotgan jarayonlar

B) ob'yektiv omillar ta'sirida sodir bo'lgan jarayonlar

D) sub'yektiv omillar ta'sirida sodir bo'lgan jarayonlar

E) xo'jalik faoliyatini turli tomonlarida sodir bo'lgan jarayonlar

42. Tahlilning metodi deganda nima tushuniladi?

A) predmetni mahsus usullari yordamida o'rganish tushuniladi

B) predmetni iqtisodiy-statistik usullar yordamida o'rganish tushuniladi

D) predmetni iqtisodiy- matematik usullarni qo'llab o'rganish tushuniladi

E) predmetni «Zanjirli bog'lanish» va «Farqlash» usullari yordamida o'rganish tushuniladi

43. O'simlikchilik va chorvachilikning barcha sohalarida yetishtiriladigan natura mahsulotlarining miqdori

A) yalpi hosil

B) sof tushum

D) yalpi foyda

E) hosildorlik, mahsuldorlik

44. O'simlikchilikda bir gektardan olingan hosil – bu..

A) hosildorlik

B) mahsuldorlik

D) yalpi hosil

E) samaradorlik

45. Chorvachilikda olingan mahsulot birligi– bu..

A) mahsuldorlik

B) yalpi hosil

D) samaradorlik

E) hosildorlik

46. O'simlikchilikda yalpi hosil qandan aniqlanadi?

A) jami ekin maydoni bir gektardan olingan hosilga ko'paytiriladi

B) jami ekin maydoni hosildorlikga bo'linadi

D) chorva mollari bosh soni olingan sut miqdoriga ko'paytiriladi

E) yalpi daromad ekin maydoniga bo'linadi

47. Yalpi sut miqdori qanday aniqlanadi?

A) sog'in sigirlar bosh soni sut mahsuldorligiga ko'paytiriladi

B) jami qoramollar bosh soni mahsuldorlikka ko'paytiriladi

D) yalpi hosildan sigirlar bosh soni chegiriladi

E) sog'in sigirlar bosh sonidan olingan buzoqlar bosh soni chegirilib, sut mahsuldorligiga ko'paytiriladi

48. Yalpi hosil miqdorining o'zgarishi bevosita qaysi omillar hisobiga yuzaga keladi?

A) ekin maydoni hajmi va hosildorlik darajasi o'zgarishi hisobiga

B) mahsulot miqdori va sotish bahosi o'zgarishi hisobiga

D) tannarx va sotish bahosi o'zgarishi hisobiga

E) yalpi daromad va yalpi foyda o'zgarishi hisobiga

49. Hisobot yilidagi yalpi hosil miqdorini bazis yilidagi yalpi hosil miqdoridan chegirishda qaysi usul qo'llaniladi?

A) taqqoslash usuli

B) zanjirli bog'lanish usuli

D) indeks usuli

E) ko'rsatkichlar farqi usuli

50. Yalpi sut miqdorining o'zgarishiga bevosita qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?

A) sigirlarning o'rtacha bosh soni va sut mahsuldorligi o'zgarishi

B) qoramollarning o'rtacha bosh soni va sut mahsuldorligi o'zgarishi

D) hisobot yilidagi yalpi sut miqdori bilan bazis yilidagi yalpi sut miqdori

o'zgarishi

E) sut miqdori va sotish bahosi o'zgarishi

51. Ishlab chiqarishni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlang?

A) yalpi mahsulot, yalpi hosil, hosildorlik, mahsuldorlik

B) sof pul tushumi, paxta yalpi hosili, tannarx

D) sof pul tushumi, yalpi daromad, yalpi foyda

E) yalpi hosil, rentabellik, sof foyda

52. Yalpi hosil miqdorining o'zgarishiga hosildorlik o'zgarishining ta'sirini aniqlang.

A) $(H_1 - H_0) \cdot M_1 = \pm \Delta_H$

B) $(H_0 - H_1) \cdot M_0 = \pm \Delta_H$

D) $(M_0 - M_1) \cdot H_1 = \pm \Delta_H$

E) $(H_1 - M_0) \cdot H_1 = \pm \Delta_H$

52. Yalpi hosil miqdorining o'zgarishiga ekin maydoni o'zgarishining ta'sirini aniqlang.

A) $(M_1 - M_0) \cdot H_0 = \pm \Delta_M$

B) $(M_0 - M_1) \cdot H_1 = \pm \Delta_M$

D) $(H_1 - M_0) \cdot H_1 = \pm \Delta_M$

E) $(H_0 - H_1) \cdot M_0 = \pm \Delta_M$

53. Yalpi sut miqdorining o'zgarishiga omillar ta'sirini zanjirli bog'lanish usulida aniqlang

A) $S_1 \cdot P_1 - S_0 \cdot P_0 = \pm \Delta_{S,P}$

B) $S_1 \cdot P_1 - S_1 \cdot P_0 = \pm \Delta_{S,P}$

D) $S_0 \cdot P_0 - S_1 \cdot P_0 = \pm \Delta_{S,P}$

E) $S_1 \cdot P_0 - S_0 \cdot P_0 = \pm \Delta_{S,P}$

54. Yerdan samarali foydalanish deganda nima tushuniladi?

A) 1 gektar yoki 100 gektar hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmining oshishi

B) 1 gektar yoki 100 gektar hisobiga yetishtirilgan mahsulot

D) 1 gektar yoki 100 gektar hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmining kamayishi

E) 1 gektar yoki 100 gektar yerning unumdorlik darajasi oshishi

55. Suvdan samarali foydalanish deganda nima tushuniladi?

A) 1 ming m³ suv hajmi hisobiga olingan mahsulot hajmining ortishi

B) 1 ming m³ suv hajmi hisobiga olingan mahsulot hajmining kamayishi

D) 1 gektar yoki 100 gektarga sarf bo'lgan suv miqdori

E) har bir ekin turiga sarf bo'lgan suv hajmi

56. Bir birlik yer maydoni hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi nima deyiladi?

A) yerdan foydalanish samaradorligi

B) yalpi hosil

D) yalpi mahsulot

E) iqtisodiy samaradorlik

57. Yerdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlang

A) bir yoki yuz gektar hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot, yalpi daromad, sof foyda

B) 1 ming m³ suv hajmi hisobiga olingan yalpi mahsulot, yalpi daromad, sof foyda

D) bir yoki yuz bosh hisobiga olingan yalpi mahsulot, yalpi daromad, sof foyda

E) har bir ekin turi yoki chorva bosh sonidan olingan yalpi mahsulot, yalpi daromad

58. Yer mahsuldorligi darajasi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar

A) yer maydoni va yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi

B) ekin maydoni va hosildorlik o'zgarishi

D) bir yoki yuz gektar hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot o'zgarishi

E) bir yoki yuz gektar hisobiga sarf bo'lgan suv hajmining o'zgarishi

59. Yer mahsuldorligi darajasini aniqlash formulasi

A) $Y_M = \frac{\text{Yalpi mahsulot}}{\text{Maydon}}$

B) $Y_M = \frac{\text{Yalpi mahsulot}}{\frac{\text{Hosildorlik}}{\text{Maydon}}}$

D) $Y_M = \frac{\text{Yalpi mahsulot}}{\text{Yalpi hosil}}$

E) $Y_M = \frac{\text{Yalpi hosil}}{\text{Hosildorlik}}$

60. 100 gektar yer hisobiga yalpi mahsulot chiqimini aniqlang

A) yalpi mahsulotni kadastr maydoniga bo'linadi

B) yalpi mahsulotni ekinzorlar maydoniga bo'linadi

D) yalpi mahsulotni qishloq xo'jalik yerlari maydoniga bo'linadi

E) yalpi mahsulotni ekinlar maydoniga bo'linadi

61. Suvdan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichi

A) 1 ming m³ suv sarfi hisobiga olingan mahsulot

B) bir yoki yuz gektar hisobiga sarf bo'lgan suv hajmi

D) 1 gektar yoki 100 gektarga sarf bo'lgan suv

E) ekin maydoniga sarf bo'lgan jami suv hajmi

62. Suvdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichi formulasi

- A) $S_K = \frac{H}{SS}$
 B) $S_K = \frac{M}{SS}$
 D) $S_K = \frac{SS}{H}$
 E) $S_K = \frac{SS}{M}$

63. Suvdan foydalanish samaradorligi darajasi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar

A) 1 gektar maydon hisobiga sarf bo'lgan suv hajmi va 1 gektardan olingan hosil

B) ekin maydoni va 1 gektardan olingan hosil (hosildorlik) o'zgarishi

D) yer maydoni va yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi

E) bir gektarga sarf bo'lgan suv hajmi va mehnat sarfi

64. Suvdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichi umumiy o'zgarishi qanday aniqlanadi?

A) $\frac{H_1}{SS_1} - \frac{H_0}{SS_0} = \Delta_{H,SS}$

B) $\frac{H_1}{SS_1} - \frac{H_1}{SS_0} = \Delta_{H,SS}$

D) $\frac{SS_1}{H_1} - \frac{SS_0}{H_0} = \Delta_{H,SS}$

E) $\frac{SS_1}{H_1} - \frac{SS_0}{H_1} = \Delta_{H,SS}$

65. Suvdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichini aniqlash tartibi

A) hosildorlik bir gektarga sarf bo'lgan suv hajmiga bo'linadi

B) bir gektarga sarf bo'lgan suv hajmi hosildorlikka bo'linadi

D) ekin maydoni bir gektarga sarf bo'lgan suv hajmiga bo'linadi

E) sarf bo'lgan jami suv hajmi ekin maydoniga bo'linadi

66. Mehnatga layoqatli, bilim va malakaga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan insonlar deganda

A) mehnat resurslari tushuniladi

B) mehnat unumdorligi tushuniladi

D) mehnatga layoqatli aholi tushuniladi

E) ishlab chiqarish resurslari tushuniladi

67. Mehnat resurslaridan foydalanishning eng asosiy ko'rsatkichi

A) mehnat unumdorligi

B) mehnatga layoqatli aholi

D) ishlab chiqarish resurslari

E) moddiy resurslar

68. Mehnat unumdorligi deganda nima tushuniladi?

A) aniq vaqt birligi (1 kishi-soat yoki 1 kishi-kuni) hisobiga yetishtirilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ish hajmi

B) jami ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar

D) bir gektarga sarf bo'lgan ishchi kuchi

E) aniq vaqt birligi (1 kishi-soat yoki 1 kishi-kuni) hisobiga sotilgan mahsulot

miqdori

69. Mehnat unumdorligi qaysi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi?

- A) bevosita va bilvosita
- B) mutloq va nisbiy
- D) miqdoriy va sifatiy
- E) yalpi mahsulot, yalpi daromad

70. Mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichini aniqlash tartibi

A) ishlab chiqarilgan jami mahsulot miqdorini jami kishi-soat (kishi kun)lariga bo'linadi

B) jami kishi-soatlari ishlab chiqarilgan jami mahsulot miqdoriga bo'linadi

D) ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori ekin maydoniga bo'linadi

E) jami kishi-soat (kishi kun)lari xodimlar soniga bo'linadi

71. Mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichini aniqlash tartibi

A) jami kishi-soat, jami kishi-kuni jami mahsulot miqdoriga bo'linadi

B) ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori ekin maydoniga bo'linadi

D) jami kishi-soat (kishi kun)lari xodimlar soniga bo'linadi

E) ishlab chiqarilgan jami mahsulot miqdorini jami kishi-soat (kishi kun)lariga bo'linadi

72. Mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichi formulasi

A) $V = \frac{Q}{T}$

B) $V = \frac{YaH}{M}$

D) $V = \frac{T}{Q}$

E) $V = Q \cdot T$

73. Mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichi formulasi

A) $V = \frac{T}{Q}$

B) $V = \frac{Q}{T}$

D) $V = Q \cdot T$

E) $V = \frac{YaH}{M}$

74. Bir gektar ekin maydoni hisobiga to'g'ri keladigan mehnat sarfi qanday aniqlanadi?

A) jami mehnat sarfi ekin maydoniga bo'linadi

B) jami ekin maydoni jami mehnat sarfiga bo'linadi

D) bir gektar ekin maydoni hisobiga olingan hosil mehnat sarfiga bo'linadi

E) jami mehnat sarfi ekin maydoniga ko'paytiriladi

75. Sarflangan mehnatning soni va sifati asosida xodimlar ixtiyorida qoladigan milliy daromadning bir qismi nima?

A) mehnat haqi

B) samaradorlik

D) daromad

E) investisiya

MUSTAQIL TA'LIM BO'YICHA

76. Mehnat haqining qanday shakllari mavjud?

- A) ishbay va vaqtbay
- B) oddiy va murakkab
- D) asosiy va qo'shimcha
- E) moddiy naf va rag'batlantirish

77. Mehnatga haq to'lashning qanday turlari mavjud?

- A) asosiy va qo'shimcha
- B) ishbay va vaqtbay
- D) oddiy va murakkab
- E) moddiy naf va rag'batlantirish

78. Asosiy mehnat haqiga to'g'ri ta'rif berilgan javobni ko'rsating

A) korxona xodimlarining ishlagan vaqti uchun ish beruvchi tomonidan berilgan haqdir

B) xodimlarning ishlamagan vaqti uchun amaldagi qonun-qoidalarga muvofiq to'lanadigan haq

D) xodimning ishlagan vaqti va malakasiga qarab to'lanadigan haq

E) ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va sifatiga muvofiq to'lanadigan haq

79. Mehnatga haq to'lashni tashkil etishda rasmiylashtiriladigan asosiy dastlabki hujjatni ko'rsating

A) ish vaqtini hisobga olish tabeli

B) to'lov qaydnomasi

D) to'lov talabnoma

E) chek

80. Mehnat Kodeksiga muvofiq ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladigan yosh necha yosh deb belgilangan?

A) o'n olti yoshdan

B) o'n sakkiz yoshdan

D) yosh ahamiyatsiz

E) o'n to'rt yoshdan

81. Mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan materiallar qiymatlarining yig'indisi deganda nima tushuniladi?

A) moddiy resurslar

B) asosiy vositalar

D) nomoddiy aktivlar

E) xo'jalik mablag'lari

82. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari

A) materiallar qaytimi, materiallar sig'imi, materiallar rentabelligi

B) fond qaytimi, fond sig'imi, fond rentabelligi

D) daromad, xarajat, foyda, zarar

E) bevosita va bilvosita ko'rsatkichlar

83. Bir so'mlik moddiy xarajatlar hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi deganda nima tushuniladi?

- A) materiallar qaytimi (MQ)
- B) materiallar sig'imi (MS)
- D) materiallar rentabelligi (MR)
- E) moddiy resurslar xarajati koeffitsiyenti (MX)

84. Materiallar qaytimi (MQ) ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

- A) $MQ = \frac{YaM}{MX}$
- B) $MQ = \frac{MX}{MX}$
- D) $MQ = \frac{YaM}{YaF}$
- E) $MQ = YaM \cdot MX$

85. Bir so'mlik ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlar summasi nimani ifodalaydi?

- A) materiallar sig'imi (MS)
- B) moddiy resurslar xarajati koeffitsiyenti (MX)
- D) materiallar rentabelligi (MR)
- E) materiallar qaytimi (MQ)

86. Materiallar sig'imi (MS) ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

- A) $MS = \frac{MX}{YaM}$
- B) $MS = \frac{MX}{YaF}$
- D) $MS = \frac{MX}{YaM}$
- E) $MS = MX \cdot YaM$

87. Sarf bo'lgan moddiy xarajatlarning har bir so'mi hisobiga olingan foyda summasi nimani bildiradi?

- A) materiallar rentabelligi (MR)
- B) materiallar qaytimi (MQ)
- D) moddiy resurslar xarajati koeffitsiyenti (MX)
- E) materiallar sig'imi (MS)

88. Materiallar rentabelligi (MR) ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

- A) $MR = \frac{YaF}{MX}$
- B) $MR = \frac{YaF}{YaM}$
- D) $MR = \frac{YaM}{MX}$
- E) $MR = YaF \cdot MX$

89. Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmini shu mahsulot uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlar hajmiga bo'lish orqali aniqlanadigan ko'rsatkich

- A) materiallar qaytimi
- B) materiallar rentabelligi
- D) materiallar sig'imi
- E) sarflangan moddiy resurslarning tannarxi

90. Materiallar qaytimi umumiy o'zgarishini aniqlash formulasini ko'rsating

- A) $\frac{YaM_1}{MX_1} - \frac{YaM_0}{MX_0} = \pm \Delta_{YaM, MX}$
- B) $\frac{MX_1}{YaM_1} - \frac{YaM_0}{MX_0} = \pm \Delta_{YaM, MX}$

$$D) \frac{MX_1}{YaM_1} - \frac{MX_0}{YaM_0} = \pm \Delta_{YaM, MX}$$

$$E) \frac{YaM_1}{MX_1} - \frac{MX_0}{YaM_0} = \pm \Delta_{YaM, MX}$$

91. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlar summasini yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmiga bo'lish orqali aniqlanadigan ko'rsatkich

- A) materiallar sig'imi
- B) sarflangan moddiy resurslarning tannarxi
- D) materiallar qaytimi
- E) materiallar rentabelligi

92. Materiallar sig'imi umumiy o'zgarishini aniqlash formulasini ko'rsating

$$A) \frac{MX_1}{YaM_1} - \frac{MX_0}{YaM_0} = \pm \Delta_{MX, YaM}$$

$$B) \frac{YaM_1}{MX_1} - \frac{MX_0}{YaM_0} = \pm \Delta_{MX, YaM}$$

$$D) \frac{MX_1}{YaM_1} - \frac{YaM_0}{MX_0} = \pm \Delta_{MX, YaM}$$

$$E) \frac{YaM_1}{MX_1} - \frac{MX_0}{YaM_0} = \pm \Delta_{MX, YaM}$$

93. Mahsulot sotishdan olingan foyda summasini sarf bo'lgan moddiy resurslarning jami summasiga bo'lish orqali aniqlanadigan ko'rsatkich

- A) materiallar rentabelligi
- B) materiallar sig'imi
- D) sarflangan moddiy resurslarning tannarxi
- E) materiallar qaytimi

94. Materiallar rentabelligi umumiy o'zgarishini aniqlash formulasini ko'rsating

$$A) \frac{YaF_1}{MX_1} - \frac{YaF_0}{MX_0} = \pm \Delta_{YaF, MX}$$

$$B) \frac{YaF_1}{MX_1} - \frac{YaF_0}{MX_0} = \pm \Delta_{YaF, MX}$$

$$D) \frac{MX_1}{YaF_1} - \frac{MX_0}{YaF_0} = \pm \Delta_{MX, YaF}$$

$$E) \frac{YaF_1}{MX_1} - \frac{MX_0}{YaF_0} = \pm \Delta_{MX, YaF}$$

95. Uzoq davom etadigan vaqt mobaynida moddiy ishlab chiqarish sohasida ham, noishlab chiqarish sohasida ham amal qilinadigan, shuningdek ijaraga berish uchun foydalanadigan moddiy aktivlar

- A) asosiy vositalar deyiladi
- B) korxona kapitali deyiladi
- D) joriy aktivlar deyiladi
- E) debitorlik qarzlari deyiladi

96. Asosiy vositalar tarkibini ko'rsating

- A) bino, inshoot, transport vositalari, mahsuldor hayvon, mebel jihozlari
- B) tovar-moddiy zahiralari, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari
- D) ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zahira kapitali
- E) patent, gudvill, nou-xau, franchayza

97. Xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti

- A) bir yoki yuz gektar hisobiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish vositalari hajmini ifodalaydi
- B) bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan asosiy fondlar hajmini ifodalaydi

D) bir gektar hisobiga to'g'ri keladigan energetik resurslar quvvatini ifodalaydi
E) bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan energetik resurslar hajmini ifodalaydi

98.Xo'jalikning energetik resurslar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti

A) bir gektar hisobiga to'g'ri keladigan energetik resurslar quvvatini ifodalaydi

B) bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan energetik resurslar hajmini ifodalaydi

D) bir yoki yuz gektar hisobiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish

vositalari hajmini ifodalaydi

E) bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan asosiy fondlar hajmini ifodalaydi

99.Mehnatning fondlar bilan qurollanish koeffitsiyenti

A) bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan asosiy fondlar hajmini ifodalaydi

B) bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan energetik resurslar hajmini ifodalaydi

D) bir gektar hisobiga to'g'ri keladigan energetik resurslar quvvatini ifodalaydi

E) bir yoki yuz gektar hisobiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish

vositalari hajmini ifodalaydi

100. Mehnatning energetik resurslar bilan qurollanish koeffitsiyenti

A) bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan energetik resurslar hajmini ifodalaydi

B) bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan asosiy fondlar hajmini ifodalaydi

D) bir yoki yuz gektar hisobiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish

vositalari hajmini ifodalaydi

E) bir gektar hisobiga to'g'ri keladigan energetik resurslar quvvatini ifodalaydi

101.Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorlik

ko'rsatkichlari

A) fond qaytimi, fond sig'imi, fond rentabelligi

B) bevosita va bilvosita ko'rsatkichlar

D) daromad, xarajat, foyda, zarar

E) materiallar qaytimi, materiallar sig'imi, materiallar rentabelligi

102.Fond qaytimi (FQ) ko'rsatkichi nimani ifodalaydi?

A) bir so'mlik asosiy fondlar hajmi hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot

hajmini

B) bir so'mlik yalpi mahsulot hajmiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish

fondlari summasini

D) bir so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondlari hisobiga olingan sof foyda

summasini

E) bir gektar hisobiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish vositalari hajmini

103.Fond qaytimi (FQ) ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) $FQ = \frac{YaM}{AIF}$

B) $FQ = \frac{AIF}{YaM}$

D) $FQ = \frac{SF}{AIF}$

E) $FQ = \frac{AIF}{M}$

104. Yalpi mahsulot hajmini (YaM) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga (AIF) bo'lish orqali aniqlanadigan ko'rsatkich

- A) fond qaytimi
- B) fond sig'imi
- D) mehnatning fondlar bilan qurollanish koeffitsiyenti
- E) fond rentabelligi

105. Fond qaytimi (FQ) umumiy o'zgarishini aniqlash formulasini ko'rsating

- A) $FQ = \frac{YaM_1}{AIF_1} - \frac{YaM_0}{AIF_0} = \pm \Delta_{YaM, AIF}$
- B) $FQ = \frac{YaM_1}{AIF_1} - \frac{YaM_0}{AIF_1} = \pm \Delta_{YaM, AIF}$
- D) $FQ = \frac{AIF_1}{YaM_1} - \frac{AIF_0}{YaM_0} = \pm \Delta_{AIF, YaM}$
- E) $FQ = \frac{AIF_1}{YaM_1} - \frac{YaM_0}{AIF_0} = \pm \Delta_{AIF, YaM}$

106. Omillar ta'sirlarining yig'indisi fond qaytimi ko'rsatkichining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak – ushbu qaysi formula bilan ifodalanadi?

- A) $FQ = \Delta_{YaM} + \Delta_{AIF} = \pm \Delta_{YaM, AIF}$
- B) $FQ = \Delta_{SF} + \Delta_{AIF} = \pm \Delta_{SF, AIF}$
- D) $FS = \Delta_{AIF} + \Delta_{YaM} = \pm \Delta_{AIF, YaM}$
- E) $FQ = \Delta_{YaM} \div \Delta_{AIF} = \pm \Delta_{YaM, AIF}$

107. Fond sig'imi (FS) ko'rsatkichi nimani ifodalaydi?

- A) bir so'mlik yalpi mahsulot hajmiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari summasini
- B) bir so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondlari hisobiga olingan sof foyda summasini
- D) bir gektar hisobiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish vositalari hajmini
- E) bir so'mlik asosiy fondlar hajmi hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmini

108. Fond sig'imi (FS) ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

- A) $FS = \frac{AIF}{YaM}$
- B) $FS = \frac{AIF}{M}$
- D) $FS = \frac{SF}{AIF}$
- E) $FS = \frac{YaM}{AIF}$

109. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatini (AIF) yalpi mahsulot hajmiga (YaM) bo'lish orqali aniqlanadigan ko'rsatkich

- A) fond sig'imi
- B) fond qaytimi
- D) mehnatning fondlar bilan qurollanish koeffitsiyenti
- E) fond rentabelligi

110. Fond sig'imi (FS) umumiy o'zgarishini aniqlash formulasini ko'rsating

- A) $FS = \frac{AIF_1}{YaM_1} - \frac{AIF_0}{YaM_0} = \pm \Delta_{AIF, YaM}$
- B) $FS = \frac{YaM_1}{AIF_1} - \frac{YaM_0}{AIF_0} = \pm \Delta_{AIF, YaM}$
- D) $FS = \frac{AIF_1}{YaM_1} - \frac{YaM_0}{AIF_0} = \pm \Delta_{AIF, YaM}$

$$E) FS = \frac{AIF_1}{Y_{aM}} - \frac{AIF_0}{Y_{aM}} = \pm \Delta_{AIF, Y_{aM}}$$

111. Omillar ta'sirlarining yig'indisi fond sig'imi ko'rsatkichining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak – ushbu qaysi formula bilan ifodalanadi?

$$A) FS = \Delta_{AIF} + \Delta_{Y_{aM}} = \pm \Delta_{AIF, Y_{aM}}$$

$$B) FS = \Delta_{Y_{aM}} - \Delta_{AIF} = \pm \Delta_{Y_{aM}, AIF}$$

$$D) FS = \Delta_{SF} + \Delta_{AIF} = \pm \Delta_{SF, AIF}$$

$$E) FS = \Delta_{AIF} \div \Delta_{Y_{aM}} = \pm \Delta_{AIF, Y_{aM}}$$

112. Fond rentabelligi (FR) ko'rsatkichi nimani ifodalaydi?

A) bir so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondlari hisobiga olingan sof foyda summasini

B) bir gektar hisobiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish vositalari hajmini

D) bir so'mlik asosiy fondlar hajmi hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmini

E) bir so'mlik yalpi mahsulot hajmiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari summasini

113. Fond rentabelligi (FR) ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

$$A) FR = \frac{SF}{AIF}$$

$$B) FR = \frac{AIF}{Y_{aM}}$$

$$D) FR = \frac{Y_{aM}}{AIF}$$

$$E) FR = \frac{AIF}{SF}$$

114. Sof foydani (SF) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik hajmiga (AIF) bo'lish orqali aniqlanadigan ko'rsatkich

A) fond rentabelligi

B) fond sig'imi

D) fond qaytimi

E) mehnatning fondlar bilan qurollanish koeffitsiyenti

115. Fond rentabelligi (FR) umumiy o'zgarishini aniqlash formulasini ko'rsating

$$A) FR = \frac{SF_1}{AIF_1} - \frac{SF_0}{AIF_0} = \pm \Delta_{SF, AIF}$$

$$B) FR = \frac{AIF_1}{SF_1} - \frac{AIF_0}{SF_0} = \pm \Delta_{AIF, SF}$$

$$D) FR = \frac{SF_1}{AIF_1} - \frac{SF_0}{AIF_1} = \pm \Delta_{SF, AIF}$$

$$E) FR = \frac{AIF_1}{SF_1} - \frac{AIF_0}{SF_0} = \pm \Delta_{AIF, SF}$$

116. Omillar ta'sirlarining yig'indisi fond rentabelligi ko'rsatkichining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak – ushbu qaysi formula bilan ifodalanadi?

$$A) FR = \Delta_{SF} + \Delta_{AIF} = \pm \Delta_{SF, AIF}$$

$$B) FR = \Delta_{SF} \div \Delta_{AIF} = \pm \Delta_{SF, AIF}$$

$$D) FR = \Delta_{Y_{aM}} + \Delta_{AIF} = \pm \Delta_{Y_{aM}, AIF}$$

$$E) FR = \Delta_{SF} \cdot \Delta_{AIF} = \pm \Delta_{SF, AIF}$$

117. Mahsulot tannarxi deb nimaga aytiladi?

A) mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarning puldagi ifodasiga

- B) xarajatlarni moddalariga ko'ra guruhlanishiga
 - D) xarajatlarni turlariga ko'ra guruhlanishiga
 - E) ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini aniqlash hisob–kitobi
118. Mahsulot tannarxi qanday aniqlanadi?

- A) jami xarajat mahsulot miqdoriga bo'linadi
- B) jami xarajat mahsulot miqdoriga ko'paytiriladi
- D) jami daromad mahsulot miqdoriga bo'linadi
- E) daromaddan xarajatlar ayriladi

119. Mahsulot tannarxini aniqlash formulasini ko'rsating

- A) $Z = \frac{IX}{H}$
- B) $Z = \frac{H}{IX}$
- D) $Z = IX \cdot H$
- E) $Z = IX - H$

120. Mahsulot tannarxining o'zgarishiga bevosita ta'sir etuvchi omillar

- A) ishlab chiqarish xarajatlari, hosildorlik
- B) mahsulot miqdori, sotish bahosi
- D) hosildorlik, tannarx
- E) xarajat, daromad

121. Mahsulot tannarxining umumiy o'zgarishini aniqlash formulasini ko'rsating

- A) $Z = \frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_0}{H_0} = \pm \Delta_{IX,H}$
- B) $Z = \frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_1}{H_0} = \pm \Delta_{IX,H}$
- D) $Z = \frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_0}{H_0} = \pm \Delta_{IX,H}$
- E) $Z = \frac{H_1}{IX_1} - \frac{H_0}{IX_0} = \pm \Delta_{IX,H}$

122. Korrektura usuli hisob registrilarida qanday xatolarni tuzatishda qo'llaniladi?

- A) ma'lumotlar hisobot davri uchun jamlangunga qadar topilgan xatolarni tuzatishda
- B) schyotlar aloqasida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishda
- D) schyotlar aloqasi to'g'ri tuzilgan, lekin summasi kam qilib yozilgan paytda xatoni tuzatishda
- E) bir necha marta bir xil yozilgan yozuvlarni tuzatishda

123. Kalkulyatsiya nima?

- A) ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini aniqlash hisob–kitobi
- B) aktivlar, kapital va majburiyatlarni pul o'lchov birligida aks ettirish usuli
- D) xo'jalik operatsiyalarni bir schyotning debetida, ikkinchi bir schyotning kreditida aks ettirish usuli
- E) korxonaning ma'lum bir davrdagi faoliyatini aks ettiruvchi jadvallar yig'indisi

124. Tannarxi aniqlanadigan mahsulotga nima deyiladi?

- A) kalkulyatsiya ob'yekti
- B) xarajat elementlari
- D) ishlab chiqarish xarajatlari

E) xarajat moddalari

125. Kalkulyasiya birligi nima?

A) kalkulyasiyalash ob'jektining o'lchovi

B) xarajatlarni turlariga ko'ra guruhlanishi

D) mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarning puldagi ifodasi

E) tannarxni aniqlash usuli

126. Tannarxga kiritilmaydigan xarajatlar

A) sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, rahbar mehnat haqi

B) amortizasiya, mehnat haqi, material xarajatlari, ish va xizmat

D) foizlarni to'lash bo'yicha xarajatlar, xorijiy valyuta kurslardagi salbiy farqlar

E) ishlab chiqarish ahamiyatiga kirmaydigan xarajatlar, favqulodda zararlar

127. Bir gektar ekin maydoni hisobiga to'g'ri keladigan xarajatlar summasi qanday aniqlanadi?

A) jami xarajatlar hajmi ekin maydoniga bo'linadi

B) jami ekin maydoni jami xarajatlar hajmiga bo'linadi

D) yalpi hosil ekin maydoniga bo'linadi

E) jami xarajatlar ekin maydoniga ko'paytiriladi

128. Bir bosh qoramol hisobiga to'g'ri keladigan xarajatlar summasi qanday aniqlanadi?

A) jami xarajatlar hajmi qoramollar bosh soniga bo'linadi

B) jami xarajatlar hajmi yaylovzorlar maydoniga bo'linadi

D) yalpi mahsulot miqdori qoramollar bosh soniga bo'linadi

E) jami xarajatlar qoramollar bosh soniga ko'paytiriladi

129. Bir sentner paxta tannarxi summasi qanday aniqlanadi?

A) jami paxtachilikga qilingan xarajatlar jami mahsulot miqdoriga bo'linadi

B) jami paxtachilikga qilingan xarajatlar jami mahsulot miqdoridan ayriladi

D) xo'jalik bo'yicha qilingan jami xarajatlar mahsulot miqdoriga bo'linadi

E) jami paxtachilikga qilingan xarajatlar mahsulot miqdoriga ko'paytiriladi

130. Bir sentner sut tannarxi summasi qanday aniqlanadi?

A) bir bosh sog'in sigirga sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari hajmi mahsuldorlikka bo'linadi

B) bir bosh sog'in sigirga sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari hajmi mahsuldorlikka ko'paytiriladi

D) yalpi sut miqdori sog'in sigirlar bosh soniga bo'linadi

E) bir bosh sog'in sigirga sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari hajmidan mahsuldorlik ayriladi

131. Hujjatlar operatsiyalarni qamrab olish usuliga qarab qanday turlarga bo'linadi?

A) bir martalik va ko'p martalik

B) oddiy va murakkab

D) dastlabki va yig'ma

E) farmoyish, isbotlovchi, buxgalteriya rasmiylashtiruvchi, aralash

132. Dastlabki hisob deb nimaga aytiladi?

- A) ma'lumotlarni idrok etish va ularni hujjatlarga yozib qo'yishga
- B) dastlabki hujjatlar asosida sodir etilgan jarayonlarga
- D) schyotlarda aks ettirish usuliga
- E) sodir bo'lib o'tgan operatsiyalarni qayd etishga

133. Kassadan pul berilganda yoki kassaga qabul qilinganda qanday hujjat rasmiylashtiriladi?

- A) kassa kirim va chiqim orderi
- B) kassa daftari
- D) to'lov vedomosti
182. Ishchi kuchi yordamida aktivlardan foydalanib, mahsulot ishlab chiqarish yoki ish va xizmatlar bajarish qaysi xo'jalik jarayonida amalga oshiriladi?

- A) ishlab chiqarish jarayonida
- B) ta'minot jarayonida
- D) sotish jarayonida
- E) barcha xo'jalik jarayonlarida

183. Sotish jarayonida qanday ishlar amalga oshiriladi?

A) mahsulot (ish, xizmat) sotiladi va pulga aylantirilib, kelgusi jarayonni boshlash uchun sharoit yaratiladi

B) ishchi kuchi yordamida aktivlardan foydalanib, mahsulot ishlab chiqariladi yoki ish va xizmatlar bajariladi

D) mol yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuziladi

E) ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'lgan aktivlar, shu jumladan, asosiy va aylanma aktivlar sotib olinadi

184. Tovar-moddiy zahiralari qaysi BHMA bilan tatibga solinadi?

- A) BHMA 4-son
- B) BHMA 1-son
- D) BHMA 3-son

E) BHMA 5-son

185. Ishlab chiqarish jarayonida qaysi schyotlar ko‘p ishlatiladi?

A) 2010, 2810

B) 6010, 6710

D) 0110, 5010

E) 2510, 2310

186. Xo‘jalik jarayonining oxirgi jarayoni qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) sotish

B) ishlab chiqarish

D) ta‘minot

E) nazorat

187. Sotish jarayonida qaysi schyotlar ko‘p ishlatiladi?

A) 9010, 9110, 4010, 9210

B) 2010, 2310, 2510, 2810

D) 0100, 1010, 5110, 6010

E) 4010, 2010, 9610, 8710

188. Hisob registrlari deb nimaga aytiladi?

A) hisob yozuvlarini olib borishga mo‘ljallangan maxsus grafalangan qog‘ozlarga

B) xo‘jalik operatsiyalarni bir schyotning debetida, ikkinchi bir schyotning kreditida aks ettirish usuliga

D) o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan hisob registrlari hamda ularda yozuvlarni olib borish tartibiga

E) xo‘jalikning ma‘lum bir davrdagi faoliyati, yakuniy ko‘rsatkichlarni aks ettiruvchi jadvallar yig‘indisiga

189. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunning nechanchi moddasi hisob registrlari deb nomlangan?

A) 15-modda

B) 16-modda

D) 14-modda

E) 12-modda

190. Hisob registrlari mazmunning hajmiga qarab qanday turlarga bo‘linadi?

A) sintetik va analitik

B) buxgalteriya daftarlari, kartochkalar, vedomostlar

D) xronologik va sistematik

E) bir tomonlama, ikki tomonlama, ko‘p grafali, chiziqli, shaxmatli

191. Hisob registrlari tashqi ko‘rinishiga qarab qanday turlarga bo‘linadi?

A) buxgalteriya daftarlari, kartochkalar, vedomostlar

B) sintetik va analitik

D) xronologik va sistematik

E) bir tomonlama, ikki tomonlama, ko‘p grafali, chiziqli, shaxmatli

192. Hisob registrlari yozuvlarning harakteriga qarab qanday turlarga bo‘linadi?

A) xronologik va sistematik

B) buxgalteriya daftarlari, kartochkalar, vedomostlar

D) sintetik va analitik

E) bir tomonlama, ikki tomonlama, ko'p grafali, chiziqli, shaxmatli

193. Hisob registrlari axborotlar hajmiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

A) sintetik, analitik, birlashtiruvchi

B) xronologik va sistematik

D) bir tomonlama, ikki tomonlama, ko'p grafali, chiziqli, shaxmatli

E) buxgalteriya daftarlari, kartochkalar, vedomostlar

194. Hisob registrlari tuzilish shakliga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

A) bir tomonlama, ikki tomonlama, ko'p grafal, chiziqli, shaxmatli

B) sintetik, analitik, birlashtiruvchi

D) buxgalteriya daftarlari, kartochkalar, vedomostlar

E) xronologik va sistematik

195. Xronologik registrlar deb nimaga aytiladi?

A) xo'jalik muomalalarini ularning sodir bo'lishiga qarab yozib boriladigan registrlarga

B) o'zaro bir-biri bilan bog'langan hisob registrlari hamda ularda yozuvlarni olib borish tartibiga

D) xo'jalik muomalalarining bir xil guruhlariga buxgalteriya hisobi schyotlari bo'yicha yoziladigan registrlarga

E) bir-biriga biriktirilgan va muqovalangan qog'oz varaq'larga

196. Xo'jalik muomalalarining bir xil guruhlariga buxgalteriya hisobi schyotlari bo'yicha yoziladigan registrlarga deb nimaga aytiladi?

A) sistematik registrlar

B) xronologik registrlar

D) ko'p grafali

E) bir-biriga biriktirilgan

197. Kartoteka nima?

A) kartochkalar saqlanadigan maxsus quticha

B) hujjatlar aylanish grafigi

D) hisob registri shakli

E) hujjatlar to'plami

198. Xo'jalik muomalalarini hisob registrlariga yozish nima deb ataladi?

A) qayd qilish

B) ikkiyoqlama yozuv

D) buxgalteriya daftari

E) provodka

199. Hisob registrlarida xatolarni tuzatishning qanday usullari mavjud?

A) korrektura usuli, qizil storno usuli, qo'shimcha yozuv usuli

B) ekspert usuli, umumiy usul, xususiy usul

D) yillar yig'indisi usuli, qayta hisoblash usuli

E) oddiy usul, murakkab usul

200. Omillar ta'sirlarining yig'indisi 1 s. mahsulot tannarxining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak – ushbu qaysi formula bilan ifodalanadi?

A) $\Delta_{IX} + \Delta_H = \pm \Delta_{IX,H}$

B) $\Delta_{IX} - \Delta_H = \pm \Delta_{IX,H}$

D) $\Delta_{IX} \cdot \Delta_H = \pm \Delta_{IX,H}$

E) $\Delta_{IX} \div \Delta_H = \pm \Delta_{IX,H}$

201. Xarajat elementlari deb nimaga aytiladi?

A) xarajatlarni iqtisodiy mohiyatiga ko'ra guruhlanishiga

B) xarajatlarni turlariga ko'ra guruhlanishiga

D) ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq xarajatlarga

E) xarajatlarni moddalariga ko'ra guruhlanishiga

202. Xarajat moddalari deb nimaga aytiladi?

A) xarajatlarni turlariga ko'ra guruhlanishiga

B) xarajatlarni iqtisodiy mohiyatiga ko'ra guruhlanishiga

D) xarajatlarni moddalariga ko'ra guruhlanishiga

E) ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq xarajatlarga

203. Sotilgan mahsulotlar hajmi nima orqali ifodalanadi?

A) pul tushumi

B) xarajat

D) moliyaviy natija

E) sof foyda

204. Hisobot yilida ishlab chiqarilib to'liq sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga qaysi omillar bevosita ta'sir qiladi?

A) mahsulot miqdori, tovarlik darajasi

B) mahsulot miqdori, sotish bahosi

D) mahsulot tannarxi, sotish bahosi

E) xarajatlar, daromadlar

205. Mahsulotning tovarlilik darajasi qanday aniqlanadi?

A) sotilgan mahsulot miqdori yetishtirilgan mahsulot miqdoriga bo'linadi

B) sotilgan mahsulot miqdori yetishtirilgan mahsulot miqdoriga ko'paytiriladi

D) yetishtirilgan mahsulot miqdori sotish bahosiga ko'paytiriladi

E) yetishtirilgan mahsulot miqdori sotilgan mahsulot miqdoriga bo'linadi

206. Sof pul tushumi qanday aniqlanadi

A) sotilgan mahsulot miqdori o'rtacha sotish bahosiga ko'paytiriladi

B) sotilgan mahsulot miqdori yetishtirilgan mahsulot miqdoriga bo'linadi

D) sotilgan mahsulot miqdori o'rtacha sotish bahosiga qo'shiladi

E) sotilgan mahsulot miqdori o'rtacha sotish bahosiga bo'linadi

207. Sof pul tushumining umumiy o'zgarishini aniqlash formulasi

A) $q_1 \cdot p_1 - q_0 \cdot p_0 = \pm \Delta_{qp}$

B) $(q_1 \cdot p_1) \cdot p_0 = \pm \Delta_{qp}$

D) $q_1 \cdot p_1 - q_1 \cdot p_0 = \pm \Delta_{qp}$

E) $q_1 \cdot p_1 + q_0 \cdot p_0 = \pm \Delta_{qp}$

208. Sof pul tushumining o'zgarishiga ta'sir etuvchi sifatliy omil

A) o'rtacha sotish bahosi

B) mahsulot tannarxi

D) mahsulot miqdori

E) daromad

209. Sof pul tushumining o'zgarishiga ta'sir etuvchi miqdoriy omil

A) sotilgan mahsulot miqdori

B) ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori

D) mahsulot tannarxi

E) o'rtacha sotish bahosi

210. Sof pul tushumiga sotilgan mahsulot miqdori o'zgarishining ta'sirini

“Ko'rsatkichlar farqi” usulida aniqlash tartibi

A) $(q_1 - q_0) \cdot p_0 = \pm \Delta_q$

B) $(q_1 \cdot p_1) + q_0 = \pm \Delta_q$

D) $(q_1 - p_1) + p_0 = \pm \Delta_q$

E) $(q_1 + q_0) \cdot p_0 = \pm \Delta_q$

211. Sof pul tushumiga o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'sirini

“Ko'rsatkichlar farqi” usulida aniqlash tartibi

A) $(p_1 - p_0) \cdot q_1 = \pm \Delta_p$

B) $(p_1 + p_0) \cdot q_1 = \pm \Delta_p$

D) $(q_1 - q_0) \cdot p_0 = \pm \Delta_q$

E) $(p_1 \cdot p_0) + q_1 = \pm \Delta_p$

212. Omillar ta'sirlarining yig'indisi sof pul tushumining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak – ushbu qaysi formula bilan ifodalanadi?

A) $\Delta_q + \Delta_p = \pm \Delta_{qp}$

B) $\Delta_q - \Delta_p = \pm \Delta_{qp}$

D) $\Delta_q \cdot \Delta_p = \pm \Delta_{qp}$

E) $\Delta_q \div \Delta_p = \pm \Delta_{qp}$

213. Korxonaning yil davomidagi faoliyati natijasida olgan foydasi yoki ko'rgan zarari

A) moliyaviy natija

B) taqsimlanmagan foyda

D) sof foyda

E) davr xarajatlari

214. Mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq xarajatlar nima deb ataladi?

A) ishlab chiqarish xarajatlari

B) mahsulot tannarxi

D) davr xarajatlari

E) umumishlab chiqarish xarajatlari

215. «Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom» qachon qabul qilingan?

A) 1999 yil 5 fevral

- B) 1999 yil 25 may
- D) 1996 yil 30 avgust
- E) 1998 yil 30 aprel

216. Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga ko'ra xarajatlar necha guruhga bo'linadi?

- A) to'rt
- B) olti
- D) besh
- E) yetti

217. Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga ko'ra moliyaviy natijaning foyda ko'rsatkichi necha turga bo'linadi?

- A) 5
- B) 4
- D) 6
- E) 3

218. Davr xarajatlari tarkibiga qaysi xarajatlar kiritiladi?

A) sotish xarajatlari, ma'muriy-boshqaruv xarajatlari, boshqa muomala xarajatlari

- B) mehnat haqi xarajatlari, ijtimoiy sug'urta ajratmalari
- D) moddiy xarajatlar, asosiy vositalar amortizasiyasi
- E) bevosita va bilvosita xarajatlar

219. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlang?

- A) foyda, zarar
- B) foyda, mahsulot rentabelligi
- D) foyda, sof pul tushumi
- E) foyda, jami pul tushumi

220. Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga ko'ra mahsulot sotishdan olingan yalpi foydani aniqlash tartibi

- A) $Y_{aF} = MST - IX$
- B) $Y_{aF} = MST + IX$
- D) $Y_{aF} = MST \div IX$
- E) $Y_{aF} = MST \cdot IX$

221. Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga ko'ra asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan foydani aniqlash tartibi

- A) $AFF = Y_{aF} - DX + AFBD - AFBX$
- B) $AFF = Y_{aF} - DX - AFBD - AFBX$
- D) $AFF = Y_{aF} + DX + AFBD - AFBX$
- E) $AFF = Y_{aF} + DX - AFBD + AFBX$

222. Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga ko'ra umumxo'jalik faoliyatidan olingan foydani aniqlash tartibi

- A) $UXF = AFF + MD - MX$
- B) $UXF = AFF - MD - MX$
- D) $UXF = AFF - MD + MX$

E) $UXF = AFF + MD + MX$

223. Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga ko'ra soliqlar to'langunga qadar bo'lgan foydani aniqlash tartibi

A) $STF = UXF + FF - FZ$

B) $STF = UXF + FF + FZ$

D) $STF = UXF - FF + FZ$

E) $STF = UXF - FF - FZ$

224. Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga ko'ra sof foydani aniqlash tartibi

A) $SF = STF - FS - BST$

B) $SF = STF + FS - BST$

D) $SF = STF + FS + BST$

E) $SF = STF - FS + BST$

225. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar

A) mahsulot miqdori, o'rtacha sotish bahosi, mahsulot tannarxi

B) mahsulot miqdori, o'rtacha sotish bahosi

D) mahsulot miqdori, xarajat, daromad

E) mahsulot miqdori, mahsulot tannarxi

226. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning umumiy o'zgarishini aniqlash tartibi

A) $(q_1 \cdot p_1 - q_1 \cdot z_1) - (q_0 \cdot p_0 - q_0 \cdot z_0) = \pm \Delta_{qpz}$

B) $(q_1 \cdot p_1 - q_1 \cdot z_1) + (q_0 \cdot p_0 - q_0 \cdot z_0) = \pm \Delta_{qpz}$

D) $(q_1 \cdot p_1 - q_1 \cdot z_1) - (q_1 \cdot p_1 - q_0 \cdot z_0) = \pm \Delta_{qpz}$

E) $(q_1 \cdot p_1 - q_0 \cdot z_0) - (q_0 \cdot p_0 - q_0 \cdot z_0) = \pm \Delta_{qpz}$

227. Omillar ta'sirlarining yig'indisi qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak – ushbu qaysi formula bilan ifodalanadi?

A) $\Delta_q + \Delta_p + \Delta_z = \pm \Delta_{qpz}$

B) $\Delta_q + \Delta_p - \Delta_z = \pm \Delta_{qpz}$

D) $\Delta_q - \Delta_p + \Delta_z = \pm \Delta_{qpz}$

E) $\Delta_q - \Delta_p - \Delta_z = \pm \Delta_{qpz}$

228. Rentabellik deganda nima tushuniladi?

A) korxonaning foydalilik, daromadlilik darajasi tushuniladi

B) korxonaning zararlilik va daromadlilik darajasi tushuniladi

D) korxonaning moliyaviy natijasi tushuniladi

E) korxonaning zararlilik va daromadlilik darajasi tushuniladi

229. Rentabellik ko'rsatkichi nimani ifodalaydi?

A) ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan olingan foyda hajmini

B) sotilgan mahsulotlarga nisbatan olingan foyda hajmini

D) qilingan xarajatlarga nisbatan olingan daromad hajmini

E) olingan foyda darajasining o'zgarishini

230. Rentabellik qanday ko'rsatkich hisoblanadi?

- A) samaradorlik ko'rsatkichi
- B) umumiy ko'rsatkich
- D) moliyaviy natija ko'rsatkichi
- E) iqtisodiy ko'rsatkich

231. Rentabellik ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

- A) $R = \frac{Y_{aF}}{IX} \cdot 100$
- B) $R = \frac{IX}{Y_{aF}} \cdot 100$
- D) $R = \frac{IX}{Y_{aF}} - 100$
- E) $R = \frac{Y_{aF} - IX}{100}$

232. Rentabellik ko'rsatkichlari necha turga ajratiladi?

- A) 5
- B) 4
- D) 3
- E) 2

233. Sotilgan mahsulotlar rentabelligini aniqlash tartibi

A) mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydani 100 ga ko'paytirib, sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatiga bo'lish kerak

B) soliq to'langunga qadar bo'lgan foydani 100 ga ko'paytirib, natijasini uzoq muddatli aktivlar bilan aylanma aktivlar summasining jamiga bo'lish kerak

D) mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydani sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatiga ko'paytirib, 100 ga bo'lish kerak

E) hisobot yilidagi sof foydani 100 ga ko'paytirib, ularning summasini xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish kerak

234. Asosiy vositalar rentabelligini aniqlash tartibi

A) hisobot davridagi sof foydani 100 ga ko'paytirib, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish kerak

B) soliq to'langunga qadar bo'lgan foydani 100 ga ko'paytirib, natijasini uzoq muddatli aktivlar bilan aylanma aktivlar summasining jamiga bo'lish kerak

D) hisobot davridagi sof foydani asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati ko'paytirib, 100 ga bo'lish kerak

E) mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydani 100 ga ko'paytirib, sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatiga bo'lish kerak

235. Xususiy kapital rentabelligini aniqlash tartibi

A) hisobot yilidagi sof foydani 100 ga ko'paytirib, ularning summasini xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish kerak

B) hisobot yilidagi sof foydani xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatiga ko'paytirib, 100 ga bo'lish kerak

D) hisobot yilidagi sof foydadan xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatini chagirib, 100 ga ko'paytirish kerak

E) hisobot davridagi sof foydani 100 ga ko'paytirib, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish kerak

236. Sotilgan mahsulotlar rentabelligining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar

- A) o'rtacha sotish bahosi, mahsulot tannarxi
- B) mahsulot miqdori, o'rtacha sotish bahosi
- D) mahsulot tannarxi, daromad
- E) mahsulot miqdori, mahsulot tannarxi

237. Sotilgan mahsulotlar rentabelligi qaysi formula bilan ifodalanadi?

- A) $R_{SM} = \frac{p-z}{z}$
- B) $R_{SM} = \frac{p+z}{z}$
- D) $R_{SM} = \frac{p+z}{p}$
- E) $R_{SM} = \frac{p \cdot z}{z}$

238. Rentabellik darajasini umumiy o'zgarishini aniqlash tartibi

- A) $\frac{p_1-z_1}{z_1} - \frac{p_0-z_0}{z_0} = \pm \Delta_{pz}$
- B) $\frac{p_1-z_1}{z_1} + \frac{p_0-z_0}{z_0} = \pm \Delta_{pz}$
- D) $\frac{p_1-z_1}{z_1} + \frac{p_0-z_0}{z_1} = \pm \Delta_{pz}$
- E) $\frac{p_1-z_0}{z_0} + \frac{p_0-z_0}{z_0} = \pm \Delta_{pz}$

239. Shartli rentabellik darajasini aniqlash formulasi

- A) $R_{sh} = \frac{p_1-z_0}{z_0}$
- B) $R_{sh} = \frac{p_1-z_1}{z_1}$
- D) $R_{sh} = \frac{p_0-z_0}{z_0}$
- E) $R_{sh} = \frac{p_0-z_1}{z_0}$

240. Sotilgan mahsulotlar rentabelligi darajasi o'zgarishiga o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'sirini "Zanjirli bog'lanish" usulida aniqlash tartibi

- A) $\frac{p_1-z_0}{z_0} - \frac{p_0-z_0}{z_0} = \pm \Delta_p$
- B) $\frac{p_1-z_1}{z_1} - \frac{p_0-z_0}{z_0} = \pm \Delta_p$
- D) $\frac{p_1-z_1}{z_1} - \frac{p_1-z_0}{z_0} = \pm \Delta_p$
- E) $\frac{p_1-z_0}{z_0} + \frac{p_0-z_1}{z_1} = \pm \Delta_p$

241. Sotilgan mahsulotlar rentabelligi darajasi o'zgarishiga mahsulot tannarxi o'zgarishining ta'sirini "Zanjirli bog'lanish" usulida aniqlash tartibi

- A) $\frac{p_1-z_1}{z_1} - \frac{p_1-z_0}{z_0} = \pm \Delta_p$
- B) $\frac{p_1-z_0}{z_0} - \frac{p_0-z_0}{z_0} = \pm \Delta_p$
- D) $\frac{p_1-z_0}{z_0} + \frac{p_0-z_1}{z_1} = \pm \Delta_p$
- E) $\frac{p_1-z_1}{z_1} - \frac{p_0-z_0}{z_0} = \pm \Delta_p$

243. Korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini moliyaviy hisobotlar asosida o'rganib, mavjud moliyaviy imkoniyatlarni aniqlash va moliyaviy holatni yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish usuli nima deb ataladi?

- A) moliyaviy tahlil
- B) boshqaruv tahlili
- D) moliyaviy hisobot

moliyaviy holat

244. Fond qaytimi (FQ) ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) $FQ = \frac{YaM}{AIF}$

B) $FQ = \frac{AIF}{YaM}$

D) $FQ = \frac{SF}{AIF}$

E) $FQ = \frac{AIF}{M}$

245. Fond qaytimi (FQ) umumiy o'zgarishini aniqlash formulasini ko'rsating

A) $FQ = \frac{YaM_1}{AIF_1} - \frac{YaM_0}{AIF_0} = \pm \Delta_{YaM,AIF}$

B) $FQ = \frac{YaM_1}{AIF_1} - \frac{YaM_0}{AIF_0} = \pm \Delta_{YaM,AIF}$

D) $FQ = \frac{AIF_1}{YaM_1} - \frac{AIF_0}{YaM_0} = \pm \Delta_{AIF,YaM}$

E) $FQ = \frac{AIF_1}{YaM_1} - \frac{AIF_0}{YaM_0} = \pm \Delta_{AIF,YaM}$

246. Omillar ta'sirlarining yig'indisi fond qaytimi ko'rsatkichining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak – ushbu qaysi formula bilan ifodalanadi?

A) $FQ = \Delta_{YaM} + \Delta_{AIF} = \pm \Delta_{YaM,AIF}$

B) $FQ = \Delta_{SF} + \Delta_{AIF} = \pm \Delta_{SF,AIF}$

D) $FS = \Delta_{AIF} + \Delta_{YaM} = \pm \Delta_{AIF,YaM}$

E) $FQ = \Delta_{YaM} \div \Delta_{AIF} = \pm \Delta_{YaM,AIF}$

247. Fond sig'imi (FS) ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) $FS = \frac{AIF}{YaM}$

B) $FS = \frac{AIF}{M}$

D) $FS = \frac{SF}{AIF}$

E) $FS = \frac{YaM}{AIF}$

248. Fond sig'imi (FS) umumiy o'zgarishini aniqlash formulasini ko'rsating

A) $FS = \frac{AIF_1}{YaM_1} - \frac{AIF_0}{YaM_0} = \pm \Delta_{AIF,YaM}$

B) $FS = \frac{AIF_1}{YaM_1} - \frac{AIF_0}{YaM_0} = \pm \Delta_{AIF,YaM}$

D) $FS = \frac{AIF_1}{YaM_1} - \frac{AIF_0}{YaM_0} = \pm \Delta_{AIF,YaM}$

E) $FS = \frac{AIF_1}{YaM_1} - \frac{AIF_0}{YaM_0} = \pm \Delta_{AIF,YaM}$

249. Omillar ta'sirlarining yig'indisi fond sig'imi ko'rsatkichining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak – ushbu qaysi formula bilan ifodalanadi?

A) $FS = \Delta_{AIF} + \Delta_{YaM} = \pm \Delta_{AIF,YaM}$

B) $FS = \Delta_{YaM} - \Delta_{AIF} = \pm \Delta_{YaM,AIF}$

D) $FS = \Delta_{SF} + \Delta_{AIF} = \pm \Delta_{SF,AIF}$

E) $FS = \Delta_{AIF} \div \Delta_{YaM} = \pm \Delta_{AIF,YaM}$

250. Fond rentabelligi (FR) ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) $FR = \frac{SF}{AIF}$

B) $FR = \frac{AIF}{YaM}$

$$D) FR = \frac{Y_{aM}}{AIF}$$

$$E) FR = \frac{AIF}{SF}$$

251. Sof foydani (SF) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik hajmiga (AIF) bo'lish orqali aniqlanadigan ko'rsatkich

A) fond rentabelligi

B) fond sig'imi

D) fond qaytimi

E) mehnatning fondlar bilan qurollanish koeffitsiyenti

252. Fond rentabelligi (FR) umumiy o'zgarishini aniqlash formulasini ko'rsating

$$A) FR = \frac{SF_1}{AIF_1} - \frac{SF_0}{AIF_0} = \pm \Delta_{SF,AIF}$$

$$B) FR = \frac{SF_1}{AIF_1} - \frac{SF_0}{AIF_0} = \pm \Delta_{AIF,SF}$$

$$D) FR = \frac{SF_1}{AIF_1} - \frac{SF_0}{AIF_0} = \pm \Delta_{SF,AIF}$$

$$E) FR = \frac{AIF_1}{SF_1} - \frac{AIF_0}{SF_0} = \pm \Delta_{AIF,SF}$$

253. Korxonalarining moliyaviy holatiga baho berishdagi asosiy ko'rsatkich

A) moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti

B) kreditorlik qarzlari

D) to'lovga qodirlik koeffitsiyenti

E) debitorlik qarzlari

254. Moliyaviy barqarorlik ahvolini o'rganish va tahlil etishning asosiy manbai

A) buxgalteriya balansi

B) korxona kapitali

D) korxona aktivlari

E) korxona majburiyatlari

255. Buxgalteriya hisobi sub'yektining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi tizimlashtirilgan axborot nima deyiladi?

A) buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti

B) buxgalteriya balansi

D) buxgalteriya schyotlari

E) ikkiyoqlama yozuv

256. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning qaysi moddasi moliyaviy hisobot deb nomlangan?

A) 22-modda

B) 14-modda

D) 16-modda

E) 19-modda

257. Moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmuni qaysi organ tomonidan belgilanadi?

A) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan

B) O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi tomonidan

D) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan

E) O'zbekiston Respublikasi Buxgalterlar milliy assosiasiyasi tomonidan
258. Buxgalteriya (moliyaviy) hisobot elementlari (unsurlari) bo'lib nimalar

hisoblanadi?

A) aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromad va xarajatlar

B) faqat xo'jalik mablag'lari

D) faqat xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalari

E) xo'jalik yurituvchi sub'yektning xo'jalik jarayonlari

259. Moliyaviy hisobotning qanday shakllari mavjud?

A) buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risida, pul oqimlari to'g'risida, xususiy kapital to'g'risida

B) asosiy vositalar harakati to'g'risida

D) oddiy va murakkab

E) statistik hisobot, operativ (tezkor) hisobot

260. Moliyaviy hisobot shakllari qaysi ma'lumotlari asosida tuziladi?

A) buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida

B) boshqaruv hisobi ma'lumotlari asosida

D) moliyaviy hisob ma'lumotlari asosida

E) statistik hisob ma'lumotlari asosida

261. Buxgalteriya balansi moliyaviy hisobotning nechanchi shakli hisoblanadi?

A) 1-shakl

B) 2-shakl

D) 4-shakl

E) 5-shakl

262. Moliyaviy hisobotning 1-shakl "Buxgalteriya balansi" qaysi BHMS orqali tartibga solinadi?

A) 15-son BHMS

B) 5-son BHMS

D) 14-son BHMS

E) 9-son BHMS

263. Korxona aktivlari, kapitali va majburiyatlarini ma'lum bir kunga pul o'lchov birligida guruhlab, aks ettirish nima deyiladi?

A) buxgalteriya balansi

B) xo'jalik operatsiyasi

D) mablag'larni guruhlash

E) ikkiyoqlama yozuv

264. «Balans» so'zi qanday ma'noni anglatadi?

A) tarozi ikki pallas tengligi

B) korxona passivlari

D) korxona aktivlari

E) korxona aktivlari va passivlari

265. «Balans» so'zi qaysi tildan olingan?

A) lotin tili

B) ingliz tili

D) fransuz tili

E) nemis tili

266. Balans qanday tomonlarga ega?

A) aktiv, passiv

B) aktiv, passiv, aktiv-passiv

D) debet, kredit

E) debet, kredit, aktiv, passiv

267. Balansning uzoq muddatli aktivlar bo'limida nimalar aks ettiriladi?

A) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar

B) tayyor mahsulot, materiallar, pul mablag'lari

D) uzoq muddatli kreditlar, ustav fondi

E) majburiyatlar, kreditorlik qarzlari

268. Balansning joriy aktivlar bo'limida nimalar aks ettiriladi?

A) tayyor mahsulot, materiallar, pul mablag'lari

B) uzoq muddatli kreditlar, ustav fondi

D) majburiyatlar, kreditorlik qarzlari

E) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar

269. Balansning o'z mablag'lari manbalari bo'limida nimalar aks ettiriladi?

A) ustav fondi, qo'shilgan kapital, zahira kapitali

B) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar

D) tayyor mahsulot, materiallar, pul mablag'lari

E) uzoq va qisqa muddatli bank kreditlari, kreditorlik qarzlari

270. Balansning majburiyatlar bo'limida nimalar aks ettiriladi?

A) uzoq va qisqa muddatli bank kreditlari, kreditorlik qarzlari

B) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar

D) tayyor mahsulot, materiallar, pul mablag'lari

E) ustav fondi, qo'shilgan kapital, zahira kapitali

271. O'zbekiston Respublikasi qaysi balans turi qo'llaniladi?

A) netto balans

B) xalqaro balans

D) brutto balans

E) milliy balans

272. Mutloq likvidlik koeffitsiyenti qandan aniqlanadi?

A) $K_{ml} = \frac{A1}{P1+P2}$

B) $K_{ml} = \frac{A1+A2}{P1+P2}$

D) $K_{ml} = \frac{A1-A2}{P1-P2}$

E) $K_{ml} = \frac{A1}{P1-P2}$

273. Tezkor likvidlik koeffitsiyenti qandan aniqlanadi?

A) $K_{Tl} = \frac{A1+A2}{P1+P2}$

B) $K_{Tl} = \frac{A1-A2}{P1-P2}$

D) $K_{Tl} = \frac{A1}{P1-P2}$

E) $K_{Tl} = \frac{P1+P2}{A1+A2}$

274. Tezkor likvidlik koeffitsiyenti qanday holatda mo‘tadil ko‘rsatkich bo‘ladi?

A) $K_{Tl} \geq 1$

B) $K_{Tl} = 1$

D) $K_{Tl} \leq 1$

E) $K_{Tl} \pm 1$

275. Joriy likvidlik koeffitsiyenti qandan aniqlanadi?

A) $K_{jl} = \frac{A1+A2+A3}{P1+P2}$

B) $K_{jl} = \frac{A1-A2-A3}{P1-P2}$

D) $K_{jl} = \frac{A1+A2+A3}{P1+P2+P3}$

E) $K_{jl} = \frac{A1+A2-A3}{P1+P2}$

276. Korxona tomonidan boshqa korxona va tashkilotlarga to‘lanishi zarur bo‘lgan majburiyatlarga...

A) kreditorlik qarzlari deyiladi

B) debitorlik qarzlari deyiladi

D) uzoq muddatli qarzlari deyiladi

E) qisqa muddatli qarzlari deyiladi

277. Korxonaga boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan to‘lanishi zarur bo‘lgan majburiyatlarga...

A) debitorlik qarzlari deyiladi

B) uzoq muddatli qarzlari deyiladi

D) kreditorlik qarzlari deyiladi

E) qisqa muddatli qarzlari deyiladi

278. Debitorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) $AK_{DQ} = \frac{ST}{DQ}$

B) $AK_{DQ} = \frac{DQ}{ST}$

D) $AK_{DQ} = \frac{DQ \cdot 100}{ST}$

E) $AK_{DQ} = \frac{DQ \cdot 360}{ST}$

279. Debitorlik qarzlarning aylanish davri kun hisobida qanday aniqlanadi?

A) $AK_{DQ} = \frac{DQ \cdot 360}{ST}$

B) $AK_{DQ} = \frac{DQ \cdot 100}{ST}$

D) $AK_{DQ} = \frac{DQ \cdot 30}{ST}$

E) $AK_{DQ} = \frac{ST \cdot 360}{DQ}$

280. Moliyaviy hisobotning 2-shakli qanday nomlanadi?

A) moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot

B) buxgalteriya balansi

D) pul oqimlari to‘g‘risida hisobot

E) xususiy kapital to‘g‘risida hisobot

281. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunning 25-moddasi nima deb nomlanadi?

- A) moliyaviy hisobotni taqdim etish
- B) moliyaviy hisobotning hisobot davri
- D) moliyaviy hisobotni e‘lon qilish
- E) moliyaviy hisobot

282. Moliyaviy hisobot qachon tuziladi?

- A) hisobot yili boshidan ortib boruvchi yakun bilan
- B) har yarim yilda
- D) har oyda tuziladi
- E) kelgusi yil birinchi choragida

283. Yillik moliyaviy hisobotning hisobot davri qachon?

- A) 1 yanvar - 31 dekabr kalendar yil
- B) yilning har choragi
- D) 1 mart - 31 dekabrqa qadar bo‘lgan davr
- E) 1 yanvardan kelgusi yil 15 fevralga qadar bo‘lgan davr

284. Yangidan tashkil etilgan yuridik shaxslar uchun qaysi davr hisobot yili hisoblanadi?

A) yuridik shaxs huquqi qo‘lga kiritilgan sanadan boshlab o‘sha yilning 31 dekabriga qadar bo‘lgan davr

- B) keyingi yilning 31 dekabriga bo‘lgan davr
- D) hisobot yilining 1 yanvaridan 31 dekabriga bo‘lgan davr
- E) yuridik shaxs huquqi qo‘lga kiritilgan sanadan boshlab keyingi yil 15 fevralga qadar bo‘lgan davr

285. Agar yuridik shaxs (byudjet tashkilotlaridan tashqari) 1 oktyabrdan keyin ro‘yxatga olingan bo‘lsa, qaysi davr birinchi hisobot yili hisoblanadi?

- A) ro‘yxatga olingan sanadan keyingi yilning 31 dekabriga qadar bo‘lgan davr
- B) ro‘yxatga olingan sanadan hisobot yilning 31 dekabriga qadar bo‘lgan davr
- D) hisobot yilining 1 yanvaridan 31 dekabriga bo‘lgan davr
- E) ro‘yxatga olingan sanadan keyingi yilning 15 fevralga qadar bo‘lgan davr

286. Moliyaviy hisobot kimlarga taqdim etiladi?

A) davlat soliq xizmati organlariga, mulkdorlarga, davlat statistika organlariga, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga

- B) O‘zbekiston Respublikasi Buxgalterlar milliy assosiasiyasiga
- D) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy boshqarmalariga
- E) mahalliy hokimiyatga

287. Korxona hisobraqamlari orqali pul mablag‘larining kelib tushishi va ularning sarflanishiga nima deyiladi?

- A) pul mablag‘lari oqimi
- B) to‘lov topshiriqnoma
- D) to‘lov talabnoma
- E) xo‘jalik operatsiyalari

288. Pul oqimlari to'g'risida hisobot moliyaviy hisobotning nechanchi shakli hisoblanadi?

- A) 4-shakl
- B) 5-shakl
- D) 2-shakl
- E) 1-shakl

289. Moliyaviy hisobotning 4-shakl "Pul oqimlari to'g'risida hisobot" qaysi BHMS orqali tartibga solinadi?

- A) 9-son BHMS
- B) 14-son BHMS
- D) 5-son BHMS
- E) 15-son BHMS

290. Korxonalarda pul mablag'lari harakati nechta iqtisodiy faoliyat bo'yicha o'rganiladi?

- A) 4
- B) 5
- D) 3
- E) 2

291. Korxonada mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan, mol yetkazib beruvchilarga to'langan, xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari kabilar qaysi faoliyat bilan bog'liq bo'lgan pul mablag'lari hisoblanadi?

- A) operatsion faoliyatidagi pul mablag'lari
- B) investitsion faoliyatidagi pul mablag'lari
- D) moliyaviy faoliyatidagi pul mablag'lari
- E) soliq uchun to'langan pul mablag'lari

292. Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari, olingan va to'langan foizlar, dividendlar, valyuta kursidagi farqlar qaysi faoliyat bilan bog'liq bo'lgan pul mablag'lari hisoblanadi?

- A) moliyaviy faoliyatidagi pul mablag'lari
- B) soliq uchun to'langan pul mablag'lari
- D) operatsion faoliyatidagi pul mablag'lari
- E) investitsion faoliyatidagi pul mablag'lari

293. Asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni, uzoq muddatli moddiy aktivlarni sotib olish va sotish kabilar qaysi faoliyat bilan bog'liq bo'lgan pul mablag'lari hisoblanadi?

- A) investitsion faoliyatidagi pul mablag'lari
- B) operatsion faoliyatidagi pul mablag'lari
- D) soliq uchun to'langan pul mablag'lari
- E) moliyaviy faoliyatidagi pul mablag'lari

294. Bank qaysi hujjatga asosan hisoblangan pullarni to'lovchi schyotidan mol yuboruvchining schyotiga o'tkazadi?

- A) to'lov talabnoma
- B) naqd pulni olib borish e'loni

D) to'lov topshirnomasi

E) chek

295. Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari qachon qabul qilingan?

A) 1998 yil 24-yanvar

B) 2000 yil 20-mart

D) 2017 yil 7-fevral

E) 2017 yil 4-sentyabr

296. Korxonada kassa operatsiyalari hisobi kim tomonidan yuritiladi?

A) kassir

B) korxona rahbari

D) bosh hisobchi

E) bank xodimi

297. Bankdan pul olish uchun korxonalar tomonidan qanday hujjat rasmiylashtiriladi?

A) chek daftarchasi

B) to'lov topshirnomasi

D) kassa kirim orderi

E) to'lov talabnomasi

298. Korxona kassasiga naqd pul kirim qilinganda qaysi hujjat rasmiylashtiriladi?

A) kassa kirim orderi

B) kassa chiqim orderi

D) chek daftarchasi

E) schyot-faktura

299. Kassadan pul berilganda yoki kassaga qabul qilinganda qanday hujjat rasmiylashtiriladi?

A) kassa kirim va chiqim orderi

B) schyot-faktura

D) kassa daftari

E) to'lov vedomosti

300. Hisob-kitob schyotidan pul olib kelishda ishlatiladigan hujjat turi?

A) chek

D) kassa kirim orderi

B) kassa chiqim orderi

E) schyot-faktura

V. Fan bo'yicha baholash me'zonlari

Baholash usullari	testlar, yozma ishlar, og‘zaki so‘rov, prezentasiyalar
Baholash mezonlari	5 baho (a‘lo) – fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtira olish; – iqtisodiy tahlil nazariyasi fanining mohiyati maqsadi, asosiy vazifalari, natija o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar turkumlanishi hamda ularning tahlilini bajarib berish; – iqtisodiy tahlilga oid atamalarni ijodiy fikrlay olish; – iqtisodiy tahlil sub’yektlari va ob’yektlarini aytib berishi; – iqtisodiy tahlil ko‘rsatkichlari, omillarining turkumlanishini aytish, tavsifini izohlash; – iqtisodiy tahlilning turlari va shakllarini izohlash va tasavvur hosil qilish. – mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajara olishi. 4 baho (yaxshi) – fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtira olish; – iqtisodiy tahlil nazariyasi fanining mohiyati maqsadi, asosiy vazifalari, natija ozgarishiga ta’sir etuvchi omillar turkumlanishi hamda ularning tahlilini bajarib berish; – iqtisodiy tahlilga oid atamalarni ijodiy fikrlay olish; – iqtisodiy tahlil sub’yektlari va ob’yektlarini aytib berishi; – iqtisodiy tahlil ko‘rsatkichlari, omillarining turkumlanishini aytish, tavsifini izohlash; – iqtisodiy tahlilning turlari va shakllarini izohlash va tasavvur hosil qilish. 3 baho (qoniqarli) – fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtira olish; – iqtisodiy tahlil nazariyasi fanining mohiyati maqsadi, asosiy vazifalari, xo‘jalik jarayonlari va xo‘jalik muomalalari turkumlanishi hamda ularning tarkibiy tuzilishini ochib berish; – iqtisodiy tahlilga oid atamalarni ijodiy fikrlay olish; – iqtisodiy tahlil sub’yektlari va ob’yektlarini aytib berishi; – iqtisodiy tahlilning ko‘rsatkichlari, omillari turkumlanishini aytish, tavsifini izohlash; 2 baho (qoniqarsiz) – fanning nazariy va uslubiy asoslarini bilmaslik; – iqtisodiy tahlil usullari haqida tasavvurga ega bo‘lmaslik; – iqtisodiy tahlil usullarini qo‘llay olmaslik.

VI. Fan bo'yicha tarqatma materiallar

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlai.

Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda (YaF) - mahsulotlarni sotishdan olingan jami sof pul tushumidan (SPT) sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxini (TN) chegirib tashlash orqali:

$$YaF = SPT - TN \text{ yoki } (\sum qr - \sum qz)$$

Bunda, q - sotilgan mahsulot miqdori;

r - sotilgan 1s mahsulot bahosi;

z - sotilgan 1s mahsulot tannarxi;

$\sum qr$ - mahsulotni sotishdan olingan sof pul tushumi;

$\sum qz$ - ishlab chiqarish tannarxi.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi (AFF) – mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydadan (YaF) davr xarajatlari (DX) bilan asosiy faoliyatning boshqa operasion xarajatlarini (BX) ayirish va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini (BD) qo'shish orqali aniqlanadi:

$$AFF = YaF - DX - BX + BD$$

Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (UXF) – asosiy faoliyatning foydasiga (AFF) moliyaviy faoliyatning daromadlarini (MFD) qo'shib, moliyaviy faoliyat bo'yicha bo'lgan xarajatlarni (MFX) ayirib tashlash orqali aniqlanadi:

$$UXF = AFF + MFD - MFX$$

Soliqlar to'langunga qadar bo'lgan foyda (STF) – umumxo'jalik faoliyati foydasiga (UXF) favqulotda yuzaga kelgan foydani (FF) qo'shish va favqulotda yuzaga kelgan zararni (FZ) chegirib tashlash orqali aniqlanadi:

$$STF = UXF + FF - FZ$$

Sof foyda (SF) – soliq to'langunga qadar bo'lgan foydadan (STF) daromad (foyda) solig'ini (DS) hamda foydadan to'lanadigan boshqa soliq va yig'imlarni (BS) chegirib tashlash kerak:

$$SF = STF - FS - BS$$

Rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash usullari

1.Sotilgan mahsulotlar rentabelligi (Rmr) - mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydani (Yaf) 100 foizga ko'paytirib, sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga (TN) bo'lish kerak:

$$Rmr = \frac{YaF * 100}{TN}$$

Bu rentabellik xarajatlardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichdir, ya'ni 1 so'mlik qilingan xarajatga qancha foyda olganligini ko'rsatadi.

2.Asosiy vositalar rentabelligi (Rav) - hisobot davridagi sof foydani (SF) 100 foizga ko'paytirib, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga (AIF) bo'lish orqali

aniqlanadi:

$$R_{av} = \frac{SF * 100}{AIF}$$

Bunda, AIF-asosiy ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymati.

Bu rentabellik asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

3. Aktivlar rentabelligi (R_a) - soliq to'langunga qadar bo'lgan foydani (STF) 100 foizga ko'paytirib, natijasini uzoq muddatli aktivlar (UA) bilan aylanma aktivlar (AA) summasining jamiga (ya'ni balansning jamiga) bo'lish kerak:

$$R_a = \frac{STF * 100}{UA + AA}$$

Aktivlar rentabelligi hisobot davrida 1 so'mlik asosiy vositalar bilan aylanma mablag'lar hisobiga necha so'mlik foyda olinganligini anglatadi.

4. Xususiy kapital rentabelligi (R_{xk}) - hisobot yilidagi sof foydasini (SF) 100 foizga ko'paytirib, ularning summasini xususiy kapital (XK) ning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish kerak.

$$R_{xk} = \frac{SF * 100}{XK}$$

Bu ko'rsatkich bir so'mlik xususiy kapital hisobiga necha so'mlik sof foyda olinganligini ko'rsatadi, ya'ni xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligi darajasini ifodalaydi.

5. Permanent kapital rentabelligi (R_{pk}) - korxonaning sof foydasini (SF) permanent kapitalning o'rtacha yillik qiymatiga (PK) bo'lish kerak:

$$R_{pk} = \frac{SF * 100}{PK}$$

Korxonaning xususiy kapitali bilan uzoq muddatli qarz kapitali birgalikda permanent kapitalni tashkil etadi.

$$R_{pk} = \frac{SF * 100}{XK + QK}$$

Bunda, XK-xususiy kapital;

QK-uzoq muddatli qarz kapitali;

Permanent kapital rentabelligi koeffitsienti xususiy va uzoq muddatli qarz kapitallarining 1 so'miga (100 so'miga) qancha sof foyda to'g'ri kelishligini ko'rsatadi.

1-shakl. Buxgalteriya balansi

Ko'rsatkichlar nomi	atr kod i	Hi sobot davri boshiga	Hi sobot davri oxiriga
Aktiv			
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar:			
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300)	10		
eskirish summasi (0200)	11		
qoldiq (balans) qiymati (satr. 010 - 011)	12		
Nomoddiy aktivlar:			
boshlang'ich qiymati (0400)	20		
amortizatsiya summasi (0500)	21		
qoldiq (balans) qiymati (satr. 020 - 021)	22		
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr.040+050+060+070+080)	30		
Qimmatli qog'ozlar (0610)	40		
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	50		
qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	60		
Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalarga investitsiyalar (0640)	70		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	80		
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	90		
Kapital qo'yilmalar (0800)	00		
Uzoq muddatli debitorlik qarzlar (0910,0920,0930,0940)	10		

Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	20		
I bo‘lim bo‘yicha jami (sitr.012+022+030+090+100+110+120)	30		
II. Joriy aktivlar			
Tovar-moddiy zaxiralar,jami(sitr150+160+170+180)	40		
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100, 1500, 1600)	50		
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	60		
Tayyor mahsulot (2800)	70		
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	80		
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	90		
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	00		
Debitorlar, jami (sitr. 220+240+250+260+270+280 290+300+310)	10		
shundan: muddati o‘tgan	11		
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	20		
Ajratilgan bo‘linmalarining qarzi (4110)	30		
Sho‘ba va qaram xo‘jalikning qarzi (4120)	40		
Xodimlarga berilgan bo‘naklar (4200)	50		
Mol yyetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar (4300)	60		
Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4400)	70		
Maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4500)	80		
Ta‘sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi (4600)	90		
Xodimning boshqa muomalalar bo‘yicha qarzi(4700)	00		
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)			

	10		
Pul mablagʻlari,jami (satr.330+340+350+360),shuj.:	20		
Kassadagi pul mablagʻlari (5000)	30		
Hisob-kitob schyotidagi pul mablagʻlari (5100)	40		
Chet el valyutasidagi pul mablagʻlari (5200)	50		
Boshqa pul mablagʻlari va ekvivalentlari (5500, 5600, 5700)	60		
qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	70		
Boshqa joriy aktivlar (5900)	80		
II boʻlim boʻyicha jami (satr. 140+190+200+210+320+370+380)	90		
Balans aktivi boʻyicha jami (satr.130+390)	00		
Passiv			
I. Oʻz mablagʻlari manbalari			
Ustav kapitali (8300)	10		
Qoʻshilgan kapital (8400)	20		
Rezerv kapitali (8500)	30		
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	40		
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	50		
Maqsadli tushumlar (8800)	60		
Kelgusi davr xarajatlari va toʻlovlari uchun zaxiralar (8900)	70		
I boʻlim boʻyicha jami (satr.410+420+430-440+450+460+470)	80		
II. Majburiyatlar			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr.500+520+530+540+550+560+570+580+590)	90		
shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (satr.500+520+540+560+590)	91		

Mol yyetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000)	00		
Ajratilgan bo‘linmalarga uzoq muddatli qarz (7110)	10		
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarga uzoq muddatli qarz (7120)	20		
Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7230)	30		
Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7240)	40		
Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7250, 7290)	50		
Xaridor va buyurtmachidan olingan bo‘naklar (7300)	60		
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	70		
Uzoq muddatli qarzlari (7820, 7830, 7840)	80		
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (7900)	90		
Joriy majburiyatlar, jami (sotr.610+630+640+650+660+670+680+690+700+710+ +720+730+740+750+760)	00		
shu j.dan: joriy kreditorlik qarzlari(sotr610+630+ +650+670+680+690+700+710+720+760)	01		
shundan: muddati o‘tgan joriy kreditorlik qarzlari	02		
Mol yyetkazib beruvchi va pudratchilarga qarz (6000)	10		
Ajratilgan bo‘linmalarga qarz (6110)	20		
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarga qarz (6120)	30		
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	40		
Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	50		
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)	60		
Olingan bo‘naklar (6300)	70		
Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6400)			

	80		
Sugʻurtalar boʻyicha qarz (6510)	90		
Maqsadli davlat jamgʻarmalariga toʻlovlar boʻyicha qarz (6520)	00		
Taʼsischilarga boʻlgan qarzlari (6600)	10		
Mehnatga haq toʻlash boʻyicha qarz (6700)	20		
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	30		
Qisqa muddatli qarzlari (6820, 6830, 6840)	40		
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	50		
Boshqa kreditorlik qarzlari (6950 dan tashqari 6900)	60		
II boʻlim boʻyicha jami (sitr.490+600)	70		
Balans passivi boʻyicha jami (sitr.480+770)	80		

VII. O‘UMning elektron varianti